

VII

Berlin

Necha haftalardan beri tergovchini qiziqtirayotgan voqealar Berlin atrofida yuz bergan edi. Tergovchi qo'lidagi g'ayrimalumotlarning asosiylari ham aynan urushdan keyingi damlarga xos edi.

Urush sovet qurolining g'alabasi bilan tamom bo'lgach, ular Berlin yaqinida, EbersvalKjde degan shaharda bir oycha turdilar. Endi o'q yomg'irlari yog'ilib turgan janggohlarga safarga chiqishmas, tahririyat jam bo'lib o'tirib gazeta chiqarishardi. Bo'sh vaqtlarida aholisi siyraklashib qolgan, vayron shaharni kezib, vTbьsayrvTbьk qilishardi. Shunday kunlarning birida Yo'lchiev bilan Mirzakalon soatsoz do'koniga kirishdi. Ikkovining ham soati buzilgan edi. Bu soatlarni xo'jayinning lab-lunjini bo'yoq bilan quyuqgina chaplagan, quloqlariga haybatli, og'ir shaqulda, qo'llariga qator uzuk taqqan, ko'zlari suzilib, nimanidir va'da etayotgan ofatta xotin qabul qildi. Mirzakalonning soatida ba'zi qismlar yo'q bo'lgani uchun vTbьusta bilan gaplashib ko'raman, ertaga kelib, xabar olingvTbьk, dedi. Shu on eshakdek keladigan bahaybat itni yetaklab, ichkaridan baland bo'yli, onasi kabi bezadoqli nemis qiz chiqib keldi. Yo'lchievga tikildi-yu, ko'zlari bilan kulib qo'ydi. Uzoq Sharqni vTbьgullatibvTbьk kelgan Yo'lchiev uchun shuning o'zi kifoya edi. O'zi bilmagan tilda jug'urlashib qolgach, Mirzakalonning g'ashi kelib, do'kondan chiqib ketdi. Yo'lchiev anchadan keyin qaytdi. Uning kayfi chog', ruhi baland edi. Quvonchini ichiga sig'dira olmay, taassurotini o'rta to'kdi: soatsozning uyiga kirganmish, uyi boy, serbisot ekanini, chinakam hayotni endi ko'rganini hayajonlanib gapirdi. Shundan so'ng u o'sha serbisot uyga ichkuyovdek bo'lib qoldi. Tahririyat Berlinga ko'chib o'tganidan keyin ham bu oilani ziyorat etishni kanda qilmadi.

Mirzakalon birinchi tashrifdan so'ng, xotinning taklifiga binoan ertasi kuni soatining taqdirini bilish maqsadida do'konga yana keldi. Xo'jayinning xotini ustani chaqirdi. Ko'zlari samimiy kulib turuvchi, yigirma besh yoshlardagi bir yigit chiqdi-da: -Zdras tovarish ofitsier!-dedi. Keyin ruscha-nemischa-fransuzcha aralashtirib bir nimalar gapirdi. So'z topilmaganda, qo'l harakatlari bilan uqtirdi. Mirzakalonning zo'rg'a uqishicha, u fransuz ekan, gitlerchilar lageridan sovet soldatlarini ozod qilishda ishtirok etganmish. Usta so'z orasida sevinib, quvonib: vTbьViva, sovet zoldatvTbьk, deyar edi nuqul. Xullas, soatni albatta tuzatib berajagini aytib, vTbьone gelKjd rabotavTbьk, ya'ni vTbьtekinga tuzatib beramanvTbьk, dedi. Ikki kundan keyin soat tayyor bo'lgach, u soatga qo'shib bir fotosuratni ham uzatdi. Mirzakalonning ming azob bilan uqishiga qaraganda, u: vTbьMana shu suratdagi odam osiyolik edi. Biz uni Gitler lageridan ozod qilganmiz, ko'rganingizda quvonib yurarsiz, balki u sizning hamshahringizdir, balki uyga qaytganingizda uchrashib qolarsizvTbьk, degan edi. Mirzakalon uning lutfini rad etmadi.

Qirq beshinchi yilning iyulida tahririyat Berlinga, Shosseshtrasse ko'chasiga ko'chib keldi. Bu yer turarjoylari bo'lib, ishlaydigan xonalari va bosmaxona bir yarim chaqirim janubroqda Invalidenshtrasseda edi. Shahar transporti ishdan chiqqani uchun ertayu kech piyoda qatnar edilar. Berlinga kelishgach, Mirzakalon ko'proq Yo'lchiev bilan birga bo'lib, Meliev bilan Ilyosov esa mehribon bojalar kabi yaqinlashib ketdilar. Ikkovlashib ishga barvaqt chiqib ketsalar-da, Mirzakalon bir-ikki soat keyin borganda ham ular hali idoraga yetib kelmagan bo'lardilar. Ba'zan tushlikda ko'rinmay qolardilar. Ayrim kunlari ishdan barvaqt chiqib, yotoqqa yarim kechada qaytardilar. Bu hol zamirida mahfiylik bo'lmasa-da, Yo'lchievning vTbьqaerlarda sanqib yuribsanlar?vTbьk degan savoliga har safar vTbьbichiqchirikida edikvTbьk, deb javob qaytarishardi. Lekin nimani bichtirayotganlarini aytmadilar, bichtirayotganlari ham tikilib ado bo'lmasdi. Ishga doim kechikib kelishlari, vaqtlari ketib qolishlari joniga tekkach, Yo'lchiev ulardan to'g'ri gapni talab qildi. Shunda Meliev chaqchaq urib kuldi-da:

-vTbьBichiqchivTbьk deganimiz shunchaki gap. Biz bir jononnikiga boramiz. O'zi nemis mayorining xotini. Uyini, kiyinishini, o'zini ko'rsalaring eslaring og'adi. Berlinda bunaqa tannoz oyimni hali ko'rganim yo'q, ko'rmasman ham! Ana shu huriliqo shoir Ilyosovga oshiqu-beqaror, har kuni ko'rib turmasalar Ilyosov boyaqishni tiriklayin yebgina tashlaydi. Ana shunikida bir-ikki soat o'tirib kelamiz,-dedi. Ilyosov bu gapga biron narsa qo'shmaganidek, yo hazil, yo yol'gon deb rad ham qilmadi. Keyin bir-ikki og'iz so'z bermay, u xotinning chinakam dilbarligini, erkalgini-o'ktamligini, uyida ovqat, kiyim-kechak ko'pligini maqtay ketdi. U gapini oxiriga yetkazmay, Meliev qo'shimcha qildi:

-Ilyosov uni kunda bir ko'rmasa xummor qiladigan bo'lib qolibdi...

-Sizning vazifangiz-chi? Ilyosovni gerr-mayor xonimga qo'shib qo'yib, ko'chada qorovullik qilish bo'lib qoldimi?-deb istehzo qildi Yo'lchiev.

-Yo'q, bizga nasib qilgani ham bor, biz ham quruq emasmiz,-dedi taltayib Meliev.

Bu ta'rifu-tavsiflardan ta'sirlangan Yo'lchiev vTbьbiz ham bir ko'raylikvTbьk, deb ko'ngli sust ketdi. Ikki oshna bu iltimosni qabul qilsalar-da, vTbьerta-indinvTbьk, deb galga solishaverdi.

Potsdamga ko'chishlaridan oldin, bosmaxonaga qarab borayotgan Mirzakalon ko'chada kutilmagan quvonchli voqeaga duch keldi. Ikki sovet askari bilan to'rt nemis yigitning mushtlashayotganini ko'rib, ularni ajratishga shoshildi. Askar yigitlarning qurolni ishga solmayotganlaridan bildi-ki, janjalga arzimagan narsa sabab bo'lgan. Darhaqiqat, shunday bo'lib chiqdi. Mushtlashayotganlar ajratilgach, askarlardan birining nemis yigitidan velosipedni tortib olmoqchi bo'lganligi aniqlandi. Mirzakalon uchun bu muhim emas edi. Uni avvaliga lol qoldirgan, so'ng qalbini quvonch seli bilan to'ldirgani velosipedni tortib olmoqchi bo'lgan serjant uning ukasi Umidjon edi!

Hunar bilim yurtida chilangarlik o'qiyotgan Umidjon amaliyotni o'tash uchun Taganrogga borgan kezlari urush boshlandi.

Taganrogga dastlabki bombalar yog'dirilganda ham u shu shaharda edi. Hammayoq ag'dar-to'ntar bo'lgan kunlarda hali u, hali bu poezdga chiqib, pulsiz, osh-ovqatsiz bir amallab Toshkentga qaytib keldi. Keldi-yu, yaqinlari bilan diydorlashishga ulgurmad ko'chadayoq qo'lga olinib, urushga jo'natildi. Shundan beri aka-uka xat orqaligina xabarlashishardi. G'alaba kundan beri ikkovlari bir shaharning yonma-yon ikki ko'chasida yashashlariga qaramay, yozgan xatlarini bir yarim, ikki oy deganda olishardi. Manzilga vTbьPolevaya pochtaTbьk deb raqamlanuvchi maktubda qaerda ekanliklarini ma'lum qilish mumkin emas, harbiy sir edi.

Umidjon bilan diydor kunlari uzoq davom etmadi. Armiya razvedkasidagi xizmatlari yuqori taqdirlangan, vTbьShuhratvTbьk ordenlari bilan mukofotlangan, baland bo'yli, kelishgan serjant Ismoilov Berlindagi Faxriy qorovul safida xizmatga olib qolingani edi. Tahririyat Potsdamga ko'chgach, ularning diydorlashuvlari qiyinroq bo'lib qoldi.

Bir surat tarixi

Potsdamda ekanliklarida Mirzakalon gazetaning yangi sonini bosish jarayonini kuzatib turganida avval Meliev, uning ortidan Ilyosov hovliqib kirib keldilar. Melievning qo'lida surat bor edi.

-Mirza!-dedi u eshikni ochib kirishi bilan, so'ng qo'lidagi suratni uzatdi.-Taniysanmi?

Mirzakalon suratni qo'lga olmadi, Meliev bundan g'ashlanmasdan qo'lini cho'zganicha turaverdi. Mirzakalon temir xoch taqqan, vTbьSSvTbьk kiyimidagi odamni aniq tanidi: urush yillari uning nomi tilga olinsa, albatta vTbьvatan xoini, fashistvTbьk degan sifat qo'shib aytilardi. Shu bois suratdagi Abdulla To'laganni tanigan Mirzakalon beixtiyor vTbьObbo it emgan!vTbьk deb yubordi.

Abdulla To'lagan urushdan ilgari в Ўзбекистон Ўз gazetasi da Meliev bilan xizmat qilib, o'zini hamisha haqiqiy kommunist qilib ko'rsatib kelgan o'rta-miyona saviyadagi jurnalist edi. Fashist kiyimidagi suratning paydo bo'lib qolishi Mirzakalonni ajablantirdi. Og'zidan chiqqan ikkinchi qator so'z в Ўз Qaerda olding? в Ўз so'zlari bo'ldi.

Meliev to'rtinchi qavatga yugurib chiqqanidanmi yoki suratni topgani tufayli hayajonlanganidanmi, xansirashini bosolmas edi.

-Restoranda xotinini ko'rdik!-dedi-da, gapining yolg'on emas, rostligini tasdiqlatgisi kelgandek, orqasidan kelgan Ilyosovga o'girilib gapirdi:-A, Ilyosov?

Tabiatidagi qo'rqoqlikni kamgaplik niqobi bilan to'suvchi Ilyosov bu safar ham odatiga xilof qilmay: в Ўз Haв Ўз, dedi-qo'ydi.

Ilyosovning в Ўз Haв Ўзksi Melievga dalda berdi chog'i, u chalaman-chatti qilib, gapira ketdi:

-Biz uning xotinini restoranda ko'rdik,-Meliev shunday deb takrorlab, yana Ilyosovga bir qarab oldi.-Restoranga kirsak, ofitserlar stoli yonida ikkita nemka o'tirgan ekan. Biz o'z joyimizga o'tirib, pivo chaqirdik. Ikkalamiz o'zbekcha gaplashib o'tirgan edik,-shu yerga kelganda Meliev yana sherigiga в Ўз A, Ilyosov? в Ўз deb tasdiqlatib oldi. Ilyosov yana boyagi bir bo'g'inli в Ўз Haв Ўzisini yumalatgach, Meliev davom etdi:-Haligi nemkalardan biri: в Ўз Sizlar qaerliksizlar? в Ўз deb so'rab qolsa bo'ladimi?! Men в Ўз Toshkentlikmiz в Ўз, degan edim, nemka: в Ўз Turkistondanmi? в Ўз deb qiziqdi. Keyin o'zining eri ham turkistonlik ekanini aytdi, a, Ilyosov?-so'roqqa javoban Ilyosov o'zidagi в Ўз Haв Ўz zahirasining yana biridan ajradi.-Keyin sumkasini ochib, shu suratni ko'rsatib qolsa bo'ladimi?! Muni qara!-dedi Meliev suratni Mirzakalonning tumshug'iga suqib.-Abdullaning o'zi-ya?!

-Xo'sh, undan keyin nima bo'ldi? Uyog'ini gapir,-dedi Mirzakalon.

Meliev endi o'zini ancha tutib olgan edi, shoshilmasdan, hovliqmasdan gapiraboshladi.

-Xotinga: в Ўз Ie, bu mening o'trog'im Abdulla-ku? в Ўз devdim, в Ўз Ha, Abul Zavqiy в Ўз, dedi,-Meliev gapi shu yerga keganida Mirzakalonning yelkasiga turti:-Esingdami, hov jurnalda в Ўз Zavqiy в Ўз degan tahallusning kimligini bilolmagan edik. Ana o'sha shu qiztaloq ekan. Keyin Abdullaning qaerdaligini so'ragan edim, в Ўз ketgan в Ўз, dedi. O'zi ham bir-ikkita o'zbekcha so'zlarni bilar ekan, aytdi, tuzuk. Ertaga uyiga boradigan bo'ldik, a, Ilyosov?- Ilyosov yana bitta в Ўз Haв Ўzsidan mahrum bo'ldi.-Surati bilan adresini olib qoldim. Yo o'zi kelib bizni olib ketadi yo o'zimiz qidirib boramiz.

Kechki payt, Mirzakalon yotishga tayyorgarlik ko'rayotganda Meliev kirib keldi:

-Dayusni o'lib ketdi, desak, bu yerda mazza qilib yurgan ekan... Biz bo'lsak o'rmonlarda ne-ne azoblarni ko'rmadik,-dedi afsus bilan.

Uyqusi kelib turgan Mirzakalon u bilan bu haqda gaplashgisi kelmay:

-E-e... mazzasi boshini yesin!-deb qo'ydi, keyin e'tiroziga izoh berdi:-Uning hozirgi holati menga qo'l-oyog'i singan, o'lasida holda kaltaklangan va faqat o'lish uchungina iniga sudralib kirib ketgan yumronqoziqni eslatyapti. Agar shu в Ўз mazzav Ўz deyiladigan bo'lsa, kechdim men bunday mazzadan.

Meliev yana bir oz o'tirmoqchi edi, lekin Mirzakalon bosmaxonada charchaganini aytgach, chiqib ketdi.

Ertasiga ertalab Abdulla To'laganning xotinini va'da qilgan soat o'nga qadar kutdilar, ammo u kelmadi. To'rtovlari maslahatlashib, Ilyosovni qoldirib ketishga kelishdilar. Agar xotin kechikib keladigan bo'lsa, Ilyosov u bilan birga orqalaridan borishi kerak edi.

Mirzakalon Yo'lchiev, Meliev bilan birga yo'lga tushdi. Meliev hamrohlarini Shvarskopfentrasse ko'chasi bilan boshlab, bir tonnel dan olib o'tdi-da, biror o'n daqiqa yurganlaridan keyin Abdulla To'laganning xotinikiga boshlab keldi. Melievning qo'lida adres yozilgan qog'oz bo'lsa-da, undan qariyb foydalanmay, adashmay, tez va chaqqon topib kelishi Mirzakalonga ajabtovur tuyulsa-da, indamadi.

Meliev birinchi qavatdagi xonadon eshigini taqillatdi. Ichkaridan yigirma ikki-yigirma to'rt yoshlardagi ko'rimsiz, arvoq, badqovoq, qotma bir xotin eshikni ochdi va Melievni ko'riboq. в Ўз A-a, keldinglarmi? в Ўз dedi. Dahlizga kirishgach, Meliev shu badbashara juvonnini Abdulla To'laganning xotini, deb do'stlariga tanishtirdi. Uyda ikkinchi, bundan keksaroq, o'ttiz ikki-o'ttiz besh yoshlarda yana bir nemis xotin ham bor edi. O'zini в Ўз Rut в Ўz deb aytgan xotin ikkinchi ayolni в Ўз onam в Ўz deb tanishtirdi. Bu xotin bo'yining pastligi, o'zining to'laligi va basharasining tamoman boshqaligi bilan Rutga ona bo'lolmas edi. Ularning ikki xonadan iborat bo'lgan uylari bisotlarining kamligi, faqirona mebellari bilan yetim boladek qimtinib turar edi.

O'rta qo'yilgan stol atrofiga o'tirdilar. Nemisxani nisbatan yaxshiroq bilgani uchun, shunda ham yuz, qo'l, barmoq harakatlari yordami bilan ko'proq Mirzakalon gaplashdi. Hammasi bo'lib yarim soatdan oshmagan suhbat natijasida ma'lum bo'ldi-ki, Abdulla To'lagan в Ўз Turkiston komiteti в Ўzning markaziy nashri в Ўз Yangi Turkiston в Ўzda mas'ul muharrir bo'lib ishlabdi. Rutdan Abdulla To'lagan chiqargan gazeta-jurnallardan bormi-yo'qligini so'rashgan edi, u: в Ўз Bor edi, erim ketishda в Ўз hammasini yoqib yuborgin в Ўz, deb tayinlagani uchun yoqib tashladim Undan xotira faqat shu ikki narsagina bor xalos в Ўz, deb bir foto surat bilan jurnal qirqmasini ko'rsatdi. Foto allaqanday mehmondorchilik paytida stol atrofida olingan bir to'da notanish kishilarning surati edi. Unda Abdulla To'lagan ham, shuningdek, ular taniydigan boshqa kishilar ham yo'q edi. Jurnal qirqmasidagi suratda esa Vali Qayumxon bilan Abdulla To'laganning o'z jurnallarini ko'rib turgan paytlari aks ettirilgan edi. Surat ostiga: в Ўз Sevgili prezidentimiz va shefimiz Vali Qayumxon va в Ўз Yangi Turkiston в Ўz jurnalining muharriri Abul Zavqiy navbatdagi sonni ko'rmoqdalar. Foto Rajab в Ўz, deb yozilgandi. Qirqmani Ilyosovga ko'rsatish uchun so'rab oldilar-da, fotosuratni esa taniydigan odamlari yo'qligi uchun, egasiga qaytardilar.

Mirzakalon turarjoylariga qaytgach, jurnal qirqmasidagi suratni Ilyosovga ko'rsatdi. Ilyosov suratga qarab kallasini qimirlatib qo'ydi-yu, hech nima demadi. Kallasining qimirlatishida в Ўз Obbo, itvachchalar! в Ўz degan nafratdan ko'ra, в Ўз Ha, men buni ko'rganman в Ўz, degan ma'no kuchliroq edi. Jurnal qirqmasidagi suratni Ilyosovga ko'rsatish bahonasida olgan bo'lsa-da, Mirzakalon undagi tasvirdagi Vali Qayumxon chehrasining chang bosib yotishini yoki axlatxonada chirishini istamagan edi. Urush yillari nemislar tomonida bo'lgani uchun Vali Qayumxonni vatan xoini deb bilib, undan nafratlanishi lozim edi. Lekin bu odam urushdan ancha ilgari o'z faoliyati bilan Mirzakalon kabi yuzlarcha yoshlar yuragida millatga muhabbat tuyg'usini uyg'otgan, millat ozodligi uchun kurash ishtiyogi cho'g'ini yosh qalblarda yoqqan edi. Urush yillari bu odamlarning millat ozodligi uchun kurash uslubini qanchalik to'g'ri yoki noto'g'ri tanlashganini Stalingrad dan to Berlinga qadar qariyb piyoda, qon kechib kelgan, necha minglarcha o'zbeklarning nomli va nomsiz qabrlarda ko'milib yotganiga guvoh bo'lgan Mirzakalon uzil-kesil to'g'ri baholay olmas edi. Bu haqda ko'p o'ylar edi, aniq xulosaga kelolmay, hukmni tarix ixtiyoriga topshirib qo'ya qolardi. Suratni ko'rganda bu odamga nisbatan urushgacha bo'lgan mehri uyg'onganini sheriklari sezishgan bo'lsa ehtimol...

Suratni Ilyosovga ko'rsatgach, tashlab yuborishi kerak edi, biroq ko'ngli bo'lmadi. O'z suratlari orasiga qo'ydi. Shu tarzda jurnal qirqmasi qirq yettinchi yilda Toshkentga keldi. Uni yo'qlab kelgan do'stlari Adham Rahmatov bilan Ma'ruf Hakimovlar Berlindan keltirilgan suratni tomosha qila turib bu qirqmaga ko'zlari tushdi-yu, Mirzakalonni kaltabinlikda ayblab, tanbeh bera ketdilar.

So'ng в Ўз hoziroq yoqib tashlang в Ўz, deb maslahat berdilar. Mirzakalon в Ўз xo'p в Ўz, dedi-yu, maslahatga amal qilmadi. Oqibat

nima bo'ldi? Tintuv natijasida GPU xodimlari qo'lga tushib, asosiy ashyoviy dalillardan biri sifatida вЂњIshvЂќga tikildi. Mana endi Vali Qayumxon bilan Abdulla To'laganga qanday yaqinligi borligini isbotlab berishi kerak. O'zini Cho'lponning shogirdi, deb hisoblagani haqiqat, bu ulug' zot bilan ko'p marta hamsuhbat bo'lgani ham to'g'ri, ammo Vali Qayumxon bilan biron marta bo'lsin uchrashmay turib, uni o'ziga sarvar ekanini qanday isbot qilib beradi?

Darvoqe... Vali Qayumxon masalasida oldingi tergovchi yanada chuqurlashmoqchi bo'lgan edi.

-Farzandlaringizni yaxshi tarbiyalagan ekansiz,-degandi papiros tutatganicha unga ko'z qadab,-Farrux hademay maktabni bitiradi. Flora ham oltin medalga asosiy da'vogar ekan.

Mirzakalon bolalardan so'z ochishdan tergovchining maqsadi nima ekanini aniq bilmay, yuragi biroz titragan holda javob berdi:

-Ha, bolalarim ilmga chanqoq.

-Rus maktabiga bergan ekansiz? Sababi uyingizga yaqinligimi yo boshqami?

-O'zbek maktablariga nisbatan rus maktablarida yaxshiroq bilim berishadi. Maktabning uyga yaqin yoki uzoqligi ikkinchi darajali masala, muhimi puxta bilim olish.

-Shunaqami?-tergovchi istehzo bilan kulimsiradi.-Yusuf Tohiriyga boshqacharoq gap aytgansiz shekilli? Esleysizmi?

-Eslyaman, elliginchi yil avgustida otam vafot etgan edilar. Oyning oxirgi kunlaridan birida Tohiriy biznikiga fотиha o'qigani kirdi. Otamning vafoti haqida bir-ikki yupanch so'zlari aytib, ko'nglimni ko'targandan keyin o'z dardini gapira ketdi: вЂњO'g'limni qaysi maktabga bersam ekan: rus maktabigami yo o'zbek maktabigami?вЂќ- deb ikkilandi. Savolini yaxshi tushunsam ham, javob berishga qiynalib, yelkamni qoqdim. U esa mendan javob kutmay o'zi o'rta qo'ygan savolni tahlil qila boshladi: вЂњRuscha maktabda bilimni yaxshi berishadi-yu, tarbiyaga yaxshi e'tibor berilmaydi, Adham Yunusning o'g'li Rustamga o'xshab axloqi buzilib, harxil yomon so'zlarni og'ziga oladigan xuligan bo'lib chiqarmikin, deb qo'rqaman. O'zbek maktabiga beray, desam u yerda ta'lim qurg'ur kuchsizroq. Juda boshim qotib qoldi. Bir maslahat berib yubormasangiz bo'lmaydiвЂќ.

-Qaydam,-dedim men, nima maslahat berishni bilmay. Keyin o'z bilganimni aytdim:-Mening bolalarim ham rus maktabida o'qishadi. Ammo og'izlaridan biron chakki gap chiqqanini bilmayman. Meningcha, gap rus maktabida emas, gap bola o'sayotgan muhitda, ota-onasining tarbiyasida, bolaning doirasida. Siz qanday ushlangiz bolangiz shunday bo'ladi-da, demak, bir jihatdan, gap otada, otaning qanday ko'z-quloq bo'lishida, otaning tarbiyasida ekan.

-To'g'ri aytgansiz... Siz вЂњgap otadaвЂќ deganingizda millatchilik ruhida tarbiyani nazarda tutgansiz, shundaymi? Men uyingizga borib, Farrux bilan gaplashdim. Vali Qayumxon haqida chiroyli hikoyalar aytib bergan ekansiz.

G'oyat hotirjam aytilgan bu gap Mirzakalonni seskantirib yubordi tergovchining maqsadini angladi: u Farruxni bekorga gapirmadi! Uyga borib, Farrux bilan gaplashganiga ishonish qiyin. Farruxning Vali Qayumxon haqida so'zlashi esa mutlaqo yolg'on! Chunki u bolalariga Vali Qayumxon haqida mutlaqo gapirmagan. Asosan rus tilidagi kitoblarni o'quvchi bolalari bu haqda biron o'zbekcha kitob orqali bilishlari ham mumkinmas. Tergovchining Farruxni tilga olishidan qo'rqqulik, g'oyat qo'rqqulik edi. Mirzakalon o'zining boshiga yog'ilayotgan barcha tuhmat toshlariga chidaydi, tergovchi bo'yniga qo'yayotgan barcha uydirma ayblarga iqror bo'ladi. Lekin Farruxiga millat fidoyilari haqida hikoya aytganini bo'yniga olsa, faqat o'zi emas, o'g'li ham abgor bo'ladi. Huddi Abdulla Qodiriyning, G'ozni Yunusning yana o'nlab fidoyilarning farzandlarini qamoqqa tiqqanlari kabi uning o'g'lini ham ayamaydilar. Terada вЂњmo'ylovвЂќ вЂњfarzandlar otalari uchun javob bermaydilarвЂќ, deb turgani bilan pastdagilar ayovsiz ravishda qamoqqa tiqyaptilar. Shularni o'ylab turib, Mirzakalon tergovchiga dadil javob berdi:

-Men farzandlarimni hech qachon millat xoinlarini hurmatlash ruhida tarbiya qilmaganman. Ular asosiy tarbiyani faqat mendan yoki ayasidan emas, Pushkindan, Tolstoydan, Dostoevskiydan olishgan. Men tarjima qilgan Gorkiyning вЂњBo'ron qushivЂќni yod olishgan. Ularning qalbiga xoin Qayumxon ruhi kirishi mutlaqo mumkinmas.

Mirzakalon gapini tugatmay, tergovchining oyog'i ishga tushib ketdi. Tapa-tapa tolgach, xansiraganicha:

-Afsuski, tilingni kesib olishga haqqim yo'q, bo'lganida edi, itlarga tashlardim,-dedi.

Keyingisiga nisbatan ayovsizroq bo'lgan bu tergovchi Mirzakalonning baxtiga ko'rinmay qoldi. O'zini вЂњAleksandr AleksandrovichвЂќ deb tanishtirgan yangi tergovchi salafining yuqori idoralarga вЂњko'tarilibвЂќ ketganini aytdi. U yuqoriga ko'tarildimi yo qora yer ostiga kirib yo'q bo'ldimi, Mirzakalon uchun farqsiz edi. Yangi tergovchi zohiran madaniyatli, ziyoli tabiat bo'lgani bilan, o'ziga kerakli gapni eshitmagan paytida Mirzakalonning jonini ombur bilan buragandan battar jazo usullarini qo'llashdan qaytmasdi. Bunisi ham Vali Qayumxon masalasida salafining talablarni takrorladi.

Turmaning bir kishlik kamerasida o'tirib, tergovchi tomondan tungi yo'qlovni kutayotgan Mirzakalon uchun bu vazifani bajarish nihoyatda og'ir edi.

VIII

Toshkent, Darxondagi uch xonali uy.

1986 yil, 4 fevral, seshanba, soat 18.40.

Orqa miyasida turgan qattiq og'riq Mirzakalonni xayol ummonidan, hayot sohiliga chiqardi. Quloqlari ostidagi zambaraklarning gumburi ham tindi, turmadagi zalvorli eshiklarning sharaqlashi ham eshitilmay qoldi. Yotgan xonasidagi, narigi mehmonxonadagi ovozlar ham aniq-tiniq eshitildi. Ko'zlarini ochib, ovoz egalarini ko'rgisi keldi, biroq, mijjalari o'ziga bo'ysinmadi. Kipriklari salgina qimirlab qo'yganini yonida o'tirgan onasi sezdi:

-Mirzakalon, ichingiz kuyayotgan bo'lsa, boshingizni ko'taraymi, choy ichib olasizmi?

Ichi kuyayotganini kampir qaydan bildi?

вЂњKampir tushmagur sezgirвЂќ,-deb o'yladi Mirzakalon, lekin javob bera olmadi. Javobga uringan lablari salgina qimirladi.

Kampir piyoladagi suvga oppoq paxtani botirib, uning lablarini ho'lladi. Mirzakalon O'shdagi hovlilari oldidan oqib o'tuvchi soy sohiliga yotib olib, zilol va muzdek suvdan simirgandek bo'ldi. Tanasiga rohat yugurgiladi. Suvdan ichaverdi... ichaverdi...

-Mirzakalon, oshnalaringiz kelishgan, kiraverishsinmi?

Bu savol uni O'shdagi zilol soy bo'yidan ko'tarib, yana Darxondagi uyiga, necha kundan beri yotgan to'shagiga qaytarib, mixladi. Kampir aytmasa ham bildi kelishganlarini. Yo'lchievning jarangdor, baland ovozi, huda-behudaga qah-qah otib kulaverishini bu to'shakdagina emas, lahadda yotganida ham bemalol eshitsa kerak.

Kirishdi. Salomlashishdi. Alik olmoqchi edi, tili ham, lablari ham o'ziga bo'ysinmadi. Bunday hollarda ziyoratchilar ranjimaydilar, balki bir-birlariga ma'nodor qarab qo'yadilar.

-Mirzakalon bilan Berlinni toz-za gullatganmiz-a!

Yo'lchievning gapi kulgi sadosi ostida qolgan tufayli qolgan so'zlarini anglay olmadi.

Ilyosovning ovozi eshitildi. U odatdagicha в Ёнhi-hиv Ёklab, bosh irg'ab qo'ygan bo'lsa kerak. Talvasali zamonlar o'tib ketgan bo'lsa-da, hali ham qo'rqib yashaydi bechora. Qo'rq-a-qo'rq-a yashab, Stalin zamonida necha pok chehralarga balchiq chaplaganini o'yalmikin? O'yla-o'ylay, Xudodan uyalarmikin?..

Mirzakalon uning qo'rquvdan piriptirib turuvchi ko'zlariga so'nggi marta qarab olishni istadi. Og'ir mijjalari istagining amalga oshishiga yo'l bermadi. Faqat kiprikleri amrga bo'ysunishga bir harakat qilib qo'ydi. Kiprikning harakatini sezgan do'stlari gaplarini eshitib, tushunib yotganini anglashdi-da, ko'nglini ko'taradigan gaplardan bir chimdim-bir chimdimdan so'zlay ketishdi. Mirzakalonga Yo'lchievning Berlinni gullatib yurganligi haqidagi gapi malol keldi. Mirzakalon-ku, G'alabadan keyin oilasini Berlinga ko'chirib kelib birga yashagan edi. Melievda urushdan keyin yayrab olish istagi kuchli bo'lsa-da, Mirzakalonning maslahatiga ko'nib, u ham oilasini olib kelgandi. Oilasini olib kelishni istamagan Yo'lchiev chindan ham в Ёngullatganв Ёk edi Berlin restoranlarini... Mirzakalon qamoqqa olinganda esa... kimdir uning gestapochi tashlab ketgan xotin bilan umrguzaronlik qilgani haqidagi tuhmatni GPUga yetkazgan edi. O'sha в Ёkimdirв Ёk o'lim to'shagida yotgan do'stlari bilan xayrlashishga kelgan uchovlonning biri. Mirzakalon ularni qamoqdan chiqqan kezlariyoq kechirib yuborgan. So'nggi vidolashuv onlarida hijolat bo'lishlari ortiqcha.

Uch-to'rt yil avval Sharof Rashidov vafot etganini eshitib, ko'ngli g'ashlanib o'tirganda do'stlaridan biri qo'ng'iroq qilib, tabrikladi. Bu pastkashlikdan Mirzakalonning etlari jimirlashib ketdi. Do'stiga javob bermay, go'shakni joyiga qo'ygan onda jiyani kirib keldi. Salom berib, qo'lidagi qog'ozlarni stol ustiga qo'ya turib:

-Korrekturani olib keldim. Ko'rib bersangiz bugun bosmaga tushirib yuboramiz. Bosmaxona insofqa kelib turibdi, jurnalni bir haftada chiqarib bermoqchi,-dedi.

в ЁO'zingdan ko'rv Ёk deb nomlangan axloqiy qissaning nashr etilishini o'zi intiq kutayotgan edi. Shunga qaramay, jiyaning gapi xufton ko'nglini shodlantira olmadi. Jiyani uning ruhsizligini ham, buning sababini ham sezdi. Ezilgan ko'ngilga bir oz yorug'lik berish maqsadida shaxmat donalarini terdi:

-Bir qo'l tashlashga chog'ingiz keladimi?

Jiyani shaxmatni yomon o'ynamaydi, lekin keyinga paytda bekorga vaqt ketkazishni istamay, bu o'yindan o'zini tortib yuradigan bo'lib qolgan. O'zining aytishicha, faqat shu uyda o'ynaydi, demak, uning ko'nglini ko'tarish uchun o'ynaydi. O'yinning o'rtalariga qadar uning qarshiligini sindirish qiyin bo'ladi, keyin kutilmaganda в Ёshoxв Ёki mot holatiga tushib qoladi. Demak, bu ham ko'ngil uchun... Hozir ham ko'ngil uchun dona teryapti... Bundan Mirzakalonning jahli chiqib, donalarni surib qo'ydi:

-Sening bu ayyorliging mening cho'ntagimdan allaqachon tushib qolgan. Sen ham boshqalarga o'xshab suyunchi olgani keldingmi?-dedi ovozi bir parda ko'tarib.

Jiyani ajablanib, yelkasini qisdi:

-Nimaga suyunchi olaman? Kechagi gapingizga ko'ra, korrekturani olib keldim...

Mirzakalon jiyaniga bejiz ta'na qilganini anglab, bosh chayqadi:

-Sen kelmasingdan ilgari bittasi telefon qilib, Rashidovning o'lgani bilan meni tabrikladi. Odamning razilligini qaragin: birovning o'limi bilan tabriklashyapti-ya?! Bu qanaqa tubanlik?! Rashidov meni yoqtirmagan bo'lsa yoqtirmagandir. Har bir tirik odam kimnidir yaxshi ko'radi, kimnidir xushlamaydi. Birovning joni uzilsa suyunadiganlarni в ЁOdamв Ёk deb ataymizmi?-jiyani hammasiga o'zi aybdorday boshini egib jim o'tiraverdi. U esa uf tortib, so'ng davom etdi:-Men faqat bir narsaga xursand bo'lishim mumkin hech kimga bo'yin egmadim. Vijdonimga xilof ish qilmadim! Yuragim meni aldamadi. Dunyoda hamma narsa o'tkinchi, shunday ekan, itga aylanib, xo'jasining oyog'ini yalamaslik kerak. Qiynalgan bo'lsam, xorlangan bo'lsam, birgina Rashidov aybdor emas. Atrofidagi yaloqxo'rlari ko'proq aybli...

Shunday deb stol ustidagi korrektura qog'ozlarini qo'lga oldi-da, nazar tashlagan bo'lib, jiyaniga qaytardi:

-Buni bugun ko'rib bera olmayman. Ertaga ham balki ko'rolmasman. Topshirish zarur bo'lsa, o'zingning qarab chiqqanining yetarli. Qo'lyozmadagi qisqartirishlarning yaxshi bo'luvdi, boshqa o'zgartirishlarning bo'lmasa, mening ko'rishim shart emas. Sen ertaga Rashidov bilan qaerda, soat nechada vidolashuv marosimi boshlanishini bilib kel. Hasan akang yana Maylisoyga ketgan, meni sen olib borasan.

-Shu ahvolingizda bormoqchimisiz?-deb jiyani uni bu fikrdan qaytarmoqchi bo'ldi.

-Ahvolimga nima qilibdi? To'rt-besh qadam ham yurolmaydigan notavonga aylanib qolganmanmi? Qo'rqma, opichib olmaysan... Jiyaniga shu kesatqif kifofo edi. Ertasiga keldi. Vidolashuv yeriga bordilar. Tumonot odam orasida ularni Yo'lchiev ko'rib qolib, yaqinlashdi:

-Mirza, nima qilib yuribsan bu yerda?-dedi norozi ohangda.

-Men odamiylik burchimni bajargani keldim. Har holda birga ishlaganman, birga tuz totganman. Oramizda yaxshi gap ham, yomoni ham o'tgan. Yomon gaplar qiyomatga yetib bormasin, shu yerda vidolashib olay.

Yo'lchiev odamlar orasidan olib o'tib, mayit qo'yilgan tobut yaqinligacha birga bordi. Keyin uygacha birga qaytdi. Ichkari kirmay, ostonada xayrlashayotganda:

-Yuraging bunchalik kengligini endi bilibman. Uning aybini kechirib yuborgan ekansan-da, a?-dedi.

Mirzakalon uning ko'zlariga tikilib qarab turib:

-Men undan battar ayblarni ham kechirib yuborganman. Mendan keyin bu dunyoda qoladiganlarda hech qanday haqqim yo'q,-dedi.

Hozir hazil-huzil qilib o'tirgan do'stlari shu rizolikni eslashdimikin? Qattol zamon ularni bir-biriga yov qilmoqchi bo'lgan edi. Yurak tor bo'lganida do'stlar dushman libosida qolaverardi. Jonlari qil ustida turgan kezlari to'rttagina o'zbek birga yashab, hamnafas bo'lib, keyin bir-birining yuziga balchiq chaplasa-ya! Do'stga xiyonat qilish shunaqa osonmi?

IX

Qamoqxona. 1952 yil, 26 avgust.

Tergovchi hech bir kutilmaganda do'stlarining nomini tilga oldi:

-Yo'lchiev, Meliev, Ilyosov... do'stlaringmi?

-Ha.

-Ularga ishonasanmi?

-Ha...

-Ular senga tuhmat qilishlari mumkinmi?

Nima desin? Ular bu onda ozodlikdalarimi yo shu turmaning biron xonasida azob chekib yotibdilarmi? Azoblarga chidolmay unga qarshi biron nima dedilarmi yo himoyasi uchun biron voqeani tilga oldilarmi? Ularga ishonadi... tuhmat qilishlariga esa... kim biladi, orada shayton bor...

-Mumkin emas,-dedi Mirzakalon ishonch bilan.

-Sen bo'lmaganingda ehtimol Meliev ham, Ilyosov ham frontga jo'natilib, bitta o'qqa yem bo'lib ketardi. Sen ularni redaksiyaga chaqirtirib olding. Ilyosovning o'zi menga aytdi, mladshiy leytenantlar maktabida o'qiyotganida senga xat yozib, yalingan ekan. Sen nima uchun ularni qanotingga olding? Ular ham o'zing kabi millatchilardanmi?

-Yo'q, ularda millatchilik zarrasi ham yo'q. Gazetani yaxshilash uchun ularning qalami kerak edi. Sovet jangchilarini ruhlantirish uchun kuchli qalam kerak edi. Ular e'tiqodli kommunist edilar.

-E'tiqodli kommunist ekanliklari menga ham ma'lum. Ular shu e'tiqodlariga sodiq bo'lib, sening g'ayrikommunist faoliyating haqida gapirdilar, inkor etmassan?

-Gaplarini bilmay turib, biron nima deyishim qiyin.

-Masalan, eng oddiy: Ilyosovning aytishicha, G'alabadan keyin sen eseschi, gestapochilarning xotinlarini qanotingga olib, maishat qilgansan? Oti esingdan chiqmagandir? Mollimidi?

-Bekor gap!

-Senga tushunolmay qoldim, Ismoilii? Hozirgina v Ё do'stlaringa ishonaman, ular menga tuhmat qilmaydi Ё, deding. Endi esa Ilyosovning ma'lumotini tan olging kelmaydi. Ilyosov tuhmatchimi?

-Tuhmatchi emas... lekin... yanglishgan bo'lishi mumkin. Molli degan ayol bilan tanishligim rost. Lekin u gestapochining xotini bo'lmagan, oddiy nemis ishchisining qizi edi. Bir kuni uni tasodifan xarob bir bostirmada yashayotganini ko'rib qoldim. It bog'lab qo'ysangiz, chidab turolmaydigan joyda och-nahor yashayotgan ekan. O'rtada yashiradigan sirimiz yo'q, uni oilam ham tanir edi. Vaqti-vaqti bilan kelganda bir dasturxondan ovqatlanardi.

-Ilyosovning aytishicha, Berlindan qaytar mahalingizda Molli homilador ekan.

-Ilyosov shunaqa dedimi?-Mirzakalon alam bilan jilmaydi.-U o'ziniki bilan almashtirib qo'ygandir...

Tergovchi undan ko'zlarini uzmaganda holda do'stlarning ma'lumotlarini birma-bir bayon qildi-da:

-Bilaman, sen bu gaplarni inkor etasan. Lekin inkoring ishonarli bo'lishi kerak. Inkoringni o'z qo'ling bilan yozib ber, agar tuhmat qilishgan bo'lishsa, jazolanishlari kerak,-dedi.

Mirzakalon turmadagi xonasiga yetgunicha alam cho'g'larini yalangoyoq bosib bordi. Ajal bilan olishuvda yelkama yelka turgan do'stlarning bu qilmishlariga nima deb javob qaytarishni bilmay garang edi v Ё AQDv Ё masalasida xiyonat qilgan Fozilovning qilmishi bularniki oldida holva bo'lib qoldi. Unda Mirzakalon yoshligiga borib, nodonlik qilib Fozilovning qo'lidagi sirtmoqqa boshini o'zi tiqib bergan edi. Bu safarchi? Bugungi do'stlarining tuhmatlari katta jazoga loyiq gaplar emas. Uzoq muddatga qamaladigan bo'lsa, yoki otishga hukm etilsa, boshqalarning tuhmatlari ham yetib ortadi. Mirzakalon do'stlarining qilmishlaridan qanchalik g'azablanmasin, ularning bu katta g'irromlikka aralashib qolishlarini istamadi. Ertami-indinmi chiqadigan hukmga ularning ham hissalarini qo'shib qolishini xohlamay, raddiya yozishni ma'qul ko'rdi.

U xonasiga kirgach, ko'kragida nimadir yonib, yuragini kuydira boshladi. Nazarida hozir qovurg'alari ortida g'imirlayotgan vulqon otashi ko'krakni yorib, portlab ketadiganday edi. Bu g'azab olovi pasayishini kutib, so'ng qo'lga qalam olish niyati vulqon oldida ojiz edi. O'tirdi. Qo'lga qalam oldi. Qog'ozni yaqiniga surdi... Titroq barmoqlar amriga bo'ysunmadi biron harfni ham yozolmadi. Qalamni otib yuborib, o'rnidan turdi. Xona bo'yab yurdi. O'tirdi... Bu hol bir necha marta takorlangach, hovuri sal pasayganday bo'lib, yozishni boshladi:

v Ё Men yuragimdagi millatchilik, dushmanlik kirlaridan vijdonimni batamom va abadiy tozalash uchun Vatan oldidagi barcha jinoyatlarimni mutlaqo sof ko'ngillik bilan iqror qilgan va qilayotgan ekanman, Meliev bilan Ilyosovning guvohliklari tugal to'g'ri bo'lganda, bularga ham tan berib qo'ya qolardim. Men hozir ularning so'zlarida haqiqatga to'g'ri kelmagan joylarni ko'rsatib o'taman.

1946 yilning oxirrog'i yoki 1947 yilning boshlarida harbiy xun hisobiga bosmaxona moshinalari olish uchun O'zbekistondan Mahmud Zufarov bilan v Ё Qizil O'zbekiston Ё va v Ё Pravda Vostokav Ё gazetasining birlashgan bosmaxonalari direktori (famiyasi esimda yo'q) vakil bo'lib keldilar. Bular kelib, Potsdamda menikiga tushdilar va qaytgunlaricha mening mehmonim bo'ldilar. Biz (men, Yo'lchiev va Meliev) ularni yetaklab Sovet administratsiyasiga olib bordik. Ular v Ё Ba'zi narsalar oladigan bo'ldikv Ё, deb bizdan ayrilib qolishdi. Kechqurun uyga kelib, bir-ikkita yapaloq bosma mashinasi bilan bir nechta v Ё amerikkav Ё berishmoqchi bo'lishganlarini, ko'zlagan umidlarga yetisha olmaganlarini aytishdi. Ularning bu gapi mening nashriyotchilik nafsimga tegdi. Meliev ham shu yerda edi. Men vakillarga haqiqat gapni aytdim:

-Urushning tugaganiga bir yarim yil bo'lsa-yu, mashina olamiz, deb endi kelasizlarmi? Shu vaqtgacha qaerda yotgan edingiz?!

Mana endi, Amerika oltinlarni olib ketayotganda siz v Ё baraxlov Ёklarni olib keting! Bosmaxonalarimizda buningsiz ham v Ё amerikkav Ёklar chang bosib yotibdi-ku!

Men bu gapim bilan O'zbekiston bosmaxonalari rahbarlarining parvosizligi, v Ё meva pish og'zimga tushv Ё, qabilida og'iz ochib o'tirganlarini haqli ravishda tanqidladim. Amerikaning Germaniya oltinlarini olib ketganligini esa matbuotimiz sahifalarida hamma o'qigan edi. Meliev bu fakti buzib: v Ё Ismoilii: v Ё Amerika oltin olib ketayotganda Sovet Ittifoqi v Ё baraxlov Ёklarni tashiyaptiv Ё, deb aytdiv Ё, debdi. Melievning bu gapi ham, uning ko'p gaplari kabi, yolg'onligni yana bir karra ta'kidlab o'taman. Bu mening boshqa jinoyatlarim oldida fil huzuridagi pashsha bo'lsa-da, yolg'onni yolg'on, rostni rost deb aytishni burchim deb bilaman.

1946 yildamikin, hozir aniq esimda yo'q, SSSR Oliy Sovetiga saylovlar tayyorgarligi qizib ketgan kunlarning birida, Potsdamdagi sovet ofitserlari uyida saylov komissiyasining saylash majlisi bo'ldi. Biz Meliev bilan yonma-yon o'tirdik. Redaksiyamizning harbiy muxbirlaridan mayor Polyakov komissiya a'zolaridan birining nomzodiga qarshi gapirdi. Meliev darhol:

-Ih, rasvo bo'ldi!-dedi. Men sababini so'radim. U tushuntirdi:-Bizning saylov sistemamizda ko'rsatilgan kandidatga qarshi chiqib bo'lmaydi, chunki ro'yxat yuqoridan tushadi, pastdagilar esa faqat ovoz beradi, qarshi gapirishga haqi bo'lmaydi.

Menga bu qiziq tuyuldi:

-Bu ahvolda demokratiya qaerda qoldi?-dedim, Melievning gapiga ishonqiramay. Meliev kuldi-da:

-Esingiz joyidami,-dedi,-mana shuning o'zi demokratiya! Hali ko'rasiz, Polyakovning adabini berishadi.

Men tiyilmadim:

-Bu kimning demokratiyasi, aytib berolmaysizmi?-dedim, uni masxara qilib. U kuldi, hazilmi-chin qilib turib:

-Bizning demokratiyamiz!-dedi.

-Sizning, ya'ni Melievning?

-Ha, bizning.

-Demak, siz demokrat?

-Demokrat.

Ana shu suhbatdan keyin Melievga vЎ demokrat vЎ deb laqab berdim. Bu suhbatda men sovet saylov sistemasidan kulgan edim, lekin Melievning kulgisi sababi menga qorong'u. Ehtimol, u mening nodonligimdan kulgandir?

Bulardan tashqari Meliev mening to'g'rimda bergan guvohliklarida vЎ Ismoiliy partiya majlisida odam ko'nglidagini gapira olmaydib vЎ, vЎ Ismoiliy Marshall plani bo'yicha Turkiyaga berilayotgan Amerika yordamini ma'qulladib vЎ, debdi.

Partiya majlisi haqida, Turkiyaga yordam haqida Meliev bilan mening oramda hechvaqt gap bo'lmaganini aniq bilaman. Bu masalalarda Meliev boshqalardan eshitgan yoki miyasiga kelgan fikrini menga to'nkayotgani men uchun oydan-da, kundandan-da ravshan. Ammo men bu bilan o'zimni unday fikrda emas edim, deyishdan juda-juda uzoqdaman, chunki har bir o'zbek millatchisi kabi, men ham Turkiyaga sajda qilguvchilardan, Turkiyaning muvaffaqiyatlarini eshitganda ichiga sig'may quvonguvchilardan edim-ki, Marshall planini, albatta, ko'ngilda yoqlar edim. Melievda shunday tuyg'u mavjudligiga ishonmayman, demak, u bilan bu haqda gaplashmog'imiz mantiqdan emas.

Endi vЎ partiya majlisida odam ko'nglidagi gapni aytolmaydib vЎ, degan masalaga kelsak, bu ham Majidiy haqida yozilgan hikoya ham Melievning uydirmasi. Oramizda bunday gap bo'lgan emas. Partiya majlisida partiyaga qarshi emas, partiya oldinga surgan tadbirlarni amalga oshirish masalasi va choralari ko'riladi. Partiya majlisi men singari millatchilarning dushmanchilik, yemiruvchilik harakatlari amalga oshiriladigan joy emasligini yaxshi bilaman. Men Melievning uydirmalarini rad qilish bilan o'zimni gunohlardan, hech bo'lmaganda tilga olingan gunohlardan pok edim, deb da'vo qilmoqchi emasman. Zinhor, men bu fikrlardan juda-juda uzoqdaman. Men, tuyadek gunohlarimni bo'yinga olaturib, pashshadek ingichkasidan voz kechish harakatida emasligimga ishonilishni iltimos qilaman. Men bu narsalarni o'zimni oqlash uchun emas, haq-adolat xotiri uchun rad etayotibman, xalos.

Endi Ilyosovning meni vЎ antisovet kishi ekanligini ko'p vaqtlardan beri bilar edim vЎ, degan so'ziga picha to'xtab o'tmoqchiman. Bu gapi yolg'on, aniqrog'i, mantiqsiz. Men antisovetchi sifatida o'zimni har joyda ko'z-ko'z qilmaganman. Davlatga qarshi fikrlarimni hammaga ham aytavermaganman. Ilyosov tabiatida qo'rqqoqlik bo'lgani uchun siyosat haqida mutlaqo gaplashmaganman. Nazarimda, Ilyosov eng yaqin tanishlari bilan ham bu haqda gaplashmagan bo'lsa kerak. Bilganim shuki, biron davrada siyosatdan gap ochilguday bo'lsa, o'sha zahoti Ilyosovning yo qorni og'rib qolardi, yo boshqa sabab bilan bu davradan uzoqlashardi. Agar u maxsus idoralar bilan hamkorlik qilsa ham, ishonchim komilki, yetarli ma'lumotlar yetkazib berolmagan bo'lardi. Xo'p, deylik, Ilyosov mening antisovet kishi ekanimni bilgan bo'lsa bilgandir. Endi shu bilishini mantiqan tahlil qilib ko'raylik-chi, qanday ma'no kelib chiqarkin?

Birinchisi shuki, biz Ovrupch shahri yonida turganimizda, Novosibirsk mladshiy leytenantlar maktabidan: vЎ Siyosiy bo'lim orqali meni chaqirib oling, men siz bilan ishlamoqchiman vЎ, deb nega xat yozdi ekan? Sof sovet kishilari yoniga emas, antisovet kishi yoniga nechun tolpindi ekan? Imonim komilki, aslida kim ekanimni bilganida menga intilgandan ko'ra qiyomat janggohini afzal ko'rgan bo'lardi. Men gazetada bosilgan she'rlarining ba'zan yarmini, ba'zan yarmidan ham ko'pini, badiiy va mafkuraviy jihatdan past topib, o'zim boshqadan yozib chiqqanimda nega e'tiroz etmadi? Nega bularni keyincha Toshkentda o'z imzosi bilan vЎ Shonli sahifalar vЎ to'plamida bostirib chiqardi ekan? Nihoyat, mening sovetlarga qarshi kishi ekanimni bilaturib, 1946 yilda VKP(b) kandidatligidan haqiqiyga o'tayotganimda nega tavsiyanoma berdi ekan, partiyaga mendek yaramas axlatni ko'ra-bilaturib nega olib kirdi ekan? Bu savollarning javobi bitta: vЎ Ismoiliy antisovet kishi ekanligini ko'p vaqtlardan beri bilar edim vЎ, degan gapi qo'rquv natijasida to'qilgan uydirmadir.

Ilyosov yana bir guvohligida: vЎ Ismoiliyning puli ko'p edi vЎ, deb o'rta shubha soyasini tashlaydi, ammo aytgan gapiga o'zi hisob bermaydi. Demak, hisobni men berishim kerak. Men, avvalo, gazetaning mas'ul sekretari bo'lganim uchun Ilyosov va Melievlardan bir necha yuz marka ortiq oylik olardim. Bu bir. Qolaversa, Ilyosov va Meliev kabi har qaerlarda sanqib yurmay, ko'proq uyda bo'lar edim. Bu ikki. Nihoyat, men Ilyosov va Meliev singari har kun bir-ikki butilkadan araq bo'shatmas edim. Bu uch! Yo'lchiev, Meliev, hatto Ilyosovning o'zi ham tasdiq etsa kerak, Potsdamda turganimizda biron kun o'tmas edi-ki, Ilyosov stoliga ertalab ikki-uch butilka shnabs terib qo'yib, kechgacha ichib bitirmasin!

Gapimning oxirida shuni ham aytib ketayin, xotanim Toshkentdan o'n ming so'm pul bilan keldi. Xotanimning opasi Muhtaram yangi uy solgan ekan, shunga turli parda, har hil narsa olib kel, deb singlisiga, ya'ni mening xotinimga o'n ming so'm pul berib yuboribdi. Xotanim Potsdamga kelganidan keyin o'sha pulga xarid qildi. U puldan Meliev xabardor bo'lganidek (chunki xotin-bola-chaqamizni Toshkentdan Meliev olib kelgan), Ilyosovning xotini, xususan Ilyosovning o'zi ham xabardor bo'lishi kerak. Menda pulning nisbatan ko'pligi, Ilyosovda esa nisbatan ozligi sababi shunday. Ilyosov o'zining guvohlik ko'rgazmasida vЎ Melievni 1943 yildan beri taniyman vЎ, deb yolg'on gapirganidek, vЎ Berlinda, Abdulla To'laganning xotininikiga menga bildirmay borishgan, men bexabarman vЎ, deyishi bilan ham haqiqiy holni tamom buzib ko'rsatgan. Abdulla To'laganning xotini Rut bilan aloqani bayon qilishda Meliev ham noto'g'ri gaplarni yozgan. vЎ Men,-deb yozibdi Meliev,- maxsus bo'limning topshirig'i bilan Rutga ikki-uch bor uchrashdim. Maqsadim: Vali Qayumxon bilan Abul Zavqiy surati bosilgan jurnal qirqmasini olish edi. Biz bu qirqmani men, Ismoiliy, Yo'lchiev Rutnikiga borganimizda ko'rgan, lekin olmay, tashlab kelgan edik. Maxsus bo'lim: vЎ Tezroq olib kel vЎ, deb qistagani uchun, Rutni ko'rishga, unikiga borishga majbur bo'ldim vЎ.

Ehtimol, Rutnikiga borishga boshqa narsa majbur qilgandir, bunisi menga qorong'u. Mening aniq bilganim shuki, birinchi borgan kunimizda Abdulla To'laganning nemis xotini bizga jurnal qirqmasini hech bir qarshiliksiz, gumonsiz bergan va biz uni olib kelib uyda Rutni kutib o'tirgan Ilyosovga ko'rsatgan edik. So'ng bu surat mening yozuv stolim ustida ochiq holda bir necha kun yotgan edi. Maxsus bo'lim xodimlarining bu surat bilan qiziqishganlarini men eslolmayman. Haqiqatda bo'lgan voqeani yolg'onga bo'ktirib bayon qilishdan Meliev bilan Ilyosovga qanday manfaat bor ekan, hayronman!..

Bolalarimiz harkun: vЎ Qachon uyga ketamiz? Qachon Toshkentga ketamiz? vЎ deb qistar, ularni har tarafdin bizga yot bo'lgan chet el hayoti, qandaydir yurakni siquchi kulrang tabiati, umuman, hamma narsa, hamma narsasi zeriktirgan edi. Bolalarimiz, hamma baxtli bolalar kabi, o'z vatanlariga pok dil, oq ko'ngil bilan intilar, baxt quyoshining hayotbaxsh nurlarini birinchi marta emgan o'z inlariga qush bo'lib uchishni istar edilar. Bolalarimizni intizor qilgan o'sha yorug' kun keldi. 1947 yil aprelining oxirida Potsdamdan mashinalarga o'tirib, Oder Frankfurtiga keldik va u yerdan, poezdga tushib, sovet Ittifoqiga, Brestga jo'nadik.

Frankfurt vokzalidan chiqib, Oder ko'prigiga yaqinlashganimiz sari bizning nigohlarimiz Germaniya tuproqlariga mixdek

sanchilib bordi. Men Yo'lchiev bilan, Meliev Ilyosov bilan, vagon derazalariga yopishib olib, kechagi dushman yeridan ko'z uzolmay tikilib borar edik. Bir-birimizga hech nima demas, to'g'risi, sir boy bermas edik. Ilyosovning guvohligiga qaraganda, bolalar chaqchaqlashib turganda men xomush bo'lib qolgan ekanman. Oder ko'prigidan o'tayotganda esa yuragimda cho'kib yotgan dard, yengil po'kakdek, yuzaga qalqib chiqib:

-Xayr, baxtimizni kuldirdigan ikkinchi vatanim!-deb yuborganmishman. Keyin bo'shshib vЎbu yerlarda yayrashganlarimiz bir tush bo'lib qoldi endi. Endi tushda ham ham ko'rish yo'q bu rohatli hayotni. Dunyoga bir keldig-u, ketdik-da!vЎk deganmishman. Esimda bor, Ilyosov tilga olgan vaqtda poezd urush vaqtida buzilgan omonat ko'prikdan o'tayotgandi. Poezd daryoga qulashi ehtimoli borligi uchun qo'rqib ketganidan uning rangi bo'zargan, qaysi birimiz gapirgan bo'lsak-da, eshitib, esida saqlab qolishi mumkin emasdi. Agar bu voqea Turkiyada sodir bo'lganida edi, uni vЎikkinchi vatanimvЎk, desam arzirdi. Necha millionlab odamlarning yostig'ini quritgan urushni boshlagan mamlakatni vЎikkinchi vatanimvЎk deydigan tilimni o'zimla kesib tashlagan bo'lardim...

Do'stlarimning uydirmalariga qarshi men bundan o'zgacharoq izoh bera olmayman...vЎk

Turmaning bir kishilik siqiq xonasida xotiralar iskanjasida o'tirgan Mirzakalonning qo'li tolib, qalamni qo'ydi. Nafis adabiyot namunalarini yozishi kerak bo'lgan bu qo'l, bu qalam, hayot haqiqatlarini o'ylab, mulohaza qilishi lozim bo'lgan bu ong qandaydir pastkash yumushlar bilan band edi. Mirzakalonning yuragi bu turma siqiqligidan emas, shu tuban ishlar bilan band ekanidan azob chekardi. Bayonni yozish oldidagi g'azabi bir oz bosilganday bo'lib, do'stlarining guvohliklarini yana bir bor aql ko'zgisidan o'tkazdi. Ayniqsa Ilyosovning gaplari uni sergaklantirdi. vЎU nodon,-deb o'yladi,- menga qarshi guvohlik berib, o'zining jonini saqlab qolmoqchi bo'lgan. Agar tergovchi sergaklik qilsa, uning gaplaridan teskari ma'no ham topib, o'zini qamaydi. Ismoilining millat dushmani ekanini uzoq vaqt davomida bilgani holda indamay yurish jinoyat ekanini nahot u nodon bilmasa?vЎk Bu savolga javob o'rni u unda noxush gumon uyg'ondi: vЎIndamay yurganmikin yo uzoq vaqt davomida kerakli joyga gap tashib, tirikchilik qilganmikin?vЎk U gumonga asoslanib do'stini ayblay olmas edi. Shu sababli xayolini chalg'itishga urindi.

Do'stlar haqida fikr yurita turib, tergovchi ikki-uch marta Jalolovning nomini tilga oldi. To'g'ri, Jalolov yarananib, uyiga qaytgandan keyin xat orqali muomala qilib turdilar. Lekin bu maktublarda siyosatga tegishli biron bir kalima yo'q, bo'lishi ham mumkin emas edi. To'g'ri, u Jalolovni urushdan oldin yaxshi bilmasa-da, frontda sirdosh, darddosh do'st maqomiga erishgan, shu bois uyga qaytgan kunlariyoq u bilan topishgan edi. Tergovchi eslatgan ziyoratga ham u bilan birga borgandi.

...Mirzakalon bojasining xastaligini eshitib, bayram kuni uni yo'qladi. Bojasi huzurida Jalolovdan tashqari yana bir kishi bor edi. Bojasi uni vЎdo'stim Qoraxo'jaevvЎk, deb tanishtirdi. Mirzakalon yaqinda Germaniyadan qaytgani uchun u odam horijning ahvoli bilan qiziqdi. Mirzakalon Germaniya haqida gapira turib, savdo-sotiqda ustasi farang hisoblangan bojasiga qarab hazil qildi:

-Xo'b, siz bop joy ekan-da... Siz o'shanday joyda bo'lsangiz, oz vaqtda millioner bo'lib ketardingiz. Sizga o'xshab savdo ishlarida suyagi yo'qlarga makon bo'ladigan ekan. Har kim xohlaganini qiladi: birov do'kon ochib sotsa, birov korxonaga olib, mol chiqaradi.

-O'shanday joylarda mazza qilib yurdim deng?...-Jalolovning bu gapi zamirida hasad bormidi yo ogohlantirishmi, Mirzakalon u damda ang'ay olmadi. Faqat hazil tariqasida boshlagan gapi vЎkapitalistik sistemani, xususiy savdoni maqtashvЎk libosi bilan kerakli yerga yetib borishini fahmlab, mavzuni o'zgartirdi. Ko'ngli o'shanda aldama ekan, oradan uch yil o'tsa-da, u gap unutilmabdi. Kimning xizmati evaziga shunday bo'lgan unga qorong'u. vЎBu vagon quloqdan ishlanganvЎk degan, o'zbek jangchilarining ayanchli ahvolidan kuygan odamning bunday tubanlik qilishiga ishongisi kelmaydi.

1947 yil, o'sha kunlarning nari-berisida Jalolov ishlaydigan idoraga borgan edi. Idora rahbarligini yaqinda qabul qilib olgan Jalolov o'sha kuni nimadandir g'ashlanib o'tirardi. Mirzakalonni ko'rib dardini yordi:

-Mendan oldingi odam hamma ishning rasvosini chiqarib ketibdi. Uning po'stagini qoqay desam, yuqoridagilar qo'yishmaydi. SKda uning himoyachilari bor! Hammasi bizni eshak qilib minishadi. Bir narsa desang vЎmillatchi!vЎk deb miyangga bir musht urishadi yerga kirib ketasan. Haqiqat yo'q, Ismoiliy, haqiqat yo'q!-Jalolov, alami ortib, tutaqdi. Chekib turgan papirosini zarda bilan kuldonga eza turib, so'zini tamomladi:- Mening nomim rahbar emish! Bitta farroshni ham SKning sanksiyasiz ishga ololmaganimdan keyin mening qimmatim nima bo'ldi?! E-e, menga desa o't tushib ketmaydimi!

O'shanda bu alamni Ismoilidan gap olish uchun aytmagan edi. Yuragini siqib turgan dard tufayligina gapirgandi.

Mirzakalon vЎQizil O'zbekistonvЎk rahbari bilan chiqisha olmay ishdan ketishni maqsad qilib Jalolov bilan maslahatlashdi. Garchi bu vazifa matbuot olamida yuqori martaba hisoblansa-da, ijoddan uzoqroq bo'lgani sababli Mirzakalonning bu ishga ko'ngli bo'lmagan, avval-boshdayoq Markazkomning taklifini qabul qilishdan bo'yin tovlab, vЎbu ishning og'irligini, xo'jalik va madaniyatning hamma tarmoqlarida ma'lum darajada bilimga ega emasliginivЎk bahona qilgan edi. Bu bahonasi o'tmagach, partiya lozim ko'rgan vazifadan bo'yin tovlashning yomon oqibatga olib kelishini o'ylab, ko'ngandi. Gazeta rahbari bilan chiqisha olmasligiga ko'zi yetgach, ishdan ketishga yangi bahona izladi. Jo'wali bahona xayoliga kelavermagach, eskisini sal boshqacha uslubda bayon etdi: vЎqishloq xo'jalik va sanoatda qariyb hech narsa bilmaganligi natijasida mas'ul kotiblikni ko'ngildagidek eplab ketolmasligiga ko'zi yetganinivЎk Jalolovga aytganida, u Mirzakalonning ahdini ma'quilladi:

-To'g'ri qilasis, bo'yinidan bog'langan it ovga yaramaydi, deganlaridek, siz bilan biz bunaqa dastyorchilikka yaramaymiz. Axir mana bu...- dedi Jalolov, ko'rsatgich barmog'i bilan ko'kragiga ikki-uch urib. Mirzakalon uning nima demoqchi bo'lganini darhol ang'ladi va ham tasdiq, ham savol ohangida:

-Dil boshqayu til boshqa?! -dedi. Jalolov charaqlab ketdi va ko'nglidagi gapni yarim so'zidayoq tushungani uchun, cho'zib tahsin aytdi:

-Ha-a barakalla!-Keyin maslahat bera boshladi:- Janjal qilmang, yaxshilik bilan bo'shab oling. Ishqilib, bularning ko'ziga yomon ko'rinishdan saqlaning. Ha! Bo'lmasa, bilasizmi, yeb tashlashadi, ha, Ismoiliy, ko'zingizni oching! vЎMen frontda u qildim, bu qildim!vЎk deysiz-da? He-e, ikki chaqa! Eshak loydan o'tib bo'lgan!

Shu mazmunda ancha gaplashishgach, Jalolov markazkom kotibi bilan gaplashib, uning ishdan bejanjal, osongina bo'shshiga yordam berajagini aytdi.

Ular kunda bo'lmasa kun ora, buning iloji topilmasa, haftada ikki marta uchrashishardi. Jalolov uni ko'rgan zahoti vЎNima gap? Radioda nimalarni eshitdingiz?vЎk deb so'rardi. Mirzakalon qisqa to'lqindagi Anqara radiosidan eshitganlarini, Jalolov esa vЎBi-bi-sivЎkdan eshitganlarini o'rtoqlashardi. Mirzakalon Nuriddin Osim ismli boshlovchi tomonidan o'qiladigan vЎO'tmishda bugunvЎk deb nomlangan eshittirishni doimiy ravishda tinglardi. Bu radioeshittirishda o'tmishda bo'lgan tarixiy voqealardan bahs etilardi. Bir kuni Nuriddin Osim Amir Temurni vЎSamarqandda o'tgan mashhur turk sarkardasivЎk, deb gapirganda Mirzakalonning g'ashi keldi. Ertasiga buni Jalolovga aytib turib: vЎO'zbekvЎk degan so'zni tilga ham olmadi,

dayusning bolasi! Hatto в Ўzbekiston shaharlaridan biri Samarqandda o'tgan Ўk desa ham mayliydiv Ўk, deb kuyindi.

-Bular shunaqa... Bitta katta og'adan bezib, u tomon qararak, yana boshqa katta og'a da'vo qilib turibdi,-dedi Jalolov afsus bilan. Ularning har suhbatlari shu kabi yangiliklar bayoni bilan o'tardi. Ayniqsa Jalolovning qiziqishi kuchli edi. в ЎNima gap? Qanday yangi xabarlar eshitdingiz?в Ўk degan savollardan charchamasdi. U Mirzakalondan yangiliklarni shunday so'rardiki, ba'zida go'yo jonini ombur bilan sug'urib olayotgandek bo'lardi. Mirzakalon uning bunchalik qiziqishlaridan oxiri shubhaga tusha boshladi va bu shubhasini yashirmadi:

-Jalolov, siz, nima balo, Davlat havfsizligi ministrilgining odamimisiz? Mendan hadeb shunaqa narsalarni so'rayverasiz-a?-dedi. Jalolov avvaliga kuldi, keyin xafa bo'lgan bir qiyofada gapirdi:

-Topgan gapingizni qarang!-shunday deb oldidagi qog'ozlarni kavlashtira boshlab, ilova qildi:-Qo'rqmang, sizning narxingiz mening qo'limda emas!

Mirzakalonning shubhasi nafsoniyatiga tegdi shekilli, Jalolov endi undan yangiliklarni kam so'raydigan bo'lib qoldi.

Mirzakalonning Germaniyadan olib kelgan radiopriemnigi buzilib qolgach, yangiliklarni o'zi aytadigan bo'ldi. Ana shunday kunlarning birida u NKJyu-Yorkda bir rus muallimasi Sovet elchixonasining ikkinchi qavatidan o'zini tashlab qochganini, Sovet Ittifoqiga qaytmaganini, Germaniyada xizmat qilayotgan sovet ofitseri Londonga qochib kelib, в ЎBi-bi-siv Ўk radiosi orqali gapirganini aytib berdi. Bunday suhbat faqat ikkovlari orasida bo'lardi. Jalolovning qadrdonlari ishtirokidagi palovxo'rlikda siyosatdan umuman gap ochilmasdi. Davra asosan askiya bilan qizirdi. Rasuljon Muhammadiev usta askiyaboz, Ibrohimjon Ergashev undan qolishmas, Jalolov bu sohada no'noqroq bo'lsa-da, tatalashib turardi. No"monjon G'ulomov bilan Mirzakalon askiyani kulgilari bilan quvvatlab o'tirishardi.

Samovorda yo uyda, palovga biron qozon osilmas ediki, u yerda Jalolov bilan Mirzakalon birga bo'lishmasa. Ayniqsa, Jalolov uyida o'zi osh damlaydigan bo'lsa, darhol telefon bilan: в ЎKeling, o'zim yolg'iz yegim yo'q, biron ulfat bo'lmasa o'tmaydiv Ўk, deb chaqirar, xotining esa palovni yomon ko'rganligini ayta turib, yarim hazil, yarim erkalash ohangnida: в ЎO'rus-da, o'rusligiga boradi, palovning qadriga yetmaydi xush yoqmas!в Ўk deb qo'yardi.

Jalolovning uyidagi ana shunday palovxo'rlikdan so'ng ikkovlashib TelKjman nomidagi bog'ni aylangani chiqdilar. Pivo sotilayotgan joyni chetlab o'tolmay, tomoqlarini в Ўho'llabv Ўk olish bahonasida to'xtadilar. O'sha kunlari Berlin taqdiri yuzasidan kelishmovchiliklar chiqib turgani uchun suhbatlari shu mavzuga ko'chdi. Jalolov Amerika-Angliya tutgan yo'l haqida gapira turib, urush chiqib ketish ehtimoli borligini aytdi. U tabiatan siyosiy tahlilni yoqtirardi. Bu safar ham tashabbus uning qo'lida bo'ldi:

-Urush chiqib ketsa ham ajabmas. Ammo biz g'afatda qolmasligimiz kerak. Hozir uyushish vaqti-yu, lekin uyushib bo'lmaydi...

Jalolovning bu gapi Mirzakalonga в ЎAQDv Ўkning birinchi majlisini eslatib, eti bir jimirlashdi-yu, suhbatdoshini beihtiyor bu savol bilan bo'ldi:

-Rostingizni ayting, Jalolov, siz MGBning odami emasmisiz,a? Shu qadar qo'rqmasdan ochiq gapirasiz-ki, go'yo bu gaplaringiz uchun sizni biron javobgarlikka tortmaydigandek.

Jalolov bu safar kulmadi. Bo'zardi. Quyuq, tutashiq qoshlarini osiltirib, nafrat to'la g'azab bilan gapirdi:

-Sizdan qo'rqamanmi? Borib gapiring, so'rasalar: в ЎBu tuhmatchi!в Ўk deb betingizga tufuraman. Siz ham xuddi shunday qilishingiz mumkin. Ammo gaplashishning yo'lini bilish kerak. Hozir yonimizda yana bir kishi bo'lsa, men bu gaplarni aytmas edim. Nega? Bir kishining guvohligi o'rin o'tmaydi. Ikki kishi guvohlik berib tursa-chi? Qochib bo'psiz! Alohida gaplashish mumkin. Lekin uyushdingizmi, qamalasiz! Mana shuning uchun uyushib bo'lmaydi, deyman. Lekin har birimiz o'z holimizcha tayyor bo'lib turishimiz kerak. Harakat payti kelganda ivirsib qolmaylik. Darhol hokimiyatni qo'lga olib, ichki ishlar ministrilgiga kuchli odamlarni qo'yish kerak.

Jalolovning ishonch bilan aytaotgan gaplari ta'sirida Mirzakalon bu vazifani uning o'ziga yuklab qo'ydi:

-Siz o'zingiz borsiz-ku? Sizdan ma'quli yo'q,-dedi hozirgina undan shubhalanganini unutilib. Jalolov uning bu gapiga в Ўhав Ўk ham demadi, в Ўyo'qv Ўk ham demadi. в ЎO'z ko'nglicha, hukumat rahbarligini mo'ljallab yuradi shekilli, men uni pastga urib yuboribman-ku?в Ўk-deb o'yladi Mirzakalon.

Pivaxonadan chiqib Pushkin va Asaka ko'chalari burchagida, maydoncha oldida turib, boshqa mavzuga o'tdilar. Jalolov endi o'zi xayol qilgan в Ўkelajak o'zbek milliy burjua davlativ Ўkning xo'jalik ministriga aylangan edi, go'yo. U в ЎO'zbekistondan sakson yildan beri tashib ketilayotganv Ўk qorako'l terilari haqida gapira boshladi:

-Moskva O'zbekistondan har yili ikki yuz mingga yaqin qorako'l tashib ketadi. Har bir teriga Amerikada bitta avtomobil berar ekan. Agar terilarni O'zbekiston o'zi sotsa, uningda aholisining har biri bittadan avtomobillik bo'lib qolar edi.

Mirzakalon xo'jalik ishlariga omil bo'lmagani uchun, bu hil hisob-kitoblar bilan qiziqmas edi. Shuning uchun o'z manfaati ko'zgusi bilan qarab, bunday dedi:

-Qirg' yoshga kirib, hali bitta qorako'l yoqa ko'rmabman-ku, siz avtomobildan gapirasiz. Hammasi Amerikaga ketadi, deng?

-Bo'lmasa, magazinalarda bosilib yotmasmidi?-dedi Jalolov afsus bilan uf tortib.

Bu so'zdan keyin, xayrlashib, uy-uyulariga ketdilar. Mirzakalon Jalolovning gaplarini yo'l ko'yi o'ylab bordi va ko'rpaga kirganidan keyin ham, bu yopishqoq o'y changalidan uzoq vaqtgacha uyqusini ajratib ololmadi. Uni ikki vahima bosar edi: bir yoqdan Jalolovni provokator-ig'vogar deb qo'rqsa, ikkinchi yoqdan uning haligi gaplarini в ЎSovet davlatiga qarshi uyushtirilgan millatchilar tashkilotiv Ўk nomini olgan в ЎAQDv Ўkning programma nutqiga o'xshatib, yuragi orqaga tortib ketar edi. Axir bir qur tashkilot tuzib ta'zirini yegan edi-da! Jalolovning dahshat bo'lib tuyulgan u gaplarini bir kecha emas, bir necha kechalar va kunduzlar o'yladi. Natijada birini tanlab olish sharti bilan oldiga ikki masala qo'ydi. Biri Jalolov bilan aloqani uzish-u, tinch yashab qolish, ikkinchisi Jalolov bilan aloqani davom ettirib, sovetga qarshi millatchilik gaplarini va harakatlarini jonlantirish barobarida o'zlariga o'xshaganlarni birlashtirib, tashkilot tuzish. Bir marta og'zi kuygani uchun qatqni ham puflab ichadigan odam nima qilardi? Albatta birinchi yo'lni tanlaydi-da.

Mirzakalon Jalolovdan uzoqlashdi-yu, ammo tinch yashab yurish unga nasib etmadi. Baribir qamoq panjarasi uni oilasi bag'ridan, shirin oruzlardan ajratdi. Tergovchi Jalolovning nomini tilga olib turgani bilan ular orasidagi suhbatlarning ikir-chikiriga to'xtalmadi. Uyushmoqlik muammolarini ham tilga olmaganidan bildi-ki, o'sha paytda Jalolovdan bekorga shubhalangan ekan. Sovetlarga qarshi yangi tashkilot tuzish haqidagi gap, demak, boshqa oqava orqali yetib kelgan bu yerga. Bu oqavaning boshida kim turgan bo'lishi mumkin? Bu savolga Mirzakalonning javob topishi qiyin bo'lmadi. Qamalgan kunlarining uchinchi haftasida avval tashqarida, dahliz tomonda, tahmini bo'yicha, ro'paradagi temir eshikning sharaqlab ochilganini so'ng yopilganini eshitdi.

Keyin soqchining v Ё devorga qarab turv Ёk degan qisqa buyrug'ini, sal o'tmay esa og'ir-og'ir qadam tovushlarini eshitdi. Besh-o'n qadam yurilgach, tanish ovozni eshitib, seskanib ketdi:

-Oxunovni ham tashkilotga kirishga majbur qilgan ekan, de!

-Gapirilmasin!-deb buyurdi soqchi. Lekin u quloq solmadi:

-O'ldiraman, deb qo'rqitgan!-deb baqirdi tanish ovoz.

-Gapirilmasin!

Soqchi shunday deb baqirib tepdi shekilli, mahbus ixrandi.

Mirzakalon do'stlaridan biri Abdumannon Rahimovni ovozidan tanib, unga achindi. Ammo kimga gapirganini, bu gapning ma'nosi nima ekanini anglamadi. Buni oradan ikki oy o'tib, tergovchining so'zidan, so'ng yuzlashtirishdan bildi. Ungacha

Abdumannonning ukasi Abdujavlonning ham qamalganini bilmagan edi. Tergovchi dastlabki so'roqda Oxunovni nima uchun qo'rqitganini so'raganda Mirzakalon bunday gapdan xabari yo'qligini aytgan edi. Bu savol bir necha marta takrorlanganda ham tuhmatni bo'yniga olmagach, Abdujavlon bilan yuzlashtirildi.

Odatda kishi boshqa odamga yuzma-yuz turgan holda tuhmat qilayotganida, agar vijdoni ozgina saqlanib qolgan bo'lsa ham, ko'zlarini olib qochardi. Abdujavlon Mirzakalonni hayron qoldirib, kipriklarini hatto pipiratmadi ham.

-Ismoiliy avval akamni, keyin meni zo'rlagani yetmay, Oxunovni ham v Ё tashkilotga kiringv Ёk, deb majbur qilgan,-dedi. Keyin tusini o'zgartirmagan holda bu v Ё voqeav Ёkni hikoya qilib ketdi:-Men hovlimda u yer-bu yerni chopib yurib edim. Bir vaqt Oxunov kelib qoldi. U aslida akamni izlab kelgan ekan, topolmay, mening oldimga kiribdi. U yoq-bu yoqdan gapirishib turib, Oxunov menga: v Ё Bilasizmi, Ismoiliy juda yomon odam ekan-ku!v Ёk dedi. v Ё Nega?v Ёk desam, v Ё Meni bir antisovet tashkilotga taklif qildi. Sizni ham taklif qilgan ekan-ku?v Ёk dedi. Men quruqqina qilib: v Ё Hav Ёk, dedim-da, gaplashmay ishinni qilaverdim.

Akasining qutqisi bilan o'rta tashlangan bu uydirma o'z razilligi bilan Mirzakalonni qanchalik hayratga solgan bo'lsa, terovchi uchun ham yolg'onligi oshkor bo'ldi shekilli:

-Nega bu xabarni o'sha paytda bizga ma'lum qilmadingiz? Qamalganingizdan keyingi dastlabki so'roq paytida ham indamadingiz?-deb so'radi.

-Ismoiliy bo'yniga olar, iqror bo'lar, deb o'ylagan edim,-dedi Abdujavlon, uyat ko'chasining naryog'ida turib.

Oxunovning aytganlariga Abdujavlonning parvosiz qaragani, v Ё hav Ёk deb qo'ya qolgani uning fe'lini yaxshi bilgani uchun Mirzakalonga yanada g'alati tuyulib, savol berishdan o'zini to'xtata olmadi.

-Oxunovning ko'ziga v Ё hav Ёk deb qo'ya qolganingiz sira xarakteringizga mos kelmaydi-ku? Bunday paytlarda indamay ketavermasangiz kerak edi, a?

-Jim bo'ling! Savol berishga haqqingiz yo'q!-deb baqirdi tergovchi Mirzakalonga o'qrayib qarab.

Jalolovning ikki yil oldin aytgan gapi haqiqat sifatida shu qamoqxonada o'z isbotini topdi: v Ё bir kishining guvohligi o'rin o'tmaydi. Ikki kishi guvohlik berib tursa-chi? Qochib bo'psiz!v Ёk Ikki kishining guvohligi yetarli, deb o'yladimi, har holda tergovchi Rahimovlar haqida kamroq so'radi. Mirzakalon bundan havotirlana boshladi. Ochig'i, yangi tuhmatlar, uydirmalar oqavasining ochilib ketilishidan qo'rqdi. Bugun tergovchi Berlindagi do'stlar uydirmalari haqidagi yangilikni oshkor qilgach, ularga tegishli gaplarini bayon qilib bo'lganidan keyin, garchi tergovchi talab qilmagan bo'lsa-da, Rahimov haqida bilganlarini yozishga kirishdi:

v Ё Men, armiyadan bo'shab kelgach, Abdumannon Rahimovning adabiy tanqidchi bo'lib yetishganini eshitgan va adabiyotimiz taraqqiyoti uchun eng zarur bo'lgan tanqidchilik sohamizning bir iqtidorli kishiga ortgani sababli chinakam quvongan edim. Men v Ё Sharq yulduziv Ёk yulduzida mas'ul sekretar bo'lib ishlab yurgan kezlarim, Oybek Yozuvchilar soyuzi raisligidan bo'shab, uning o'rniga Sharof Rashidov saylangan kuni Abdumannon ikkovimiz O'znashr tomonga qarab yurdik. Men Sharof Rashidov bilan aloqamiz yaxshi emasligini, u bilan birga ishlamay, gazetadan ketib qolganimni aytdim. Shunda Abdumannon o'ylanib turib: -Unday bo'lsa jurnaldan tezda bo'shab oling, bu odamning fe'li yomon sizni tinch qo'ymaydi yeb tashlaydi,-dedi. Men ham shu fikrda ekanimni bildirdim.

1949 yilning erta bahorida bo'lsa kerak, O'zbekiston sovet yozuvchilari klubining ayvonida, ikkinchi qavatda Asqad Muxtorov v Ё 1948 yilda o'zbek poeziyasiv Ёk degan mavzuda doklad qildi. Bu majlisda aksar yozuvchilar qatorida men, Abdumannon Rahimov ham bor edik. Majlisda dokladchi Rahimovni formalizmga picha ayblab o'tdi. v Ё Mirmuxsinning v Ё Usta G'iyosv Ёk poemasidagi eng yaxshi joylarni yomonlab, tanqid qilganv Ёk, dedi. Rahimovning g'azabi qaynashi uchun shu bir-ikki tanqidning o'zi kifoya edi. Majlisdan so'ng pastga, ko'chaga tushganimizda u men bilan Ma'ruf Hakimovni Pushkin musofirxonasining bufetiga kirib pivo ichishga taklif qildi. Rozi bo'ldik. Kirdik. Biroq, pivo yo'q ekan. Och qoringa aroq ichdik. Soyuzdagi ishlar haqida, o'sha kungi doklad va tanqid haqida gaplashib o'tirib, 200-300 grammdan aroq ichib qo'ydik. Rahimov hisob-kitobni qildi, turib ketdik. Yashinning uyigacha birga bordik. Yashin va Halimaxonim qayoqqadir ketganlari uchun, Ma'ruf Hakimov vaqtinchalik Yashinning uyida turgan ekan. Darvozasi ro'parasiga kelganimizda o'zbekchilik qilib, uyga taklif etdi, biz ham v Ё yo'qv Ёk demasdan kirdik. Men kayf ustida kirganimni va u yerda Ma'ruf Hakimovga (pulini men berdim shekilli) yarim litr aroq oldirib ichganimizni, mastlikda allanimalar haqida gaplashganimizni es-es bilaman. Abdumannon o'zining bir ayol mijozi bilan telefonda gaplashdi chog'i. Keyin xayr-ma'zurlashib chiqib ketdik. Uylarimiz bir tomonda bo'lgani uchun Rahimov bilan birga ketdik. Ammo piyoda ketdikmi yo tramvaydami aniq eslolmayman. Shunisini es-es, arang xotirlaymanki, Abdumannon ikkovimiz Pushkin va Niyozbek ko'chalarining burchagida, Lagerlar boshqarmasining qarshisida, hozirgi trolleybuslar aylanasida turib uzoq gaplashdik. Bu v Ё uzoq vaqtv Ёk deganim haqiqatda uzoq vaqtmidi, uzoq vaqt bo'lsa minutlar yo soatlar davom etdimi yoinki qattiq mast bo'lib es-hushimni yo'qotib qo'yganim uchun menga shunday uzoq vaqt bo'lib tuyuldimi? Men bu savollarning hech biriga javob bera olmayman. Shuningdek, Rahimov bilan mening o'rtamda qanday gap o'tganini ham aniq bilmayman. Har holda biz millatchilik ruhida, sovetlarga qarshi ruhda gaplashgan bo'lishimiz ham mumkin, deb taxmin qilaman. Ammo bu gaplarning nimalardan iborat bo'lganligini aslo bilmayman. Shuni yaxshi va aniq bilamanki, o'rtamizda Rahimov uydirdan gap bo'lgan bo'lishi mumkin emas! Rahimov bergan guvohlikda aytilishicha, men go'yo unga Toshkentda sovetlarga qarshi yashirin tashkilot borligini, unda juda katta odamlar a'zo ekanligini so'zlab, uni shu tashkilotga a'zo bo'lib kirishga chaqirgan va kirsada moddiy jihatdan yordam berishga va'da qilgan emishman. Rahimov bu uydirmasiga odamlarni ishontirish va unga detektiv xarakter berish uchun: v Ё Agar tashkilotga kirmasangiz, o'rtamizda o'tgan gapni birovga aytasangiz bola-chaqangiz bilan qirib tashlaymiz!v Ёk deb qo'rqitdiv Ёk, deydi. Keyin u, o'z tulkiligiga hech shubha tug'dirmaslik uchun, aka-ukalarning v Ё uydirma oshxonasiv Ёkda pishirilgan v Ё bo'tqav Ёkga mana bu v Ё garniv Ёkni qo'shib tutadi:

-Ikki marta chaqirib: вЂњOg'zingizdan chiqarmang, birovg'a aytmangvЂќ, deb tayinladi,-deydi. Rahimovning kimligini bilmagan kishi uning bu uydirmasiga uchmay tura oladimi? Albatta yo'q! Rahimov bir adabiy maqolasida yozuvchining rostgo'yligi masalasiga to'xtab, Gorkjkiydan quyidagi misolni keltirib:

-Gorkjkiy yozuvchining hamma yozganlari haqiqat bo'lavermaydi, ichida yolg'onlari ham bo'ladi, ammo bu yolg'onni shunday qotirib berish kerak-ki, rostdan ajratib bo'lmasin, degan mazmunda ta'lim bergan,-deydi. Bu shuni ko'rsatadi-ki, Rahimov nonga suv sepib sotishnigina, qalbaki hujjatlar tayyorlashnigina bilib qolmay, yolg'onni rostdek qilib ko'rsatishni, uni zarur bo'yoqlar bilan rost o'rnida o'tkazishni ham bilar, bu qabih kasbni yana amalda qo'llar ekan! Rahimov dastlabki guvohligida вЂњYusuf Tohiriy shu tashkilotning a'zolaridan birivЂќ, deb aytgan bo'lsa, keyingisida Yusuf Tohiriy shu tashkilotning rahbari, deпти. Balki, avvalgi yolg'onni esidan chiqib qolgandir?

Ta'kid etishim shartki, Yusuf Tohiriy bilan necha yildan beri tanish bo'lsam, undan siyosatga doir biron gap, biron norozilik eshitmaganman. Agar Rahimov to'qigan siyosiy tashkilot haqiqatda ham bo'lganda, Tohiriyning unga rahbarlik u yoqda tursin, a'zo bo'lib kirishi ham dargumon edi. Xo'sh, unda Rahimov nima uchun uydirmasini to'qishda Tohiriy eslab qoldi?

Menda mehmondo'stlik odati kuchli. Balki o'sha la'nati kechasi Rahimovni mastlikda uyimga sudragan bo'lsam, u uyimning qaerda ekanini so'ragan bo'lsa, men aytib, вЂњYusuf Tohiriy bilan hammahallamanvЂќ, degandirman va odatim bo'yicha uni maqtab ketgandirman. Men Yusuf Tohiriy rus tilini bir rus bolasidan ham yaxshiroq bilgani, dong qolarli ixcham, chiroyli qilib, fasohat bilan ifoda etish mahoratiga ega bo'lgani, ilmi yetukligi uchun har yerda, har kimga maqtar va shunday imkoniyat tug'lsa, foydalanmay qo'ymas edim. Juda yaqin ehtimolki, o'sha kechasi ham odatimga sodiq qolib, Rahimovga maqtagan bo'lsam. Ammo biron tashkilot borligini bilmay, Yusuf Tohiriyning biron tashkilotga a'zomi-yo'qligini bilmay turib, uning haqida Rahimovga aytgan gaplarni aytishim hech aqlga sig'maydigan gap. Agar Rahimov bilan millatchilik haqida ochiq gapirishgan bo'lsam, millatchilik ruhida, antisovet ruhida men bilan biron marta suhbat qilishmagan kishining, ya'ni Yusuf Tohiriyning nomini emas, ashaddiy millatchilar Veli Qayumxonni yo Abdulla To'laganni yo Buluqboshinimi tilga olib o'tgan bo'lardim. Agar Rahimov bilan u qilgan tuhmat mazmunida gaplashgan bo'lsam, uning dudmal javobidan keyin qamalish xavfidan qo'rqib, loaqal uyimni ta'qiq etilgan kitoblardan va fotosuratlardan tozalab qo'yar edim. Agar oramizda chindan shu gap bo'lgan bo'lsa, keyin hushyor paytlarimizda yo men, yo Rahimov tomonidan u masalaning yana bir karra qo'zg'alishi aniq edi. Holbuki, o'sha shum uchrashuvdan keyin Rahimov bilan hushyor holda uy tomonga birga qaytdik. U o'sha kelishimizda o'zining kosmopolitizmida ayblanayotgani haqida gapirdi-ku?

-Xalqimizning qancha ajoyib farzandlari yo'q qilib yuborildi-yu! Bu kosmopolitizmga qarshi kurash ham o'shanday maqsadga qilinadigan nayranglardan bittasi. Qo'yavering, daryo bo'ling: вЂњKarvon o'tar, it hurarvЂќ, deyдилar!- degan Rahimov: вЂњo'sha kungi gapingiz chin gapmidi yo mastlik aljirashimi?vЂќ deb bir og'iz so'ramadi-ku?

Rahimovning o'ziga xos pastkashlik bilan aytgan so'ziga qaraganda, ikkovimiz oramizda Pushkin va Niyozbek ko'chalari burchagida o'tgan shum gapdan keyin go'yo uning qo'yniga qo'l solib ko'rish uchun Yusuf Tohiriy uyiga yuborgan emishman. Bu borib turgan olchoqlikdan iborat bir yolg'on! Umid qilamanki, bu yolg'on ham Rahimovning boshqa uydirmalari kabi, yaqinda ayon bo'lib qolajak! Haqiqatda esa voqea bunday:

1949 yilning yoz oyida bo'lsa kerak, O'zbekiston sovet yozuvchilari soyuzining hovlisida Abdumannon Rahimov Abdulla Qahhorning вЂњQo'shchinovvЂќ romani haqida doklad qildi. Dokladning oxirigacha o'tirolmay, bosh og'rib uyga ketayotgan edim, Pushkin va GogolKj ko'chalari burchagiga yetganimda ko'chaning u betida, rassomlar soyuzining binosi oldida Yusuf Tohiriyning pildirab kelayotganini ko'rib qoldim. U ham meni ko'rib, uzoqdan вЂњHa, mestkom!vЂќ deb qichqirdi. O'ttizinchi yillarda o'zbek вЂњrabfakvЂќ ishchilar fakulKjetida kasaba soyuz raisi bo'lganim uchun, u meni hamisha вЂњmestkomvЂќ deb atar edi. Ko'chadan o'tdi. GogolKj xaykalining yonida turib gaplashdim.

-Muncha shoshib qayoqqa ketyapsiz?-deb so'radim. U nafasini zo'rg'a-zo'rg'a olib, javob berdi:

-Abdumannon Rahimovning oldiga.

-Unda ishingiz bormidi?

-Abdulla Qahhorning вЂњQo'shchinovvЂќidagi obrazlar psixologiyasi haqida dissertatsiya yozmoqchiman.

O'shanda вЂњdissertatsiyavЂќ dedimi yo вЂњmaqolavЂќmi, aniq esimda yo'q, nima bo'lganida ham uning bu niyati menga yoqmadi. Chunki romanning katta kamchiliklari bor edi.

-Buni bekor tanlabsiz, Yusuf aka,-dedim. Yusuf Tohiriy hayron bo'lib qoldi:

-Nega?

-Asar hozir qattiq tanqid qilinyapti. вЂњPartiya rahbarligi buzib ko'rsatilgan, siyosiy jihatdan tuturuqsiz kitobvЂќ, deb do'mbira qilishayapti. Shuning uchun buni qo'yib, yoshlarning asaridan olsangiz mehnatingiz zoe ketmasmidi, deyman.

Yusuf Tohiriy bu gapimga вЂњxo'rvЂќ ham demadi, вЂњyo'qvЂќ ham demadi. вЂњQaydam?vЂќ deganday yelkalarini uchirdi, qo'l berdi, xayrlashib ketdik: u skver tomonga, men uyimga. Shu uchrashuvimizda men Yusuf Tohiriyga Rahimovning uyiga вЂњbormangvЂќ ham deganim yo'q, вЂњboringvЂќ ham deganim yo'q. Men unga вЂњtanlagan kitobingiz borta emas, bu masala bilan bormang, yangi material olingvЂќ, degan mazmunda gapirganman. Abdulla Qahhor вЂњQo'shchinovvЂќning o'sha paytdagi varianti partiya rahbarligini, sovet voqeligini, kolxoz hayotini buzib ko'rsatgani uchun bolshevik matbuoti va sovet jamoatchiligi tomonidan zararli deb topilgan edi. Yusuf Tohiriy zararli deb topilgan kitobni afzal bilib, zararli obrazlar psixologiyasi haqida asar yozmoq uchun baribir Rahimovning uyiga boribdiki, men buni yuzma-yuz uchrashtirilganimizda Rahimovning og'zidan eshitdim.

Endi Said Ahmad (Saidahmad Husanxo'jaev) va Shuhrat (Alimov)larning siyosiy tashkilotga a'zoligi, mening millatchilik maslagimga munosabatlari haqida kelsak, quyidagilarni ma'lum qilaman:

Ularning sovetlarga qarshi siyosiy tashkilotga a'zo bo'lishlari mutlaqo mumkin emas edi, chunki bunday tashkilotning o'zi yo'q edi.

O'zi yo'q tashkilotga a'zo bo'lishni orzu qilishning o'ziyoq nodonlik bo'lur edi. Ular menga maslakdosh ham emasdilar. Ularga nisbatan yoshim kattaroq bo'lgani sababli aytishga arzigulik ulfatchilik ham qilmaganman. To'g'ri, Said Ahmad bilan вЂњSharq yulduzivЂќ jurnalida birga ishlaganman, lekin u proza bo'limining boshlig'i, men esam mas'ul sekretar edim, o'zaro xizmat muomalasi ham shunga qarab edi. Said Ahmad o'zining ish davrida rayonlardan kelgan hikoya yoki ocherkni ishlab bermagan. Men ish talab qilsam, turli bahonalar bilan oqlanar, вЂњSharof aka bir zarur ish topshirib qoldilarvЂќ, вЂњSharof akaning povestini tahrir qilyarmanvЂќ, вЂњSharof aka meni komandirovkaga yuboryapti...vЂќ deyar edi. Shunga ko'ra, aniq aytishim mumkinki, jurnalda bosilgan, siyosiy xatoga yo'l qo'yilgan ocherklarda Said Ahmadning ishtiroki, demak, aybi ham yo'q. Jurnalda bosilgan rus yozuvchisi Snegovning Ahrorova tarjimasidagi вЂњMana shuning o'zi sotsializmvЂќ ocherkida avtor bu yerda

mozorlar, jaholatlar bilan to'liq, qorong'i xasis o'tmish bilan quyosh nurlariga cho'mgan, yorug', binolari oq, go'zal, hayotbaxsh sotsializmni taqqos etmoqchi bo'ladi. U v ЁЂSotsializm Ёќ kolxozini qidirib borib, uzoq o'tmishga, hozirgi avlod batamom qutilgan jaholatga qayrilib qaraydi-da, uning ayanchligini, qabihligini qorong'u gumbazlar ichida achib, sasib yotganini ko'rib, nafasi bo'g'iladi. Tezroq yoruqqa, havoga intiladi va tashqariga chiqib, yorug' dunyoni, sotsializmning oqarib turgan binolarini ko'radi. Hamrohi: v ЁЂMana shuning o'zi v ЁЂSotsializm Ёќ, deydi haligi oq binolarni ko'rsatib. Jamoatchilik buni qattiq tanqid qildi. v ЁЂSotsializm Ёќga mozorlar orqali borilganini ko'rsatadi bu ocherk Ёќ, deyildi. Avtorning asl maqsadi bunday bo'lmasa-da, istanilganda shunday tushunish ham mumkin edi. Men bu tomonni o'ylamay, avtor talqin qilgan tushunganman-da, tarjimani Said Ahmadning o'rniga o'zim tahrir qilib, nashrga topshirganman.

Orif Yunusning nomi esimdan chiqqan bir ocherkida v ЁЂMoskvalik injener qilolmagan bir detalni o'zbek master bir hafta unlab eplab yubordiv Ёќ, degan fikrni anglatuvchi abzats ham, Majid Fayziyning ocherkida ham: v ЁЂKetmon bilan olti kunda chopiladigan uchastkani traktor bir kunda o'morib tashladiv Ёќ degan jumla ham mening aybim bilan o'tib ketgan. Har holda buni men ishdagi xatom deb bilaman. Men haqiqat, adolat ro'yi-xotiri uchun baland ovoz bilan ayta olamanki, har qancha millatchi bo'lsam-da, qalamimdan o'tgan biron satr u yoqda tursin, hatto bir so'zni ham bu vaqtgacha tushunib turib, jo'rttaga buzgan emasman. Menga ishonib topshirilgan qalamga muqaddas deb qarab kelganman va uni jinoyatkorona so'zlar bilan asti-asti bulg'amaganman. Bu mening chin gapim.

Ana shu davrda Shuhrat v ЁЂSharq yulduziv Ёќga bir kolxoz raisi haqida ocherk olib keldi. Men o'qib chiqib, bu ahvolda berolmasligimizni aytdim. Konflikt qilib go'ng masalasi olinibdi. Kolxoz raisining ukasinikida bir tom bor ekan, u eski go'ngxonaga qurilgan ekan. Kolxoz raisi shu tomni buzib, go'ngni ekinga olishni xohlaydi, ukasi esa bermaydi. Men go'ng janjali olib tashlansa, bosishimiz mumkinligini aytdim. Chunki matbuot sahifasiga go'ng mojarosi bilan chiqish kulgili bo'lar edi. Shundan so'ng Shuhrat mendan qattiq xafa bo'ldi va ko'rishga ko'zi bo'lmay qoldi. Men Shuhratning v ЁЂgapga to'n kiygizishv Ёќ odati borligini eshitgan bo'lsam ham uning sovetga qarshi harakatlari, millatchiligi haqida hech nima bilmaganman...v Ёќ Turmaning biqiq xonasida qog'ozga tushgan bu satrlar Mirzakalonning o'z bo'yniga tashlanadigan ayb sirtmog'i edi. U buni bilardi. v ЁЂO'lsam o'zim o'lay, qamalsam o'zim qamalaub Ёќ, deb bu sirtmoqni pishiqroq bo'lishiga harakat qilardi. v ЁЂBu safar yozganlarimdan tergovchining ko'ngli to'larv Ёќ, deb o'ylab yana yanglishgandi. Tergovchi v ЁЂIshv Ёќga doir yangilik, ayniqsa yangi nomni uchratmagach, qog'ozlarni g'ijimlab tashlagisi keldi. Qog'ozda ayb yo'qligiga aqli yetib, aybdorning yuziga tarsaki tushirdi.

-Oybek yozuvchilar soyuziga raislik qilganda sen qaerda eding?

-Men... konsulKjtant bo'lib ishlardim.

-Ha, ishlagansan. Demak, Oybekning kimligini, asl basharasini bilasan. Xo'sh, bularni nima uchun yozmading? MilKjchakov, Nazarov, Fatxullin, Uyg'un, Sobirovalar Oybekning soyuzdagi millatchilik tendetsiyalariga va uning soyuzni tushkunlikka olib borayotgan noto'g'ri rahbarligiga qarshi keskin kurash boshlaganda sen qay tomonda eding?

-Men... Oybek tomonda edim...

-Ha-a... tan olganing yaxshi. Buni biz ham yaxshi bilamiz. Sen partiya tashkilotining sog'lom qismi tomonda bo'lmagansan. Oybek biron yerga uzoq muddatga ketadigan bo'lsa o'z o'rniga kimni qo'yib ketardi? Bilmaysanmi? O'z o'rniga prezidium sostavidagi kommunist a'zolardan Sheverdin, Uyg'un yoki Yashinni emas, o'zi singari partiya yo'lini mensimaydigan partiyasiz Shayxzodani qo'yib ketmasmidi?

-Bir marta shunday bo'lgan edi shekilli, lekin men buning sababini bilmayman.

-Bir marta deysanmi? Mayli, sen aytgancha bo'laqolsin. O'sha bir martada Shayxzoda raislik vazifasida qo'qqayib olib, partiya tashkilotining qaroriga teskari harakatlar qilganini ham bilmaysanmi?

-Rostdanam bilmayman, men eng kichkina vazifada ishlardim.

-Sen baloni bilasan! Partiya tashkiloti Safarovni litfond direktorligiga tavsiya qilib, uni Moskvaga rasmiylashtirishga jo'natsa, Shayxzoda Moskvaga telegramma yuborib, bu nomzodga soyuz prezidiumi nomidan v ЁЂvetov Ёќ qo'ygani ham senga ma'lum emasmi?

Oybekning boshidan mag'zava quyishlari unga ma'lum edi. Soyuzdagi ishlarga raykom va Markazkom aralashgach, bu idorani sog'lomlashtirish tadbirlari boshlandi. Dastavval Yozuvchilar soyuzi partiya tashkilotiga qaytadan saylov o'tkazib, uning byurosini yangi, sog'lom kishilar bilan ko'paytirishga qaror qilindi. Saylov kunlari yaqinlashib kelmoqda ekan, Soyuz kommunistlari yeng ichida ikkiga bo'lina bordilar. Bir tomonda hozir tergovchi tilga olgan MilKjchakovlardan iborat v ЁЂsog'lom kuchlarv Ёќ bo'lsa, ikkinchi tomonda Oybek tarafdorlari to'planishgan edi. Mirzakalon shular qatorida edi. Bir kuni Jumaniyoz Sharipov shoshilib kelib, unga past ovozda dedi:

-Oybek domlani yerga kirgizib yubormoqchilar, aslo yo'l qo'ymaslik kerak bunga. Shuning uchun Fatxullin, Milchakov, Uyg'un, Safarovlarga zinhor ovoz berib bo'lmaydi. Byuroga o'z kishilarimizni ko'rsatib, o'shalarga ovoz berishimiz shart! Saylovga bir kun qolganda u yana kelib tashvishli ovozda dedi:

-Bular Safarovga telegramma yuborib, saylov kuniga yetib kel, deb chaqirdilar Hozir har bir ovoz uchun kurash ketyapti. Men ham kolxozga Abdulla Qahhorga telegramma yubordim. Kelib qolsa, biz ham bir ovoz yutamiz.

-U ovoz berolmaydi-ku? Partiyaga haqiqiy a'zo emas, kandidat-ku?-deb ajablandi Mirzakalon.

-O'zi-ku ovoz berolmaydi, lekin xotini ovoz beradi, kelsa, o'zim gaplashman.

Oybek va uning rahbarligi uchun kurash ketayotgan bo'lsa-da, Oybekning o'zi bu kurashga aralashmayotgan edi. Bu kurashni uning tarafdorlari olib borardilar.

O'sha kuni xunobi oshgan Jumaniyoz Sharipov:

-Adabiyot payrovida ivirsib yurgan, adabiyotga hech qanday aloqasi bo'lmagan savodsiz Milchakovlarning dumlari adabiyotning hozirgi ustuni bo'lgan gigant Oybekni ko'tarib tashlab, o'zbek adabiyoti taqdirini o'zlari hal qilmoqchi bo'ladilar. Oybek qaerda-yu, bu razillar qaerda?! Oybekni Moskvagina emas, chet el ham taniydi! Bular esa shunday buyuk insonni majlislarda axlatga bulab, oyoq osti qilib tashlayapti!-dedi bo'g'ilib. Mirzakalon uning bu gaplariga tamoman qo'shilgan edi. Partiya majlisi boshlanib, byuro a'zoligiga nomzodlar ko'rsatish masalasiga endi o'tilmoqchi bo'lib turilganda Safarov Moskvadan yetib keldi va o'z ovozi bilan Oybek tarafdorlarining hisoblarini buzib qo'ydi. Abdulla Qahhor esa uncha uzoq bo'lmagan kolxozdan majlisga yetib kelmadi, oqibatda Milchakovlar to'dasining qo'li baland keldi.

Oybek atrofida yuz berayotgan mashmashalar hech kimga sir bo'lmagani holda, tergovchi nima uchun yana bu masalani eslayapti ekan? Yo ularga Oybekning millatchi, antisovetchi ekanini tasdiq etuvchi yangi dalillar kerakmi? O'ttiz yettinchi yilda Yozuvchilar

soyuzi shunday uydirmalar bilan Qodiriy, Cho'lponlarning bo'yniga sirtmoq solib bergan edi. Odatda, odamlar bir-birlarini himoya qilish, o'zaro ko'maklashish uchun uyushadilar. Yozuvchilar soyuzini tashkil etishdagi maqsad ham shu bo'lgan. Lekin Stalin chizgan chiziqdan chiqmay kelayotgan bu soyuzning vazifasi boshqacha kechdi. Endi gal Oybekkami? Qodiriydan keyingi eng mustahkam ustun kesib tashlangach, ahvol nima bo'ladi?

Oybekning boshi uzra qora bulutlar to'plana boshlagan kunlarning birida Ma'ruf Hakimov bir gap aytib, Mirzakalonni hayratga soldi:

-Kecha Boboev ikkimiz Regina restoranida toz-za maishat qilibmiz, bosh tars yorilay deb turibdi.

-Kechami?-ajablanti Mirzakalon.-Cho'takning quruqligidan fig'oningiz falakka ko'tariyatuvdi-ku?

-Cho'ntagim quruq edi, Mamarasul iyib ketib, mehmon qildi.

-Uning birovni mehmon qilish odati yo'q edi-ku?-deb yana hayron bo'ldi Mirzakalon.

-Bir dardi bor ekan, yuragiga sig'dirolmay, meni o'ziga dardkash qildi,-dedi Hakimov. Mirzakalon в Ёњхо'sh?в Ёќ degandek diqqat bilan uning ko'zlariga tikildi. Mirzakalon uni O'lka o'zbek erlar bilim yurtida o'qib yurgan paytidan beri tanirdi. Uni o'z ukasidek, hato o'z jigaridan ortiq yaxshi ko'rardi. Ma'ruf nashriyot ishlariga yangi kirishgan paytlarida Mirzakalon tahrir va tarjima sohalaridagi tajribasi bilan yordam bergan, urush davrida ham xat yozib, hol-ahvol so'rashib turardi. Ma'ruf u bilan shu qadar sirdosh edi-ki, eshitgan-ko'rganlarini albatta aytmay qo'ymas edi. Bu safar ham odatini kanda qilmadi hikoyasini davom ettirdi: Kecha uni MGBga chaqirib: в Ёњbizga ishlaysanв Ёќ, deyishibdi. Shuni aytib, yig'ladi. в ЁњYo'qв Ёќ, desam ham qo'yishmadi. в ЁњOybekka, boshqa yozuvchilarga ko'z-quloq bo'lasan, bilganlaringni oqizmay-tomizmay bizga ma'lum qilib turasan!в Ёќ deyishdiv Ёќ, endi o'z o'rtoqlarimni sotamanmi? Ayting, nima qilay? Yo o'zimni osaymi?в Ёќ deb yig'layverib, shishib ketdi.

-Siz nima dedingiz?

-Men nima derdim? Mening qo'limdan nima kelardi?

Bu nomuxsh suhbatdan so'ng oradan ikki-uch oy o'tgach, Ma'ruf Hakimov rangi oqargan holda kirib keldi:

-Mamarasulning boshiga tushgan balo menga ham ro'para bo'ldi,-deb atrofga bir hadiksirab qarab oldi.-Menga ham hufya bo'lib ishlashni taklif qilishdi. Bir emas, ikki marta chaqirishdi. в ЁњOg'zim bo'sh, men sir saqlay olmaymanв Ёќ deb yig'lamsirab beruvdim, ishonishdi shekilli. Lekin ko'nglim baribir g'ash. Har holda MGB Oybek aka bilan jiddiy shug'ullanayotganga o'xshaydi. Yo'lini topib, akani shipshitib qo'yish kerakmikin?

Oybek bir kuni chaqirib, vazifa topshirgach, Mirzakalon ig'vogarlar haqida gap ochdi. Oybekning zarur yumushi bormidi, yo atrofida bo'layotgan gaplardan xabardormidi в Ёњkeyin...keyin...в Ёќ deb suhbatni davom ettirmadi.

Turmaning so'roq xonasida turgan Mirzakalon tergovchining savoliga emas, o'zining xayolini to'zitib turgan shu savollarga javob topolmay hayron edi. Tergovchi bir oz sabr qilgach, yumshoqroq ovozda dedi:

-Sen Oybekning faqat siyosiy jinoyatini emas, iqtisodiy jinoyatini ham yashirgansan. Ha, Oybek в ЁњO'zbek sovet antologiyasiv Ёќni tahrir qilgan, deb haq to'langani jinoyat edi. Chunki u antologiyaga qalam ham urmagandi. Lekin Tuyg'un, Homil Yoqubov va sendan iborat uchlik komissiyasi, в Ёњtahrir qilingan, to'g'ri haq to'langanв Ёќ, deb akt tuzib berdinglar. Holbuki, Safarov buning aksini isbot qilib bergan edi.

-Safarov bunaqa narsalarni yaxshi tushunmaydi, undan tashqari o'rtada shaxsiy manfaat bo'lgan. Uchlik komissiyasi masalani xolis o'rgangan.

-Demak, sen bu voqeani yaxshi eslaysan?

-Ha.

-Demak, sen bu masaladagi fikringga sodiqsan?

-Ha.

Mirzakalon bu iqrordan keyin yo musht yo tepki tushib qolar, deb o'zini zarbaga tayyorladi. Lekin tergovchi marhamat qildi tegmadi. Aksincha, xuddi yosh bolani aldayotgan ohangda gapirdi:

-Kameraga borib yaxshilab o'ylab ko'r: g'irrom akt tuzib Oybekni oqlash g'oyasi kimdan chiqqan, aslida nima bo'lgan?

Tergovchi shunday deb nazoratchini chaqirdi. Mirzakalon qo'lini orqasiga qilib, chiqishga hozirlanganda Tergovchi to'xtatdi:

-Berlindagi Molli xoniming ishchining qizi ekan, a? Bunga ishondim. Nazira Xolidova-chi? U ham ishchining qizimidi? Uning otasi Turkiya josusi, xalq dushmani sifatida otib tashlaganini bilmasmiding? Germaniyadan olib kelgan yozuv mashinkangni bekorga sovg'a qilmagandirsan, a?

в ЁњHatto mashinkani ham bilishadi bularв Ёќ, deb g'ijindi Mirzakalon. Ammo ichidagini sirtiga chiqarmay, boshini egganicha eshik tomon yurdi.

-Ismoilii, vaqting borida o'ylab ol, keyin vaqt qolmasligi ham mumkin. Bunisi endi o'zingga bog'liq...-dedi tergovchi uning ortidan.

Tergovchi aytmasa ham biladi o'zining taqdiri ham, oilasining qismati ham aytadigan so'zlariga bog'liq. Nazira bilan dastlab ko'rishganda uning otasi kim ekanini chindan ham bilmagan edi. Oybek ham bilmaganligi aniq. 1948 yilda, O'zbekiston sovet yozuvchilari soyuzida ishlab yurgan kezlarda rais Oybek uni chaqirib, qo'lga ikkita kichkina tarjima berdi-da:

-Shuni ko'rib chiqing, tuzuk bo'lsa chaqirib gaplashing, yordam bering, tarjimalarini jurnalda bostiramiz,-dedi.

Mirzakalon xonasiga qaytib, qo'lyozmaga ko'z yugurtirdi. Nazira Xolidova imzoli bir ayol tomonidan o'zbekchaga tarjima qilingan rus yozuvchilaridan birining ikkita hikoyasi edi. Ma'ruf Hakimov bilan ikkovlashib, ruschaga solishtirib qarab, tarjimaning ayrim, ahamiyatsiz kamchiliklaridan qat'i nazar, juda yaxshi qilinganiga qoyil bo'ldilar. Bir necha kundan so'ng tarjimachi keldi. Yigirma ikki-yigirma uch yoshlarda, jussasi kichikkina, o'zi puchuqqina bir qiz edi. Mirzakalon u bilan Ma'ruf Hakimov huzurida gaplashdi. Gaplari pishiq, jiddiy bir qiz. Tarjimasining yaxshi ekanligini aytib, ayrim kamchiliklarini o'ziga ko'rsatishdi. Qiz tajribasiz ekanligini, o'rganish orzusi borligini aytgandan keyin, Mirzakalon unga bir savol berdiki, olgan javobi uni o'sha topda buyuk bir tahsin bilan larzaga solgan bo'lsa, uning ta'siri hali ham esida. Mirzakalon undan:

-Sizda bu havas qaydan tug'ildi?-deb so'radi. Xolidova xijolat bo'lgandek, kuldi. Keyin dadil turib tushuntirdi:

-Men kitob o'qishni juda yaxshi ko'raman. O'zbek tilida bosilgan kitoblarni tamom tushirganman, desam kularsizlar, lekin haqiqat. Rus tilida ham juda ko'p kitoblar o'qidim. Ruscha shunday ajoyib, shunday yaxshi kitoblar borki, hamma dugonalarim ham ruschani bahuzur o'qiy olmaydilar, demak, boy rus adabiyotidan men olgan ruhiy ozuqni ololmaydilar. Dugonalarimga achinaman. Shuning uchun ham, dugonalarim menga o'xshash lazzatlansinlar, deb, tarjima bilan mashg'ul bo'lishga qaror qildim.

Qizning bu javobi ikkovlarini quvontirdi. Rus kitoblari haqidagi so'zdan keyin beixtiyor bolaligi yodiga tushdi...

Andijonning Buloqboshisidan, otasining zulmidan bezib, O'shga qochib kelgan kunlari edi. Ko'chaga chiqsa, bir malla rus bolasi

qo'lida kitob, o'qib o'tiribdi. Yoshi o'zi bilan teng ko'rindi. v Ё Men tengi bola ham kitob o'qiydimi? v Ё o'ziga bergan birinchi savoli shu bo'ldi. Uning yoniga borib, qo'lidagi kitobga qaradi. U bola Mirzakalonga o'ruscha gapirdi, nazarida v Ё sen o'qishni bilasanmi? v Ё deganday bo'ldi. Mirzakalon esa o'qishni bilmaydi, bilimsiz. Kitobni qo'lga oldi. Yonib ketdi. Shu bola o'qiydi-yu, nega men o'qiy olmayman, deb o'zidan o'zi nafratlanib ketdi. Yuragiga o'sha onda o'qish ishq tushgan edi...

Tarjimachilik ijodiga yuqori baho olgan Nazira jurnal tahririyati topshirig'i bilan hikoya va ocherklarni ruschadan o'zbekchaga tarjima qilib bera boshladi. Voynichning v Ё So'nav Ё romani, Lev Tolstoyning v Ё Tirlishv Ё, Radishevning v Ё Sayohatv Ё kabi o'nlab asarlarning benazir maqomda tarjima qilgan ijodkorning har bir maslahatini u jon qulog'i bilan tinglardi. Nazira fe'li va odati jihatidan o'zbek qizidan ko'ra ko'proq rus qiziga o'xshardi. G'ayrati tunganmas ko'rinardi. Bir yoqdan o'zi tarjima qilsa, bir yoqdan ustozning mahorati sirlarini o'rganish uchun uning qo'lyozmalarini yozuv mashinkasida tozaga ko'chirib berardi. Shu sababli Mirzakalonning ixcham yozuv mashinkasi unikida turardi. Bundan kim xabar topganu bu idoraga qo'shib-chatib yetkazgan Xudo biladi!

O'zbek qizlaridan tarjimon chiqishi adabiyot va nashriyot sohalaridagi katta yutuq deyish mumkin edi. Mirzakalon Naziraning ijodiga faqat shu nuqta nazardan qaradi va yordamini ayamadi. Uning otasi kim ekanini esa keyinroq bildi. Bildi-yu, unga bo'lgan ehtiromi yanada ortdi. Nazira otasi haqida gapirmaslikka tirishardi. Munavvar qorining maslakdoshi bo'lgan bu turk ziyolisining Moskvaga olib ketilganini, o'sha yerda otib tashlangani haqidagi mish-mishlarni Mirzakalon yoshlik chog'larida eshitgan, garchi Munavvar qorini ham, uni ham ko'rmagan bo'lsa-da, ustoz Cho'lpondan ular haqida ko'p hikoyalar eshitib, nomlarini qalbi to'riga qo'ygan edi. Ana shunday millat fidoyisining qiziga nisbatan unda qanday yomon niyat bo'lishi mumkin? Otasi haqidagi haqiqatni bilgach, Nazira uning ko'ziga go'yo v Ё So'nav Ё romanidagi matonatli, sadoqatli Jemmi bo'lib ko'rindi va... o'zida Arturning jasorati, haybati yo'qligidan o'kindi. Naziraning kelajagini o'ylaganda esa unga Artur kabi o'tyurak yigit nasib etishini orzu qildi... Bularni tergovchiga aytinmi? Bo'lmagan gap!! Naziraning pok nomiga dog' tushishini sira istamaydi. Tergovchi bekorga gapni aylantirmadi. Xalq dushmanining qizini qamoqqa olish uchun unga dalil yetishmay turibdimi? O'sha yetishmagan narsani Mirzakalon to'ldirishi kerakmi? Hech qachon! Shu qat'iy qarorga kelishi uchun tergovchi xonasidan o'zining kamerasi qadar bo'lgan yo'ldagi vaqt kifoya qildi va bu ahdi xiyonat qilmadi.

X

Toshkent, Darxondagi uch xonali uy.

1986 yil, 4 fevral, seshanba, soat 22.50.

Qulog'iga o'sha shirali ovoz urilib, vujudi bir seskandi. Yana kipriklari titradi. Butun vujudini quloqqa aylantirib tingladi: yo'q, afsus, Naziraning tovushi emas bu. v Ё Ha-a... hamshira kelibdiv Ё. Dimog'iga spirt hidi urildi. v Ё Nishtarini sanchadi... v Ё Tanasi ignaning zahrini sezmaydi. Atrof sukut og'ushida qoldi. v Ё Nima bo'ldi? Hamma ketib qoldimi? v Ё Bu onda yurak urishini tasmaga ko'chirib, sinchiklab kuzatishardi. Egri chiziqlar vrachda badbin tuyg'u uyg'otib, bosh chayqab qo'ydi. Ammo ostonada turgan o'g'liga haqiqatni aytishni lozim ko'rmay, hamshiraga deyarli pichirlab, tomirga qanday dori yuborishni tayinladi. Ular vazifalarini bajarib, chiqib ketishgach, yana ovozlar eshitildi.

Yo'lchiev odatdagicha baland ovoz bilan gap boshladi:

-Hushi o'zidaligida menga aytuvdi, v Ё Farg'ona tong otguncha v Ё ning uchinchi kitobini yozishga da'vat qilgan ekansan. To'g'ri o'ylabсан. Yozish kerak.

v Ё Jiyanim bilan gaplashyapti v Ё, deb o'yladi u.

Qo'shni xonadagi Yo'lchiev esa gapini baralla davom ettirdi:

-Erta-indin tuzalib, otdek bo'lib ketadi, birga o'tirib yozishgin. Bu qanaqa roman bilasanmi? Bu oddiy kitob emas. Bu Mirzakalonning yig'lab-yig'lab topgan bolasi. Qamoqdan qaytganda v Ё roman yozib keldim v Ё, desa esim teskari bo'lib ketdi. Qanaqa qog'oz topsa, shunaqasiga yozavergan. Hatto gazetaning hoshiyalariga, satrlari orasiga ham bitharflar bilan yozgan. Romanning nechta bobini nazoratchilar olib qo'yib, yoqib yuborishgan. Lekin u yozavergan. Bir kuni Hayotxonning ahvolini yoza turib piq-piq yig'lasa, eshik ortidagi nazoratchi eshitib qolib v Ё Ranjiuverma, yigirma besh yil o'tadi-ketadi, yaxshi yursang, boshqa qo'shishmasa, oltmish besh yoshlaringda uyingga kirib borasan v Ё, dermish, qiztaloq! Stalin o'lganidan keyin, amnistiya oftobi ko'rinay deb qolgach, sal bemalolroq yozgan. Buni senga aytganmi? Ha-a... bularni gapirishni istamasdi. Faqat bir marta menga yoriluvdi. Qarag'andadan Toshkentga qaytarilib, oqlash oldidan tergov qilinganda v Ё uch-to'rt oy o'tirib tursam bo'lardiv Ё, debdi. Bu gapni eshitib tergovchi lol qolibdi. Hamma ozodlik kunini intiq kutsa-yu, bu yana Yo'lchievning ovozi pastlashganday bo'ldi. Keyin uzoqdan, juda uzoqdan bo'linib-bo'linib eshitildi.

-Mirza, men ketyapman jiyaning olib borib qo'ymoqchi, o'zingga o'xshagan yaxshi bola bo'lgan...

v Ё Ha... mening ko'nglimdagiday voyaga yetdi, u mening qalamimning merosxo'ri, bilmaganlar bilib qo'yishsa yaxshi bo'lardi. Ammo... o'zi ham iltimos qilmadi, menam rag'bat qilmadim... Bironta kitobiga v Ё oq yo'lv Ё yozib bersam bo'lardi...

-Mirza, ertaga ertalab kelaman, qaymoqxo'rlik qilamiz. Zuhraxon, eringizni erkalatavermang. Otasi yuzga kirgan azamat odam edi, bu hali saksonga yetmadi. Otasining umriga solishtirsak hali bir go'dak. Iligi to'q, zuvalasi pishiq bu yigitchaning. Ikki kunda turib ketmasa, otimni boshqa qo'yaman!

Ovoz tindi. Do'sti ketdimi yo uning qulog'i eshitmay qoldimi? Boshida og'riq kuchaydi. Jiyani issiq kaftini qo'yganda og'riq chekinganday bo'lyatuvdi.

v Ё Jiyanim ketmay tursa bo'lardiv Ё,-deb o'yladi u. Negadir xo'rsingisi keldi. Bo'yining uzunligi demasa, jiyani o'ziga o'xshaydi, hazil-mutoyibani yaxshi ko'radi. Uzun bo'yini payrov qilib ko'p gapirardi. Bir kuni v Ё eshitdingmi, yangi dori chiqibdi, bo'yning o'sishini to'xtatarkan, o'sha dorini topgan do'xtirga bor v Ё, dedi. v Ё Birga boramiz, tog'a, bo'yni o'stirishni to'xtata olgan do'xtir, bo'y o'stirishning ham chorasini topgandir? v Ё Bu hazilni eslab, rangpar yuzini jilmayish yeli silab o'tdi...

Bemorning labini ho'llangan paxta bilan avaylab artayotgan kampir buni sezib, sergaklandi. Uning oyog'ini ushladi muzdek. Mehmonxona tomonga boshini burib, uyqudagi bemorni uyg'otib yuborishdan cho'chiganday past ovozda v Ё Hasanxon v Ё, deb chaqirdi. Avval o'g'il, keyin boshqalar kirishdi.

-O'zinglarni tutib, rozi-rizolik tilashinglar,-dedi kampir yana o'sha past ovozda.-Hasanxon, o'g'il boshlashi kerak.

Ko'zlaridan milt-milt yosh quyila boshlagan o'g'il:

-Bo'ldimi? dedi yig'lamsirab.

-Yo'q...

-Buvijon, nima dey?

-В Ёњ Adajon, mendan, keliningizdan, bolalarimdan rozi bo'ling, biz sizdan mingdan ming rozimiz Ёњ, deng.

-Adajon, mendan... keyingi so'zlar yig'i bilan aytildi.

U o'g'lining nidosini eshitdi. Qalbi bilan:

-Roziman...-dedi.

Lablari qimirlaganday bo'ldi.

Keyin boshqalar...

-Roziman... roziman...

В Ёњ Taomil shunday. Lekin hech kim в Ёњ hayotdan rozi bo'ling Ёњ demaydi. Shunday deb so'ralganda nima deb javob qilardim? Hayotdan rozimanmi? Albatta! Chunki har qancha ta'qib qilishmasin, har qancha xorlashga urinishmasin, men qaddimni bukmadim. Men hatto qamoqda ham ozod edim... Hayot menga nomus in'om etgan edi nomusimga sodiq bo'ldim; hayot menga idrok in'om etgan edi idrokimni behuda narsalarga isrof etmadim; hayot menga benazir go'zal Vatanda tug'ilmoq va yashamoq baxtini bergan edi Vataanga xiyonat etmadim... Men hayotdan roziman... Hayot mendan rozi bo'lsa bas... В Ёњ Oyoqning muzlashi belga chiqdi, undan ko'krakka... Egasiga xiyonat qilmagan yurak so'nggi zarbasini berdi... Ojizgina, yengilgina so'nggi nafas - bir в Ёњ puff Ёњ bilan jon chiqdi. Ozodlik gulini hidlagan insonning mijjalariidan bir tomchi pokiza yosh dumalab chiqib, yonoqqa tushdi...

Xotima o'rnida

Hanuz armondaman...

Oradan yillar o'tyapti. Odamzot har qanday ayriliq, har qanday hijronga chidaydi. Kunlar o'tgani bilan xotiralar xira tortmay, aksincha, tiniqlashib, yurakni qon qaqshatib bir o'ksik uyg'otadi. Suyangan tog'ingiz, ishongan odamingiz, dono maslahatgo'yingizning bu dunyoni tashlab ketganiga ishongingiz kelmaydi. So'nggi suhbatlar quloq ostida qayta-qayta jaranglab, so'nggi diydor ko'rishuvlar va nihoyat, eng oxirgi uchrashuv ko'z oldingizdan ketmas ekan...

Hanuz armondaman...

Mirzakalon Ismoiliiy... Bu odamning istarali siyosati, kulib turuvchi ko'zlari uni ko'rgan, bilganlar xotirasidan hali o'chmadi. Bu odamning nomi adabiyotga ko'ngil qo'yganlar tilidan tushganicha yo'q. Mirzakalon Ismoiliiy menga ham tog'a, has ustoz edilar. Shu sababli men uchun ulug' bir zotga aylangan odamning bu duyondan ketganiga ishongim kelmaydi.

Ma'zur tuting, qo'lga qalam olmoqdan maqsadim bo'lak edi. Muddao hasrat eshigini ochish emas, balki umrini faqat ezgulikka bag'ishlagan odam haqida bir-ikki og'iz so'z aytish. Xalqimiz Mirzakalon Ismoiliiyning yozgan asarlarinigina biladi. U muhtaram zotning shahsiy hayoti, asarlarining dunyoga kelishi tarixi ko'pchilik uchun sir. Shuning uchun yozuvchining asarlariga qayta tartib berish chog'ida ana shu sirni oshkor qilishga jur'at etdim.

Hanuz armondaman...

Ertalab kelish niyati bilan ketgan edim... Uyimga kech soat o'n birdan keyin qaytdim. Ostona hatlashim bilanoq bo'g'zimga yig'i keldi. Ahli ayolim buni sezib в Ёњ o'tdilar mi? В Ёњ deb so'radi havotir bilan. в Ёњ Yo'q Ёњ degan ma'noda bosh chayqadim. Ammo bu savol yig'i yo'lidagi to'siqni olib tashladi. Ahli ayolim meni yupatishni ham, biron nima deb ko'nglimga dalda berishni ham bilmay ikkilanib turaverdi. Dadam bilan ayam uxlab qolishgandi.

-Og'irlashib qoldilar, qaytib bormasam bo'lmaydi,-dedim.

-Ayamni uyg'otaymi?

-Yo'q. Bu ahvolda yotishlarini ko'rsalar yuraklari ko'tara olmasligi mumkin...

Bu ham og'riqli armon bo'lib qoldi. Akalarining og'ir xasta ekanliklarini yashirmasligim kerak edi. Tirikliklarida olib borishim kerak edi... В Ёњ Tog'angni ko'ryapsanmi, yaxshimilarmi? В Ёњ deb so'rganlarida в Ёњ Yaxshi yuribdilarmi Ёњ, derdim. Aldamasligim kerak ekan...

Ayamni uyg'otib yubormaslik uchun avtomashinaning motorini o't oldirmay, ko'chaga itarib chiqardik. Darxonga yo'l oldim. Besh qavatli uy oldida tog'amning nabiralari Ravshanni ko'rdim. Yuragim в Ёњ jiz Ёњ etib ketdi: kechikibman! Bu uydan chiqib, qaytib kelgunimcha uzog'i bilan qirq daqiqa o'tgandir. Keyin o'ylasam, uyimga kirib borayotganimda bo'g'zimga bekor yig'i kelmagan ekan. O'sha onda jon taslim qilgan ekanlar.

Uyga kirdim... Go'yo shirin uyquga ketganlar. Tanani jon tark etgan bo'lsa-da, yuzlaridan nur yog'ilib turardi. Qamoq asorati beiz ketmagan, yuz-qo'llariga oq dog'lar toshgan edi. Tib ahli qancha urinmasin, bu xastalik chorasini topmadi. Tog'amning to'y-hasham, turli anjumanlardan o'zlarini tortishlariga ham shu dog'lar sababchi edi. Bu dog'lar go'yo qamoqxonaning tamg'asi bo'lib qolgan edi. Jon chiqishi bilan bu dog'lar ham yo'qolibdi...

Men shu onga qadar o'zimni qarindoshlar orasida yosh yigit fahmlab, maslahat berish huquqiga hali yetishmaganman, deb hisoblardim. Chunki, yoshlari mendan ancha ulug' yaqin qarindoshlarimiz ko'p edi.

Yig'i-sig'idan so'ng dafn marosimini o'tkazish maslahati boshlandi.

-Qaysi teatrga qo'yiladi?-degan savolga в Ёњ marhumning jasadi в Ёњ Hamzav Ёњ teatriga yo Muqimiy nomidagi teatr binosi qo'yilishi kerak, Navoiy teatri binosiga qo'yilsa yana ham yaxshiv Ёњ, degan taklif aytildi. Muhokamaga qo'shilmay, indamay o'tirgan edim, savol nazari bilan menga qarashdi, keyin:

-Hukumat kattalariga xabar qilish kerak,-deyishdi.

-Ertalabga qadar rahbarlarga xabar berolmaymiz. Ularni topib aytgunimizcha, shunday yotadilarmi? Umuman, hafa bo'lmanglar-u, biron joyga qo'yishga men qarshiman. Musulmonlarda bunaqa odat yo'q. Agar tog'am kommunist bo'lganlarida boshqa gap edi. Mayitni tomoshaga qo'yish yaxshi emas, yuvib, kafanlangandan keyin bironing nazari tushmasligi kerak,-dedim.

Qarindoshlar, ayniqsa tog'amning oilalari musulmonlarga hos odatlarni yaxshi bilishmasdi. Shu bois, gapimni tasdiqlashni ham, inkor etishni ham bilmay bir-birlariga qarab qolishdi.

-Unda Chig'atoydagi kommunistlar mozoriga qo'yilmaydilarmi?-deb so'rashdi.

-Tog'am o'zlarini qamatgan, xorlaganlar bilan yonma-yon yotishlari kerakmi?-dedim g'ashlanib. Men bunday demasligim kerak edi. Xiyonatkorlarni tog'am kechirgan ekanlar, men ta'na qilishga haqli emasdim. Bu gap motam tufayli ezilgan yurakda behos tug'ilib, ihtiyorsiz ravishda yuzaga chiqqan edi.

Chig'atoy qabristoniga qo'yimaslik haqidagi gapimni o'ylab turishganda xayolim birdan yorishib ketdi. Tog'am tomonidan bir martagina aytilgan, keyin uzoq yillar davomida unutilib yuborganim vasiyatni esladim! Besh yil muqaddam tog'amning katta o'g'illari Farrux aka bedavo kasallikka chalinib, avval ikki oyoqlari kesilgan, so'ng vafot etgan edilar. Tog'am boshqa shifoxonda

davolanayotgan edilar. Vrachlar janozaga kelishga ijozat berishmadi. Davolanib chiqqanlaridan keyin tog'amni вЂњMinor вЂќ qabristonga olib bordim. Yig'ladilar. Duo qildilar... So'ng qabr atrofiga ko'z yugurtirib, nimanidir chamaladilar:

-Yaxshi joyga qo'yibsizlar. Qaragin, yonida yana ikki kishilik joy bor ekan...-dedilar.

Bu gapning o'ziga xos vasiyat ekanini ayriqlik kechasi esladim-da, qarindoshlarga aytib, yana ilova qildim:

-Opoq dadam ham, Oyzuhra opam, Farrux akamlar ham o'sha qabristondalar... birga yotishni istaganlar... Bu istakni o'zgartirish mumkinmas...

Masala o'z-o'zidan hal bo'ldi. Ayrimlar marhum bilan xayrlashish uchun jasadni biron teatr binosiga qo'yish fikridan voz kechmay, Yozuvchilar uyushmasi rahbarlariga qo'ng'iroq qila boshladilar. Lekin hech kim bu qo'ng'iroqlarga javob qilmadi. Shu kechani o'zida jamlangan qarindoshlar dafn marosimiga tegishli nimaiki masala bo'lsa negadir menga murojaat qila boshladilar. Shu kecha o'zimni ancha ulg'ayib qolgan his qildim.

O'sha yili komfirqa rahbariyati diniy urf-odatlariga qarshi kurashni avj oldirgan edi. Kommunistning o'zi yoki biron yaqini vafot etsa janoza o'qitilmas, ayrim dovyuraklari yashirincha o'qitib qo'yishardi. Mozorlarda qur'on tilovat qilinmasin, deb hatto o'rindiqlarni sug'urtirib tashlashgandi. Ana shunday sharoitda atoqli adibning qanday ravishda dafn etilishi masalasini hal etish oson emasdi. Ertalab, rahbarlar uyg'onishgach, kattami yo kichikmi g'avg'o uyg'onishi mumkinligini o'ylab, mayitni kechasiyoq yuvib, kafanlab qo'yish kerak, degan to'xtamga kelib harakatni boshladik.

Yozuvchilar uyushmasi partiya tashkilotining rahbari xabar olgani kelganda to'plangan jamoa вЂњkommunistchasiga dafn etish haqida gap ham bo'lishi mumkinmas вЂќ, degan kaufiyatda edi. Hayriyat, ortiqcha gap-so'z chiqmadi. вЂњBodomzor вЂќ masjidining imomi janozani вЂњMinor вЂќ qabristonida o'qiydigan bo'ldi. Tobut qabriston hovlisiga qo'yilgach, yoshi katta yozuvchilar, tog'amning tengdoshlari вЂњMotam mitingi qilamiz вЂќ, deyishdi. Imom buni eshitib garangsib qoldi. Bu taklifga monelik qilsa baloga qolishini bilib, jamoadan najot kutgandek javdiray boshladi.

-Miting shart emas, hozir janoza o'qiladi, boshlang taqsir,-dedim. Kamina kommunist bo'lmaganim sababli shunday deyishga jur'at qildim shekilli.

Tog'am menga ko'p nasihatlar qilardilar, ko'p gaplarini quloqqa olardim. Lekin ikki nasihatlarini bajarishni istamadim. Birinchisi вЂњDissertatsiya yoqlab ol, qariganingda asqotadiv вЂќ, derdilar. Olimlarning maoshlari ko'proqligini nazarda tutib, ilmga da'vat qilardilar. Men ilmdan ko'ra ijodni ma'qul ko'rardim, dissertatsiya yozishdan ko'ra, uning atrofidagi keraksiz harakatlar, tashvishlar, yugur-yugurlarga toqatim yo'q edi. Shu ishga kuch sarflamay to'g'ri qilganman, deb hisoblayman. Ikkinchisi - вЂњPartiyaga o't вЂќ, deb qistayverardilar. вЂњPartiyasiz bo'lsang yuqori mansablarga erisha olmaysan вЂќ, derdilar. Navbatdagi da'vatdan keyin: вЂњSiz urush paytida o'tgan ekansiz, qamalib chiqqanlarning ko'pchiligi partiya a'ziligiga qayta tiklandilar. Siz nima uchun tiklanmadingiz? вЂќ deb so'radim. Savolim tog'amga yoqmadim. Qoshlarini chimirib: вЂњMeni qamoqqa tiqqan partiya yana a'zo bo'lishni istamadim вЂќ, desam ko'ngling joyiga tushadimi? вЂќ dedilar. Men kulimsiradim. вЂњNega tirjauyapsan? вЂќ dedilar, keskin ohangda. вЂњJavobni o'zingiz aytdingiz: tog'amni qamatgan partiya a'zo bo'lishni istamayman вЂќ,-dedim. вЂњBu bahonang o'tmaydi,-dedilar endi yumshoqroq ohangda,-mening taqdirim boshqa, seniki boshqa вЂќ. вЂњUnda boshqa bahonam bor,-dedim hazil ohangida.-Partiya a'zolik badali to'lashni yoqtirmayman вЂќ. вЂњBu bahonang o'rinli вЂќ, dedilar jilmayib. Shundan so'ng bu mavzuda gap bo'lmadi. Tog'amning gaplariga kirmaganim uchun hozirga qadar o'zimdan o'zim xursand bo'lib qo'yaman.

Kim biladi, agar men ham urf-odatlarni bo'g'ayotgan partiya a'zo bo'lganimda tog'amni yog'och qutiga soldirib ko'mdirarmidim... Astag'firullah!

Imom janozaga saflanishni buyurganda jamoa birdan ikkiga bo'lindi. Bir guruh huddi adashgan sel oqimi singari tobutdan uzoqlashdi. Bir guruh janozaga saflandi...

Bu tasodifiy hol emasdi. Bu hayot haqiqatining amaldagi ko'rinishi edi. Kundalik tirikchilik tashvishi bilan band bo'lgan odamlar huddi bir oqimda yurayotganday bo'ladilar. Aslida esa unday emas...

Vafotlaridan ikki yil keyin, insof va adolat yuzasidan qaralsa, sakson yillik to'ylari tantana bilan nishonlanishi kerak edi. Lekin Yozuvchilar soyuzi bu qutlug' sanani unutmagan yuraverdi. Markazqo'm rahbariyatiga murojaat qilingandan keyin, ularning ko'rsatmasi bilan yubiley marosimi, yengil-elpi bo'lsa-da, o'tkazilganday bo'ldi. O'sha paytda Markazqo'mda g'oyaviy masalalar bilan shug'ullangan rahbar uzoq yillar Moskvada yashagan edi. вЂњYozuvchilarni bilarmikin yo yo'qmi? вЂќ degan shubha bilan Mirzakalon Ismoiliy tug'ilgan kuniga sakson yil to'lgani aytilganda uning ko'zlari charaqlab ketdi.

-Men bu ustozni juda yaxshi bilaman. Moskvada yurib o'zbek tilini unutib yubormaslik uchun вЂњFarg'ona tong otguncha вЂќ romanini qayta-qayta o'qirdim.

U kishining aytganlari biz uchun katta baho bo'ldi.

Buloqboshiliklarning tashabbusi bilan to'qson yillik to'ylari ona qishloqlarida o'tkazildi.

Bu yil tug'ilganlariga yuz yil to'ladi. E'tiboringizga havola etilayotgan bu bayonimizni shu qutlug' sanaga atadik. Aslida bu asarni ancha ilgari yozishim kerak edi. Asar avvalidagi sanaga e'tibor bergan bo'lsangiz, yozishni o'n yil avval boshlaganman. Unga qadar necha yil turli fikr-mulohaza bilan qo'lga qalam olishga jur'atim yetmadi. Ta'bir joiz bo'lsa, bu eng uzoq yozilgan asar bo'ldi. Asarga yozuvchi hayotidagi eng og'ir damlar asos qilib olindi. Qamoqdan keyingi hayotlari kam tilga olindi. Ehtimol, bu mavzu alohida bir asarga ko'char, vallohi a'lam! Ardoqli yoshlarimiz bayonimizdagi do'stlar va ularning xiyonatiga e'tibor berishsa foydali bo'lardi. Zero, asarni yozishdan maqsad, faqatgina yozuvchi hayotidan bir-ikki lavha hikoya qilishgina emas. Bayon qilinuvchi lavhalar bizlarga ibrat bo'lishi kerak. Shu o'rinda Alloh yoshlarimizni sadoqatli do'stlar bilan siylasin, deb duo qilamiz. Sadoqatli do'stdan faqat bir yoki ikki kishi manfaat ko'rmaydi. Sadoqatli do'st jamiyatning qudrati hisoblanadi.

Hujjatli qissa doirasiga kirmay qolgan ayrim voqea, fikr va mulohazalarni xotima bobida bo'lsa ham aytib o'tish zarurga o'xshab qoldi.

Mirzakalon Ismoiliyning nomini elga mashhur qilgan asar вЂњFarg'ona tong otguncha вЂќ romani. Adibning mo'ljalicha, asar uch kitobdan iborat trilogiya bo'lishi kerak edi. Romanning ikki kitobi yozildi. Uchinchisi qog'ozga ko'chmadi. Yozuvchiga вЂњRoman qanday yozildi, uchinchi kitob qachon bitadi? вЂќ degan savollar javobsiz qolardi. Radioda ishlab yurgan davrimda, bir kuni вЂњOdamlar romanning yozilish tarixi bilan qiziqishaptiv вЂќ, deganimda, tog'am ma'yusgina jilmayib: вЂњQanday javob beraman, kitobni qamoqdaligimda yozganimni aytganim bilan e'lon qila olishmaydi-ku? вЂќ dedilar.

вЂњFarg'ona tong otguncha вЂќ romani navbatdagi qayta nashrga tayyorlanayotgan kunlarda tog'am mendan: вЂњAsqar Qosimov degan yigitni taniysanmi? вЂќ deb so'rab qoldilar. Asqar bilan yaqin do'st ekanimni aytganimdan keyin quvonib:

вЂњAjoyib yigit ekan, Cho'lponni yoddan bilar ekan! вЂќ deb xitob qildilar. O'sha kunlari romanning muharrirligi topshirilgani

uchun Asqar asarni sinchiklab o'qib chiqibdi-da, tog'amga Cho'lpon uslubida yozilganini aytdi. U paytlarda men v ЁњКecha va kunduzv Ёњni o'qimagan edim. Asqar lotin harflaridagi nashrini qaerdandir topib o'qigan ekan. She'rlarini ham yod olgan ekan. Asqarning ruhiyatida ham, she'rlarida ham Cho'lpon nafasi sezilib turardi. Shu tufayli ham tog'am uni yoqtirib qolgan edilar. Romanning qamoqxonada yozilgani rost. Qo'lyozmalarini men ko'z qorachig'iday saqlayapman. Yuz yilliklariga bag'ishlangan tadbirlardan keyin bu qo'lyozmalarni, turli maktublarni Adabiyot muzeyiga topshirish niyatim bor. Shulardan biri qo'qonlik kitobxon Nosirjon Pochchaboevga yozilgan. Maktubda asar tarixiga doir satrlar mavjudligi uchun tanishib chiqsak zarar qilmas: v ЁњAssalomu alaykum, hurmatli Nosirjon aka!

Keyingi vaqtlarda Sizni tez-tez eslar, katta g'amxo'rlik bilan yozib turgan maktublaringiz uzilib qolganidan xovatirlanar edim. Xudoga shukr, salomat ekansiz, biz g'ariblarni eslab, xat orqali yo'qlash iltifotida bo'libsiz. Buning uchun ming-ming rahmat! Nosirjon aka, v ЁњFarg'ona tong otgunchav Ёњ romanining ikkinchi kitobi Sizga ko'p manzur bo'lganini hayajon bilan yozib, undagi maktublar, she'rlar, ayrim so'zlar, umuman, kitobda mavjud yaxshi-yomon gaplar o'zim o'ylab topgan gaplarni yo arxivlardan, eski manba'lardan yig'ishtirib olingan termalarni, deb so'rabsiz. Nima deyin? Inson qalbi bamisoli dengiz tagi-tugi yo'q bir narsa bo'lar ekan. Ko'rgan-bilganlarimiz, eshitgan-o'qiganlarimiz qanchalik katta, qanchalik hayajonli yo ayanchli bo'lmasin, qalb dengizi o'ziga sig'dirar, asrar, betinim mavji bilan bizni to'lqinlantirib turar ekan! Biz esak keragida bu bemisl dengiz tubidan fikrat durlarini terar, shu durlar tufayli o'zimizni ham, o'zgalarni ham quvontirish, hayajonlantirish, o'ylantirish baxtiga muyassar bo'lar ekanmiz. Shundog', Nosirjon aka, agar hazrati Navoiydan va boshqa dono zamonlardan qirtishlagan ba'zi she'rlar, hikmatli takbirlar hisobga olinmasa, kitobning boshidan oxirigacha hamma she'r, maktub, hikmatli gap hammasi kamina qulingizning g'arib qalamiga mansub ojiz fikrlardir.

O, Nosirjon aka-ya, kitobning yozilish tarixini so'rabsiz! Buni mendan emas, kitobdagi ko'zyoshlaridan so'rang edi! Siz v ЁњKitobni o'qib turib ho'ngrab yig'lab yubordimv Ёњ, deysiz. Neajab, yerga qanday urug' tashlasangiz, hosili shunday bo'ladi. Nosirjon aka, men bu kitobni yoza turib qanchalar yig'laganman, qanchalar qon yutganman!.. Bilsangiz, peshanamda temir panjara, tepamda o'limtik chirog'ning o'lib bo'lgan qora nuri, ostimda zax, sovuq beton, eshigida otning kallasidek qulf!.. Qo'ying, boshqa tafsillarning qorasi o'chsin! Bu shunchaki bir kitob emas, yo'q, shaxsga sajda davrining qora kunlarida ming azob, ming to'lg'oq bilan tug'ilgan bir g'arib xilqat. Ha, xilqat!.. Bu mening yig'lay-yig'lay topgan bolam!

Nosirjon aka, maktubimning oxiri ko'zyoshiga aylanmay turib gapni tamom qilay, kechiring meni. Endi maktubingizning ikkinchi qismiga o'taylik. U masala (uchinchi kitob nazarda tutilyapti.T.M.) ochiqlicha turibdi. Yosh bo'lsa oltmish sakkizga yetib qoldi. Xudo salomat qilsa, hademay yetmish-da! Uyog'i bir gap bo'lar...v Ёњ

Mazkur maktubdagi ifoda go'zalligiga e'tibor qilaylik. Adib matbuot uchun yozayotgani yo'q, oddiy ishchiga qalbini ochyapti. Nosir aka 24 iyunda yo'llagan xatida v ЁњSizning menga yo'llagan javob maktubingizni olmadim. Chunki men ikkinchi qavatda istiqomat qilaman. Pochta qutisi esa pastda, birinchi qavat devoriga mixlangan. Har kuni 15-16 bola xuddi shu yerda to'planib o'tiradi. Shunday sho'x va yomon bolalar ko'pki, kelgan xat va gazetalarni o'z vaqtida olomaymiz. Yaqinda pochtagi xotin meni ko'rib: v ЁњSizga Toshkentdan xat kelgan edi, bir yozuvchidan. Konvertidagi adres mashinkada yozilgan edi, shu xatni oldingizmi? v Ёњ deb so'radi. Men sizning u xatingizni olmagan edimv Ёњ. Yozuvchi bu holdan g'ashlanmasdan v ЁњXatim qo'lingizga tegmagani haqidagi maktubingizni olib, o'zimdagi qolgan nushasidan boshqalardan ko'chirib yubordim. Bunisi tegar, a?v Ёњ deb 30 iyun kuni jo'natganlar.

Roman, garchi qamoqda yozilgan bo'lsa-da, uning muhokamasi yozuvchi ozodlikka chiqqanlaridan keyin Yozuvchilar soyuzida bo'lib o'tgan, salbiy baho berilib, nashrga tavsiya etilmagan edi. 1956 yili 15 oktyabr, yozuvchi qirq sakkiz yoshga to'lgan kuni O'zbekiston yozuvchilari soyuzi pravleniesi prezidiumiga xat bilan murojaat qiladi. Rus tilida bitilgan arizada bu satrlarni o'qishimiz mumkin:

v ЁњO'z'laringizga ma'lumki, men uzoq yillar rus va horij buyuk adiblarning, jumladan, sovet yozuvchilarining asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish ishi bilan shug'ullanib keldim. Bu ish to shaxsga sajdaning mal'un tuhmachilari qurboni bo'lguninga qadar davom etdi. Beriyaning mustabidlari meni ozodlikdan mahrum qilishdi, ammo Vatanga muhabbat haqida gap ketganda har qanday quroldan a'loroq, o'tkirroq ishlovchi adibning qalamini tortib olisholmadi. Hibsda ekanimda men xayolan yirik asar ustida ish boshladim. Mo'ljalim bo'yicha, bu asar o'zbek xalqining 1905 yildan to bugungi kunga qadar bosib o'tgan tarixiy yo'lini ko'rsatishi kerak edi. Yolg'izlikda, mahrumlikda o'tgan kunlarim, yillarimni behuda sovurmadi. Men lagerda o'ylab qo'ygan uch kitob-trilogiyaning asosiy yo'nalishlarini miridan sirigacha xayolimda pishitdim. Ijod bilan shug'ullanish man etilganiga qaramay, men yashirincha qog'oz parchalariga trilogiyaning bir qismini yozdim. Dunyoga kelayotgan asarimni uch yil badalida tunu kun qalbm to'rida asradim, eng ardoqli, eng sevimli farzanddek suyub, erkalab, voyaga yetkazdim. Shu zaylda men ozodlikka v ЁњFarg'ona tong otgunchav Ёњ trilogiyasining birinchi qismi bilan birgalikda chiqdim.

1955 yil iyunining boshlarida men kitob qo'lyozmasini (22 bosma taboq hajmida) O'zbekiston sovet yozuvchilari prezidiumining sobiq raisi o'rtoq Abdulla Qahhorovga muhokama uchun topshirdim. Qahhorov va Yashin o'rtoqlar kitob bilan tanishib, uning kamchiliklarini ko'rsatdilar va foydali maslahatlar berdilar. Kitobda kamchiliklar bo'lishi tabiiy. Chunki u tashqi olamdan uzilgan holda, o'tmish voqealari, dalillari yaxshi o'rganilmagan tarzda, ahli qalamning dono gurunlaridan bebahra bir holda yozildi. Men Farg'ona vodiysini kezib chiqmay, asarda aks etgan voqealarning guvohi bo'lgan yoki bilgan odamlar bilan muloqatda bo'lmay turib, ish xonamda o'tirib olib kitobni meyoriga yetkaza olmayman. Ammo ozodlikka chiqqanimdan keyingi moddiy muhtojligim meni, ta'bir joiz bo'lsa, oyoq-qo'llarimni kishanlab qo'ydi.

Jonajon adabiyotimizga xizmat qilish ishtiyoqi meni O'zbekiston yozuvchilari soyuzi pravleniesi prezidiumiga murojaat etib, yuqorida zikr etilgan kitobni yakunlash uchun yordam so'rashga majbur qildi. Men Farg'ona vodiysiga borish uchun ikki oy muddatli ijodiy o'tpusk berishingizni hamda kitobni maromiga yetkazish, izdan chiqqan sihatimni davolash uchun Moskva atrofidagi ijod uyiga uch oy muddatga yo'llanma ajratishingizni so'raymanv Ёњ.

Romanning muhokamasida bo'lgan gaplar, bu gaplarga yozuvchining munosabati bizga qorong'i. (Tog'am bu haqda menga hech og'iz ochmaganlar. Yana bir armonim ham aynan shunda: tog'amning yaralarini yangilamay, deb o'tmishdan so'z ochishga, nimalarnidir so'rab, aniqlab olishga istihola qilardim). Lekin bir narsa aniqki, muhokama xolis bo'lmagan. Chunki yaqindagina qamoqdan chiqqan yozuvchi hali shubhalar chodiridan butkul qutilmagan edi. O'sha yillari roman yozgan adib eng yuqori martabaga yetgan hisoblanardi. Chunki yozilgan romanlar sanaladigan bo'lsa, barmoqlar ortib qolardi. Undan tashqari o'zbek adabiyotida hali hech kim trilogiya yozmagan edi. Jahon adabiyoti tarixida ham bunday yozuvchilar ko'p emasdi. Qamoqdan chiqib kelgan adibning bu marrani egallashi boshqa v Ёњustunv Ёњlarga erish tuyulgan bo'lishi ham ehtimoldan holi emas. Har holda o'rtada shayton bor, uning v Ёњhasadv Ёњ degan kuchli quroli bor. Ajabki, chumchuq, musichaning... boyqushning ham

qanoti bor, lekin qushlarning hech biri burgut yoki lochin kabi ucholmaydi yoki bo'ron qushi kabi o'zini to'lqinlarga urolmaydi... Nima bo'lganda ham Mirzakalon Ismoilii Yozuvchilar soyuziga rahbariyat o'zgartirgan keyin iltimos bilan murojaat etyapti. Muhokama bilan bu ariza orasida bir yildan ortiq vaqt o'tgan. Muhokamadagi har qanday tanqid ijodkorga og'ir ta'sir qiladi. Ayrimlarni bir necha oylab, xatto yillab ijoddan sovutadi. Tog'amda ham bu hol yuz bergan bo'lishi mumkin. Lekin tanqidlarni butunlay inkor etib, asarni shu holda nashr etishni talab qilmaganlar. Sayqal berish istagida bo'lganlar. Romanning birinchi kitobi dastlabki ko'rinishda, arizada aytilganiday, 22 bosma taboq bo'lsa, bosilib chiqqanda 26 bosma taboqni tashkil qilgan edi. Demak, yozuvchi yengil-elpi tahrir bilan cheklanmay, ko'p qo'shimchalar kiritgan. Asarni yaxshilashga qaratilgan fikrlarni tog'am tartib bilan qog'ozga tushirgan ekanlar: yuzdan ortiq taklif!

в Ў Ў 1-sahifa. Bag'ishlov kerak emas yoki boshqacha (jiddiyroq) bo'lsin. Boshdagi tabiat tasviri uzun. 15- sahifa. Ikkinchi bob birinchi bob в Ў Ў kayfiyat в Ў Ў ni takrorlaydi, qisqartirish kerak. 34-sahifa. в Ў Ў Bir ko'zda ham o'yin, ham tashvish... в Ў Ў Jumla, tasvir sodda, aniq emas. Murakkablik tasvirga yordam bermaydi. 47-sahifa. Kulgulik uchun haqiqatni buzish: domla qozi hokim oldiga sallasiz borolmaydi. To'xtab, o'zi olishi kerak. 108-sahifa. Quadratni keyinroq taniymizmi? Hozirgi gaplarda ishonitirish kuchi yo'q. 109-sahifa. Yana zamonaviy ifoda: в Ў Ў o'ynab turgan qartalarini... в Ў Ў Ayniqsa qori aytishi mumkin emas. Qorining uzun isboti, dalili endi o'quvchi uchun ortiqcha. Umuman qorining tili ortiqcha zamonaviy. 429-sahifa. Keraksiz patetika: в Ў Ў G'affor nima uchun yig'ladi? в Ў Ў savoliga avtordan javob... G'ulom oxirida ko'rinsin, yonayotgan boy uyiga tikilib qolsin. Jo'raxon bilan To'raxon birlashtirilsin... в Ў Ў

Yozuvchi muhokamada bildirilgan mulohazalar bilan kifoyalanib qolmaganlar. Dushanbeda yashovchi Vodud Mahmuddan fikr bildirishlarini so'raganlar. 1958 yilning 9 avgust kuni yozgan xatlarida bu satrlar bor:

в Ў Ў Assalomu alaykum, muhtaram Vodud aka!

Sizning 3 avgust tarixli maktubingizni olib nihoyatda quvondim. Shunchalik iltifot qilganingiz uchun minnatdorman.

Siz maktubingizda sanab o'tgan kamchiliklarni Toshkentdagi bir arab tili va islom dini olimi ham aytgan edi. Sizning maktubingiz u kishining mulohazalarini tasdiqlab tushdi. Kitob shaklida chiqadigan roman qo'lyozmasi nashriyotga, ya'ni bosmaxonaga tushib ketgan, shuning uchun zarur tuzatishlarni birinchi korrekturada kirgizishga to'g'ri keladi. Birinchi korrektura sentyabrsiz chiqmas deb o'ylayman. Ungacha yana boshqa mulohazalaringiz bilan ham og'alik qilasiz, deb ishonaman.

Vodud aka, sizga erish tuyulgan forscha, arabcha so'zlarni albatta tuzataman, bu jihatdan ko'nglingiz to'q bo'lsin. Oyatlarning to'g'ri yozilishiga, в Ў Ў anbiyov в Ў Ў ni в Ў Ў sahobav в Ў Ў bilan alishtirish zarurligiga, ikkita guvohni to'rttaga chiqarish, G'ulomjonni olim va fozillikdan tushirish kerakligiga alohida e'tibor beraman. Ammo 49-betdagi she'r satrlaridan biridagi 12 hijoni qanday qilib 11 ga tushirishimga hayronman. Siz-ku, tanilgan sho'irsiz, balki o'sha fikrni 11 hijo bilan ifoda etishga yordam qilarsiz? Mening bu muomalam salom berib o'tayotgan bir bechoraning aravasiga so'ramasdan chiqib olgan surbet kishining odobiga o'xshasa ham, har holda yana shunga jur'at qildim.

Bir yerda в Ў Ў hamsho'rv в Ў Ў degan so'zga tushunmaganingizni aytibsiz. Nahotki? в Ў Ў Hamdard в Ў Ў qabilidagi so'zlardan biri-ku? Balki noo'rin ishlatilgandiru, Sizga anglashilmay qolgandir.

Vodud aka, jurnalda bosilayotgan qismlarini nomerma-nomer o'qib borsangiz-da, ilojingiz va fursatingiz bo'lsa, fikr va mulohazalaringiz bilan meni xabardor qilib tursangiz. Ulguranimizni tuzatib yuborardik, bu esa romanning ham madaniy, ham adabiy pallasiga tosh bosar edi. Bu bir iltimos. Ikkinchi iltimos shuki, agar roman Sizning didingizga yoqqan bo'lsa, uni tojikchaga tarjima qilish zahmatini ustingizga olsangiz, negaki tarjima mahalida undagi kamchiliklarni tuzatib yuborishda katta yordamingiz tegar edi. Zero, romanda bahs etilgan shaxsiy va ijtimoiy baxtsizliklar tojik mehnatkashining ham boshida bor edi.

Salom va ehtirom bilan Mirzongiz в Ў Ў.

Ustoz qatorida mehribonlik qilgan Vodud Mahmud tanbeh bergan g'azal 11 hijoga tushirilgan. G'ulomjonning в Ў Ў dilidan o'pirilgan faryod в Ў Ў ning qog'ozga ko'chgan satrlari qamoqxonada tug'ilgani uchunmi, men unda oshiq yigitning emas, mahkumning zorini eshitganday bo'laman:

Ko'ngil, yig'la, fig'oning ko'kka chiqsin!

O'ting olsin falakni, osmonni yiqsin!

Yovuz taqdir tig' urdi qalbima, dod!

Netay endi tugaldi sabrim, hayhot!

Dilim dardli, tilimda o'hu-zorim,

Qarordi toleimdin ro'zgorim.

Safolat boshimni yerga qaratdi,

Shirin orzu-umidlarni taratdi.

Qayon ursam fig'on birlan boshimni?

Qayon borsam to'kib ko'zdan yoshimni?

Sevarga sevdarib, Tangrim qilib xor,

Ochiq ketgizmagil ko'zimni zinhor!

Agar aruz san'ati talablariga ko'ra nazar solsak, g'azal ancha sayoz ko'rinadi. Lekin buni komil va nuqtadon shoir emas, nazmga havasigina bor G'ulomjon yozganini e'tiborga olsak, bu da'vodan voz kechishimizga to'g'ri keladi.

Asarning yozilish tarixini o'ylaganimda yozuvchining irodasiga qoyil qolaman. Kichkina jussali bu odamning qudratidan hayratga tushaman. Tog'amning janggohda yozilgan в Ў Ў Ozod inson haqida qo'shiq в Ў Ў degan voqeiy hikoyalari bor. Front gazetasida e'lon qilingan boshqa lavha va hikoyalari ham asosan ozodlik haqida fikr yuritiladi. Fashizm qullik demak. Qul bo'lib yashaguncha ozod inson sifatida o'lmoq afzal, degan g'oyani o'zlariga bayroq qilib olganlar. Shunday odam, ozodlikni hamma narsadan afzal bilan odamning o'zi bu ne'matdan bebahra bo'lsa?! Ozodlikdan mahrum bo'lgan chog'ida ham tushkunlikka tushmay, qo'lga qalam olib ona xalqi uchun mehnat qilsa. Xalqning ozodlikka chanqoqligi, ozodlik istagi va yo'li haqida asar bitsa?! Endi o'zingiz o'ylang-a, shunday odam xalqning dushmani bo'lishi mumkinmi? в Ў Ў Men nohaq qamaldim, men besabab jabr ko'gyarman в Ў Ў, deb jamiyatdan nafratlanmay, aksincha, qo'lga qalam olishi jasorat emasmi? Ba'zan odam mashaqqatga duch kelsa, ayniqsa nohaqlik, adolatsizlikdan azob cheksa, o'zini yo'qotib qo'yadi. To'g'ri yo'l topa olmaydi. Ongi xira tortadi. Ammo Mirzakalon Ismoilii bunday tushkunlikka bandi bo'lib qolmagan.

Yozuvchi ozodlikka chiqqach, romanga sayqal berish, nashrga tayyorlash barobarida urushdan ilgari boshlangan xayrli ishni davom ettirdilar Lev Tolstoy asarlarining tarjimasini bilan shug'ullandilar. Urushdan avval в Ў Ў Tirilish в Ў Ў ni tarjima qilgan adib endi в Ў Ў Anna Karenina в Ў Ў romanini o'zbek tiliga o'girdilar. Chexov va Gorkiy hikoyalari, so'ng в Ў Ў Choliqushiv в Ў Ў ni tarjima

qildilar. В Ў Ъ Farg'ona tong otguncha В Ў Ъ romanining ikkinchi kitobi, so'ng axloqiy qissalar, maqolalar... Yozuvchi irodasining mustahkamligi, mehnatkashligining isboti uchun yana qanday misol kerak? Endi: В Ў Ъ Xo'sh, shunday mehnatkash odam nima uchun romanning uchinchi kitobini yozmadi? В Ў Ъ degan savol tug'ilishi tabiiy. Tog'am bu savolga tayinli javob bermaganlar. Lekin suhbatlaridan, qarindoshlar orasidagi gap-so'zlardan bir-ikki narsani anglaganmankim, bular bilan kitobxonlarni ham tanishtirish mumkin, deb o'ylayman.

Avvalo, birinchi kitobni qamoqda yozgan bo'lsalar-da, qolganlarini ham xayolda pishitib chiqqanlar. Ikkinchi kitobning oxirida keladigan To'tining Dilshodga maktubi aynan qamoqxona daftariga, yana siyosiy mashg'ulot daftariga yozilgan. 1969 yil, Yozuvchining oltmish yillik to'ylariga tayyorgarlik arafasida В Ў Ъ Guliston В Ў Ъ jurnali uchinchi kitobdan parcha e'lon qilgan. (Yubiley noma'lum sababga ko'ra bir yil kechikib o'tkazilgan.) Muxlislar uchinchi kitob bilan qiziqaverishgandan keyin 1972 yil 19 martda Respublika radiosiga ham bir parcha berib mana bu kirish so'zini ham ilova etganlar:

В Ў Ъ Ikkita kitobni berishga berib qo'yib, uchinchisiga kelganda sustkashlik qilish yozuvchiga yarashadigan gapmi? В Ў Ъ -deb yozibdi kitobxonlarimdan biri, menga yuborgan maktubida.

Darhaqiqat, avvalgi ikki kitobda bir yoqlik bo'lmagan, biri u ahvolda, biri bu ahvolda qolgan qahramonlarning taqdirleri kitobxonni qiziqitirmay qo'ymaydi albatta. Yozuvchi ham qariyb chorak asrdan beri igna bilan qazib kelayotgan qudug'ining tagiga yetolmayotganidan dog'da. Na chora, meva vaqti-soati kelganda pishar ekan. Badiiy asar ham shunaqadir-da... iqror bo'lishim kerak, uchinchi kitobning tezroq tugalishiga o'zim ham intizorman. Lekin faqat vaqti-soati kelgandagina pishadigan bizning mevamiz rang olib, pishib qolayozgan bo'lsa ham, ming afsus, hali dasturxoniga tuzalgani yo'q. Shuning uchun hurmatli kitobxonlarimga yana bir oz qanoat tilab, ularga yangi kitobimdan bir bobini o'qib eshittirishlarini iltimos qilaman В Ў Ъ.

1965 yil 6 oktyabr kuni shogirdlari, taniqli yozuvchi Rustam Rahmonga Moskvadan yo'llagan maktublarida bu satrlar bor:

В Ў Ъ...lekin qaribmanmi, ilgari vaqtlardagidek ko'p ishlayolmay qoldim. Tez charchayman, boshim og'riydi. Lekin, bunga qaramay, ko'p ish qilib qo'ydim. Ikkinchi kitobni tamom qo'ldan chiqarib, jurnalga yubordim. Kitobning uchinchi qismini boshqalardan ishladim. Endi yaxshi bo'ldi. To'tiqizning Teshaboy xaramidan yozgan she'riy maktubi ham qo'shildi. Shu safarimda uchinchi kitobning yarmini qoralab ketaman, degan harakatdaman. Dekabrda qaytib borsam, yuda oqqa ko'chiraman. Ungacha bosib ishlash bizdan, kuch tilash do'stlardan... В Ў Ъ

Boshqa bir maktublarida bu satrlarni o'qiymiz:

В Ў Ъ Assalomu alaykum, Rustamjon, azizim!

Sizdan ikkita xat olib, katta qarzga botib qoldim. Vaqtda javob qila olmaganim uchun ma'zur ko'rasiz. Rostini aytsam, Sizdan xat emas-u, hamisha kulimsirab turgan yoqimli chehrangiz keldi. Xuddi o'zingizni ko'rganday quvondim. Quvonch katta bo'lsa, uni hazm qilish uchun vaqt ham kerak ekan.

Telefonda xabar qilganimdek, ishimni shu oy oxirlarida tugatish umidida edim. Lekin o'rtada afsus yeydigan bir ish chiqib qoldi. Oy boshlarida O'zbekiston yozuvchilar soyuzining iltimosi bilan VilKjnyusga, Litva adabiyoti klassigi Donalaytisning 250 yillik tantanasiga borib, bir necha g'animat kunlardan ajraldim. Buning ustiga VilKjnyusdan qaytganimdan keyin, ish sust keta boshladi. Bu ham sababsiz emas, albatta. Avvalo, qattiq charchaganman, qolaversa, qaytar kunim yaqinlashgani siqilgan yuragimni o'ynatib qo'ydi. O'zingiz o'ylab ko'ring, temir yo'l bileti cho'ntagingda bo'lsa, 28 yanvarda jonajon shahringda sevgili bolalaring, aziz do'stlaring davrasida o'tirish baxti tursa, qanaqa ish yurishadi? Keling, chalasi Toshkentda bitar... В Ў Ъ

Birinchi kitob qo'lyozmasining muhokamasidan to kitob dunyo yuzini ko'rguniga qadar uch yildan oshiqroq vaqt o'tdi. Asar eng kam nushada 15 mingta bosildi. Holbuki, boshqa asarlar muhokama qilingan yiliyoq 60 ming nushada bosilardi. Garchi kam nushada bosilgan bo'lsa-da, shuhrati havas qiladigan darajaga yetdi. Kitob muhiblarining aytilishlaricha, В Ў Ъ O'tgan kunlar В Ў Ъ romanidan keyin hech bir asar bu kabi suyub o'qilmagan ekan. Demak, uchinchi kitobning yozilmasligiga boshqalardan xafalik sabab bo'lgan, degan taxminni rad etsak ham bo'ladi. To'g'ri, xafaliklar ham bo'lgan. Masalan, Mirzakalon Ismoiliiy hayot ekanlarida asarlari

majmuasini nashr ettirish orzusi bilan yashaganlar. Kimlarning ko'p to'mliklari chiqmadi, deysiz? Ammo Mirzakalon Ismoiliiy uchun bu yo'l taqa-taq berk edi. Yozuvchi mukofotlar olish yoki unvonga ega bo'lishni orzu qilmasdi.

1983 yilda adib Yozuvchilar soyuziga murojaat etishni lozim ko'rib, arizani yoza boshlaganlar:

В Ў Ъ Mana, nihoyat, shu yil oktyabrning o'n beshida 75 yoshga to'laman. Shu munosabat bilan yubileyim qilinsa, badiiy asarlarim В Ў Ъ Tanlanma В Ў Ъ yo В Ў Ъ To'planma В Ў Ъ shaklida maxsus nashr etilsa, shunday yorug' kunni qanoat bilan kutib kelayotgan men kabi mushfiq oqsoqolga katta iltifot bo'larmikin, deb o'ylayman. Agar ellikka, oltmishga, boringki, yetmishga to'lganimda ham mening na В Ў Ъ Tanlanma В Ў Ъ va na В Ў Ъ To'planma В Ў Ъ asarim nashr etilmaganini hisobga olinsa, boshim osmonga yetar edi. Men istardim, asarlarim besh tomda chop etilsa... В Ў Ъ

Ariza shu yerda to'xtatilgan, sana ham qo'yilmagan, imzo ham chekilmagan. Yozishni boshlashga boshlab qo'yib, avvalgi muomalalar eslariga tushgan bo'lsa, umid yulduzlari so'nib qo'ya qolgandir. Vafotlaridan bir necha oy oldin qo'ltiqlariga kirib, nashriyotga boshlab bordim. В Ў Ъ Ko'p tomlik masalasida necha yillardan beri meni aldab kelasizlar. Oldin Rashidovdan qo'rqardinglar, uning o'tganiga ham ancha bo'ldi. Endi kimdan qo'rqasizlar? Savolimga javob izlab ovora bo'lmanglar. Sizlarni qiynamayoq qo'ya qolay. Sizlardan bitta o'tinchim bor: men tarjima qilgan В Ў Ъ Tirilish В Ў Ъ romani qamoqdaligimda boshqa kishining nomida nashr etilgan. Shu xato tuzatib, o'zinning nomimni tiklab chiqarib bersanglar, o'lsam ham ko'zim ochiq ketmasdi... В Ў Ъ

Shu gapdan keyin ham adolat tiklanmadi. Yozuvchining iltimosi yerda qoldi. O'sha kuni nashriyot dahlizida Sharof Rashidovning ukasi Asil Rashidovni uchratdik. Tog'am u kishi bilan ko'rishib, В Ў Ъ oradan ancha vaqt o'tgan bo'lsa ham, ta'ziyamni qabul qiling, akangiz juda yaxshi odam edilar В Ў Ъ, dedilar. Nazarimda Rashidov tog'amga qarshilik qilmagan bo'lsa kerak. Yetmishinchi yillarning oxirida edi shekilli, uylariga borsam, Rashidovga xat yozib o'tiribdilar. В Ў Ъ Kecha bir majlisda Rashidov tepada, men pastda edim. Menga ko'zi tushib В Ў Ъ Mirza aka qarib qolibdilar, ahvollaridan xabar olib turinglar В Ў Ъ, debdi. Yashin shu xatni yozing, deb maslahat berdi. O'z qo'liga yetkazib berarkan В Ў Ъ, dedilar. Bu xat yozilgandan keyin bir necha yil vaqt o'tdi. Aks-sado bo'lmadi. Keyin ma'lum bo'lishicha, Yashin xatni stoli g'aladoniga tashlab qo'ya qolgan ekan. U kishi ishdan ketgach, yangi rais tog'amni yo'qlab chaqirdilar. Oqibatda В Ў Ъ San'at arbobi В Ў Ъ degan unvon berildi...

Bir kuni uyimizda uchinchi kitob haqida so'z ochilganda ayamning В Ў Ъ Tog'ang uchinchi kitobni yozmayman, shuncha mehnat qilib ro'shnolik ko'rmadim В Ў Ъ, dedilar. Tog'anging irodasini urush bukolmagan edi, qamoq bukolmagan edi, xorlik, qadsizlik bukdib В Ў Ъ, deganlarini eshitib, bunga ishongan edim. Qadsizlikni inkor etmaganimiz holda, buni uchinchi kitobni yozmaganlariga sabab, degan taxmindan yuz o'giramiz. Chunki bu yozuvchi arazlaydigan toifadan, boshqacha aytsak, В Ў Ъ burgaga achchiq qilib

ko'ra kuydiradigan b'klardan emasdilar.

Oltmishinchi yillarning boshlarida Respublika radiosining b'nyoshlik b'k tahririyatida Rustam Rahmon, Sa'dulla Siyov ishlashardi. Ular Mirzakalon Ismoilini tahririyat ishlariga tortishdi. Shu tariqa yozuvchining axloq-odob mavzuidagi suhbatlari boshlanib, bu eshittirishlar katta shuhrat qozondi. Maktub ko'p kelardi. Tog'am xat yozishga ulgurulmas edilar. Yozuv stollari dono maslahatga muhtojlarning maktublari bilan to'la bo'lardi. Bu maktublarning ayrimlarini kulib, ba'zilarini g'azabga to'lib o'qib berardilar. Xalqqa odob mavzuida gap aytish uchun kishi avvalo ma'naviy huquqqa ega bo'lishi lozim ekan. Pokizalik haqida gapiruvchi odamning o'zi pokiza bo'libgina qolmay, ifloslikka qarshi kurasha oluvchi qudrat sohibi bo'lishi kerak ekan. Biror kimsaga b'nyen vijdonli bo'lv'k demoqdan avval o'z vijdoniga qarab olmog'i lozim ekan. Biron bir yoshga b'nyeto'g'ri yo'ldan yurvb'k, deyishdan oldin o'zi bosib o'tgan yo'lga qarab olishi zarur ekan. Kishiga ana shunday ma'naviy huquq zarurligini o'zim ham keyinroq anglab yetdim.

Radio orqali olib borilgan axloq mavzuidagi turkum suhbatlar noshirlarda kitob chiqarish fikrini tug'dirdi. b'nyo'zbekiston b'k nashriyotining taklifi bilan b'nyinson husnib'k degan kitobcha yuzaga keldi. Kitobcha juda tez tarqaldi, o'quvchilar e'tiborini qozondi. Oradan ko'p o'tmay, bu mavzu to'ldirilib, b'nyodamiylik qissasib'k yuzaga keldi. Muxlislar orasida tog'amni b'nyema'naviy otamb'k deb ardoqlovchilar ko'paydi. Tog'amning vafotlaridan ikki oy o'tgach, bir ayol menga uchrashib, qaerga dafn etilganlarini so'radi. b'nyMirzakalon Ismoilining o'zlarini ko'rmaganman, lekin kitoblari orqali men u kishini o'zimning b'nyema'naviy otamb'k, deganman. Vafotlaridan endi xabar topib, kelyapman. Vaqtida bilganimda qizlari qatorida turib vidolashgan bo'lardimb'k, degach, uni qabristonga o'zim boshlab bordim. Ayol qabriston darvozasidan o'tiboq yig'lab yubordi. Xuddi o'z otasiing ziyoratiga borayotganday bo'zlardi. Qabr tepasida ham shunday bo'ldi...

Tog'am axloq-odob mavzuiga butunlay berilib ketdilar. Radiodagi suhbatlar, matbuotdagi chiqishlardan tashqari maktub yo'llagan muxlislariga iloji boricha javob qaytarishga urinardilar. Muxlislarning ayrimlari yordam so'rardi yoki maslahatga muhtojligini aytardi. Yordamga muhtojlarning yo'atasi-onasiga, yo' o'zi o'qiydigan fakul'ktet deganiga... xat yozardilar, yoshlarning mushkulini oson qilishlarini so'radilar. 1976 yili O'sh viloyatining Jalolobod shahridan bu xat yo'llangan:

b'nyAssalomu alaykum, hurmatli domla. Bu xatni qo'lingizga olganda har bir notanishimning xati singari taajjublanayotgandirsiz? Ha, taajjublanishga haqlisiz, albatta. Chunki men biron marotaba yo' xat orqali yo' tik siz bilan uchrashmaganman. Men faqat siz bilan kitoblaringiz orqaligina tanishman. Hurmatli domla, kitoblar ichida sizning b'nyodamiylik qissasib'k kitobingiz barcha kitob shinavandalari singari menga yoqdi. Men sizning shu kitobingizni o'qiganimdan keyin, ba'zi bir dugonalarim bilan birgalikda bir qancha hayotiy savollarga to'xtaldik va shularni ham bilmoqchi bo'ldik. Bu xatda buni sizga ma'lum qilmadik, chunki shu xatimizga javob yozib, oz bo'lsa-da, bizga vaqt ajrata olishingizni ma'lum qilsangiz, biz keyingi xatimizda batafsil, tutilmayroq yozishga kelishdik. Barcha tengdoshlarim nomidan zavod ishchisi Alisherova Mayramxon b'k.

b'nyQizim Mayramxon, assalomu alaykum!

Qarang, shu yil 14 mayda yuborgan xatingiz yozuvchilar soyuzida yotib qolibdi. Bugun oldimu javob yozishga o'tirdim.

Mayramxon, kitobim Sizga, dugonalarigizga yoqqan bo'lsa, bu mening uchun katta mukofot. Demak, uzoq vaqtlar tinmay qilgan mehnatim zoyi ketmabdi. Qarang-a, Mayramxon, iyunning 21-22 kunlari Sizning go'zal Jalolobodigizda, bir qarindoshimiznikida edim. Bilsak o'sha yerda ko'rishar, savollarni ham birga-birga hal qilishar ekanmiz. Attang! Shundog' bo'lsin, Mayramxon qizim, qancha, qanaqa savollar tug'ilgan bo'lsa yozing. Hammasiga qadri hol javob beraman. M. Ismoil. 30.06.76 b'k.

Yana bir xat alohida e'tiborga molik ekani uchun, uzunroq bo'lsa ham to'la bayon etishni lozim ko'rdik:

b'nyAssalomu alaykum, siz hurmatli shoirimiz Mirzakalon Ismoil!

Men sizning yozgan kitoblaringizni zo'r qiziqish bilan o'qib kelmoqdaman. Yaqinda b'nyodamiylik qissasib'k degan kitobingizni olib o'qib, xursand bo'ldik. Siz to'g'ri yozibsiz shu kitobni. Shu kitobda bizlarning nomimiz ham bor ekan, rahmat sizga. Men bu kitob asosida xat yo'llayman. Siz Toshmurod bobo to'g'risida ko'p fikr yozibsiz. Men shu bobo to'g'risida ozgina bo'lsa ham yozib yubormoqni lozim topdim. Toshmurod bobo 1950 yillari Oqdaryo qishlog'iga ish axtarib kelgan edi. Shu paytda yoshi 85ga kirgan bo'lsa ham u kishi bardam-baquvvat edi. Toshmurod bobo tomorqamizda ishlab ikki xalta don oldi. So'ng otam bilan maslahatlashib, qishlog'imizga ko'chib kelib Musallam xola, qizi Muqaddas va 7-8 yoshli Qarshivoy o'g'li bilan birga bir kulbada yashay boshladi. Qish chiqib, ko'klam kelgach, Abdulla akamlar yerto'la qazib, kulbaxonada qilib berishdi. Ular ko'p yillar kulbaxonada yashashdi. So'ng o'zlari g'isht quydirib, yangi uy qurib olishdi. Bobo oilasini boqish uchun o'tinfurushlik, cho'ponlik qilar edi. Bolalari ulg'ayib, voyaga yetishdi. Qizlari turmushga chiqib ketishdi. Qarshivoyga xotin olib berishdi. Toshmurod bobo yildan yilga qarib, ko'zi o'tmay, o'zi nimjon bo'lib qoldi. Muqaddas va Qarshivoy boshqa otadan ekan. Qarshivoy otani mensimas edi. Bir kuni bobo cho'y ichish mahali unga hazil gap aytdilar. Qarshivoy hazilga javoban otasiga bir olayib qarab: b'nyensing ko'zingga ko'rsataman! b'k dedi. Qarshivoy qimorvoqlik qilardi, otasiga qaramas edi. Bir kuni borgan ona-bola menga b'nybobong sizlarnikiga mehmonga bormoqchilar, yaxshilab mehmon qilv'k, deyishdi. Men u payt hali uylanmagan edim. Bobo biznikida uch oy turdilar. Ko'klamga chiqib, b'nybobu kelsinlarmi? b'k desam, b'nyYo'q! b'k deyishdi. 1964 yili men harbiy xizmatga ketdim. Uch yil deganda qaytdim. Ro'za payti edi. Bobo yuz yoshga yetgan bo'lsa ham ro'za tutarkan. Bir kuni bobo tahorat olaman, deb hovliga chiqib, uyga qaytolmay adashib, oq ishton, oq ko'yakda ko'chaga chiqib ketibdi. Qahraton qish edi. Ovozlarini eshitib, u kishini uyga qaytardik. Qarshivoy chiqib xabar ham olmadi. Bobo yuz uch yoshga kirgan payti edi. Ro'zani ochaman, deb bir qultum suvni yuta olmay, yuragi urishdan to'xtabdi. Mullaxo'ja qishlog'i xalqi 4-5 so'mdan pul yig'ib, Toshmurod boboni dafn qildi. Qarshivoy hayallamay, uyni sotib, ko'chib ketdi. Onasi bilan kichik singlisini tashlab ketdi. Siz yozgan Toshmurod bobo taqdiri shunday tugadi.

Hurmatli redaktor xodimlar, mening bu arzimas xatimni Mirzakalon Ismoiliga yo'llangizlar, deb iltimos qilaman. Shonazar Salomov, Samarqand oblast KJ, Oqdaryo rayon, Lenin nomidagi kolxoz, 11-brigada b'k.

b'nyHurmatli inim Shonazar, assalomu alaykum!

Shu yil avgust oyida menga bir maktub yo'llagan ekansiz. Ko'p rahmat. Lekin maktubingiz shu bugun qo'limga tegsa-ya! b'nyodamiylik qissasib'k nomli kitobimni o'qib, Toshmurod bobo, Abdulla aka, Erkin Hojiqurbonovlar haqida, o'zingiz haqingizda ham batafsil xat yo'llaganingiz boshimni osmonga yetkazdi. Yozuvchi biron odamni qalamga olsa, uni hech qachon esdan chiqarmaydi, taqdiriga ham befarq qolmaydi. Men Qarshivoyning betamizligi, Toshmurod boboning sho'ri-anduhi haqida biron xabar eshitsam, deb orzu qilar edim. Maktub qanchalik og'ir bo'lsa ham Siz meni bir muncha tinchitdingiz, rahmat. Inim Shonazar, qani endi Qarshivoy singari betamiz o'g'illar, qari otasiga qarashdan qochgan nomardlar, tekinxo'r ablahlar urug'i qurib, yuzdan oshsa ham o'z nomini mehnatdan topgan marhum Toshmurod bobo singari halol insonlargina qolsa dunyoda!

Yaxshilar orzu qilgan ana shunday payt ham kelar bir kun. Lekin o'zi kelmaydi u payt. Uni keltirish kerak. Keltirish uchun esa yuzi

qora, xudbin, batarin qarshivoylarga qarshi tinmay kurashmoq lozim!

Shonazarjon, Toshmurod bobo hayotligida unga yordam qo'lini cho'zgan, vafot etgandan keyin esa dafniga qadrdol ko'makda bo'lgan hamqishloqlaringizga, u olijanob insonlarga mendan behad minnatdorlik bildirib, Abdullajon, Erkinboy va boshqa yaxshilarga salomimni yetkazsangiz. Menga g'oyibona tanish hamqishloqlaringiz, qariganda jafo chekib o'tgan Toshmurod bobo taqdiri haqida batafsil maktub yozishdan erinmaganingiz uchun o'zingizga rahmatlar aytaman. Farzandlaringizga, umr yo'ldoshingizga, o'zingizga sihat-salomatlik, faqat baxt, quvnoqlik tilab qolaman.

Salom va ehtirom bilan, M.Ismoiliy.

Toshkent, 1975 yil, 12 oktyabr ЎК.

Muxlislar yozuvchining turar joyini bilmaganlari uchun maktublarini yo tahririyatga yoki yozuvchilar uyushmasiga yo'llardilar. Tabiiyki, turli sabab bilan maktublar yozuvchining qo'lga vaqida yetib kelmas edi. Shu bois, javob xatlarining oxirida adib turar joylarini, hatto telefonlari raqamlarini aniq ko'rsatishdan erinmas edilar. Bu muhlislarga bo'lgan ishonch va muhabbatlarining ramzi edi, desak, yanglishmaymiz.

Axloq-odob mavzuiga butunlay berilganlaridanmi, yirik asar yozish fikridan uzoqlashdilar. Men damba-dam romanning uchinchi kitobini eslatardim. Ammo tayinli javob ololmas edim. Yordam beray, birga yozaylik, deyishga jur'at etmasdim...

Uchinchi kitob haqida yana so'z ochganimda в ЎК То'хта, boshqa narsa xayolimga keldi. в ЎК Bizning roman в ЎК ni davom ettirsam-chi? в ЎК deb qoldilar. Tog'amning o'smirlar tarbiyasi muammolari jiddiy ravishda tashvishga solayotgan edi. Bunga kichik tog'amning azamat o'g'lini o'rtoqlari urib o'ldirib qo'yishi sabab bo'lsa kerak. Jiyan bo'lmishning dafn marosimida yozuvchining faryodlari, sud jarayonidagi iztiroblari hali-hali yodimda. Sihatlarining nobopligiga qaramay, ishga kirishdilar. Bolalar axloq tuzatish mehnat koloniyasiga bordilar. Biz har kuni yo ko'rishardik yo telefonda gaplashardik. Tog'am erinmay hisob berardilar: в ЎК Shuncha bet yozdim, shunchasini mashinkada ko'chirdim. Shunday yaxshi fikr keldi xayolimga, ertaga qog'ozga tushiraman... в ЎК Ish bilan band ekanliklarida xastalik uzoqlashganday bo'ldi. Oradan oylar o'tib, в ЎК O'zingdan ko'гв ЎК degan axloqiy qissa yuzaga keldi. Bu yozuvchining so'nggi asari edi. Tog'am bu kitoblarini ko'rolmay ketdilar.

Asar yakuniga yetib, nashrga topshirilgach, kasallik yana tez-tez xuruj qila boshladi. Shunda в ЎК Farg'ona tong otguncha в ЎК ning uchinchi kitobi haqida so'z ochib, taklifimni aytdim. в ЎК Ha, shunaqa qarzim bor. Sen yordam bersang yozaman... Faqat birinchi, ikkinchi kitoblarni topib kel. Ko'p narsalar xayolimdan ko'tarildiv ЎК, dedilar. Ikkita kitobni topib, olib bordim. Hech unutilmayman: tog'am kitoblarni xuddi sinib ketadigan nozik chinniday ehtiyotlab olib, stol ustiga qo'yidilar. Keyin madorsiz qo'llari bilan xuddi go'dak boshini avaylab silaganday, kitob yuzini siladilar. Menga qarab-qarab qo'yidilar-da, keyin в ЎК Shuni men yozganmanmi, a? в ЎК dedilar. Bu savol zamirida ham faxr, ham o'kinch bor edi. O'shanda tog'amning ko'zlari namlanganini sezdim. Keyin-keyin o'yab qarasam, в ЎК yig'lab-yig'lab topgan bolalariv ЎК bilan vidolashayotgan ekanlar. Men nodonning bu haqiqatga o'sha paytda aqlim yetmabdi

Men safarga, tog'am to'rt yil jang bilan borgan shaharga Berlinga jo'nashim kerak edi. в ЎК Qaytgumicha o'qib qo'ysangiz, ishni boshlab yuborardiv ЎК, dedim. Mo'ljalim: tog'am asosiy voqealar bayonini bersalar, qolganini qo'limdan kelganicha qog'ozga tushirmoqchi edim. Voqea sodir bo'ladigan joy aniq Farg'ona vodiysi, asosan Andijon atroflari. Vaqt aniq o'n yettinchi yilning fevral va oktyabr to'ntarishlari oralig'idagi sakkiz oy. Qahramonlar ham aniq. O'sha davrni, olatasir zamonni ham yaxshi o'rganganman. Mana shular menga dalda berdi.

Ammo o'ylaganlarim ro'yobga chiqmadi. Qaytgach, tog'amni shifoxonada hushsiz ko'rdim.

Uchinchi kitobning yozilmaganiga yana bir asosiy sabab bor, deb gumon qilardim. Mustaqillik oftobi qalblarni yoritgach, gumonim haqiqatga aylanganday bo'ldi. Asar, Asqar Qosimov to'g'ri ta'kidlaganiday, Cho'lponning в ЎК Kecha va kunduz в ЎК romani ta'sirida yozilgan. Buni yozuvchining o'zlari ham inkor etgan emaslar. Unga в ЎК Farg'ona tong otguncha в ЎК ya'ni в ЎК Kechav ЎК mazmunida nom qo'yilishi ham shundandir. Romanning dastlabki sahifalarini eslaylik: yozuvchi Qorabuloq manzaralarini qanday mehr bilan tasvir etadi. So'ng qahramoni G'ulomjon nomidan: в ЎК Jannat, jannat deyishadi-yu, jannat deganlari Qorabulog'imizdan yaxshimikin? в ЎК deydi. Endi tasavvur etaylik: qamoq azobida turgan holda bolalik damlari o'tgan Andijonning Buloqboshisini qanday qo'msash bilan yozdilar ekan bu tasvirlarni...

Yozuvchi o'n yettinchi yil arafasidagi Farg'ona viloyati hayotini to'g'ri aks ettirganlar. Hozirgi kunda tarixni qayta ko'rish jarayonida ba'zan biryoqlamalikka yo'l qo'yilyapti. Ya'ni, в ЎК o'n yettinchi yilgacha hayot yaxshi edi, keyin yomon bo'ldiv ЎК, degan fikrlar ham uchrayapti. Tarixni qoralash kasalidan qutilish qiyin kechyapti. Axir yaxshimi, yomonmi o'tmish bizniki, o'tmish ota-bobolarimiz hayoti demak. Shunday ekan, huda-behudaga qoralayvermasdan xolis baho berishni o'zimiz uchun qoida qilib olsak chakki bo'lmas edi.

Yigirmanchi asr boshlarida mehnatkashning ahvoli og'ir edimi? Ha, og'ir edi. O'sha davrda yashab, ijod etgan ziyolilarning, ma'rifatparvarlarning asarlarini eslaylik. Yig'lab yozilgan satrlarni yana bir qayta o'qiylik. в ЎК O'tgan kunlar в ЎК, в ЎК Mehrobdan chayon в ЎК romanlarida tasvir etilgan fitna-fasodlar bu davrga kelib avj olmadimi? Xalq johillik va kambag'allik botqog'ida azob chekmadimi? Ziyolilar xalqni g'afolat uyqusidan uyg'otish uchun harakat qilmadilarmi? в ЎК Farg'ona tong otguncha в ЎК shular haqida edi. Ammo yozuvchi avvalo qamoq sharoitida, so'ngra davom etgan ta'qiblar davrida barcha haqiqatni ochiq yoza olmas edilar.

Bir kuni tog'am в ЎК Sen jadidlar haqida kattaroq asar yozsang bo'lardiv ЎК, dedilar. Men в ЎК Bu haqda yozganim bilan chiqarisharmikin? в ЎК deganimda o'yga tolib: в ЎК Sen ularning hayotlarini o'rganaver. Yozadigan, nashr etadigan vaqt keladiv ЎК, degan edilar.

O'zlari vaqtida aytolmagan gaplarini menga vazifa qilib qo'yganlarini keyinroq tushundim. Asar chiqqan paytda yolg'onligi uncha sezilmagan sahifalar, xususan, rus ishchilar sinfi vakillarining o'zbek mehnatkashlari sinfiy ongining shakllanishidagi xizmatlari bayon etilgan sahifalar endi o'quvchi g'ashiga tegishi mumkin edi. в ЎК Vijdon quli, iroda begi bo'lv ЎК degan o'z aqidasisiga sodiq yashagan yozuvchi asarning shu o'rinlarida chekinganmilar? Irodalari zaiflashganmi? Balki... tirik jon... begunoh Parvardigor... Lekin tushunish kerak: bu bayonlar bo'lmasa asar nashr etilmas edi. Oybek domlani в ЎК Qutlug' qon в ЎК romanlari boshiga ham shunday kun tushgan ekan. Asar qo'lyozmasi muhokamasida yozuvchi rus ishchilari obrazini tasvir etmaganlikda ayblangan ekan. Shundan so'ng Yo'lchini tarbiya etuvchi rus ishchisi obrazi paydo bo'lgan ekan. Mirzakalon Ismoilining vafotlaridan so'ng в ЎК Farg'ona tong otguncha в ЎК в ЎК XX asr o'zbek romaniv ЎК turkumida qayta nashr etiladigan bo'lganda majburan qo'shilgan sahifalarni qisqartirish niyati tug'ildi. Keyin o'yab qoldim: bu ish avvalo yozuvchi mehnatiga behurmatlik bo'ladi. Qolaversa, dono, farosatli o'quvchi qae chin, qae yolg'on o'zi ajratib oladi, degan to'xtamga keldim. Bundan tashqari, ziyrak kitobxon asar yozishdagi yozuvchining zahmatini xis qila oladi.

Xullas, fevral va oktyabr to'ntarishlari orasidagi voqealar tasvirida eng ko'p yolg'on ishlatishi lozim bo'lardi. Chunki sovet tarixchilari ayni shu davrni uydirmalar bilan bezab-bejashgan edi. Tog'am esa bu davrni o'z ko'zlari bilan ko'rgan edilar. Birinchi va ikkinchi kitobda majburan yozilgan sahifalar sonini oshirishni lozim ko'rmay, ishni davom ettirmaganlar. Agar yozuvchi bugungi kunlarimizda yashaganlarida, shubham yo'qki, uchinchi kitob yozilardi. Yozilganida ham haqiqat yo'lida, ajoyib tarzda yozilardi.

Tog'amning vafotlaridan keyin zimmamda bir qarz sezib v**Ў**uchinchi kitobni o'zim yozishga harakat qilsammikin? v**Ў** deb ustoz Pirimqul Qodirovdan maslahat so'radim. v**Ў**Yozmang, lozim topsalar Mirza akamning o'zlari yozgan bo'lardilar v**Ў**, dedilar. To'g'ri maslahat bergan ekanlar. Yozishga unnab ko'rgan taqdirimda ham, voqealar bayonini ulay olganimda ham ulug' adibning uslubini saqlay olmasdim, ayniqsa til go'zalligini berishda qalamim ojizlik qilishi tayin edi.

Darvoqe, til... Bu boradagi mahoratlarini ko'pchilik Abdulla Qodiriy, Cho'lpondan keyingi safga qo'yardi. Chindan ham ifodadagi go'zallik betakror edi. Lekin, ikkinchi kitob chiqqanda bir-ikki yosh adabiyotshunoslar aynan shu go'zal ifodalarni v**Ў**bekorchi jim-jimav**Ў**ga yo'yib tanqid qildilar. Ular jahon va rus mumtoz adabiyoti namunalari emas, sovet ishchi-yozuvchilarining xom-xatala asarlarini o'qib ilm olgan bo'lsalar kerak. Sveygni, Dikkensni, Tolstoyni, Thakurni o'qigan odam qahramon ruhiyatini ochishdagi badiiy tasvirni inkor etmagan bo'lardi. O'rni kelganda shu tasvirlardan bahramand bo'laylik:

v**Ў**G'ulomjon onasining nimaga yig'layotganini, nimaga betob bo'lganini biladi. O, bola sho'ri naqadar dahshatli zarbaki onaga! Jigargo'shasining baxti qoraligini ko'rganda ona dili hamisha qon, yuzi za'faron! Mana, izzat to'shagida piyrona chehrasidan baxt nurlarini to'kib o'tirish o'rniga musibat ko'rpsini dilpora bo'lib yotibdi!..

...G'ulomjon tilga olinmagan, lekin hammalari tushunib turgan dahshatli zarbaning og'ir yukini hujrasiga ko'tarib kirdi...v**Ў** v**Ў**Jamoliddin muloyim kuldi. Bu kulgida ham Fosih afandining yuziga tortilgan shapati qarsi bor ediv**Ў**.

v**Ў**Ilon tilida zahar bo'lmasa, uni hamma sevib qo'lga olgan bo'lardi. Afsuski, po'stining yaltiroqligi hech kimni ilitmaydi...v**Ў** Bunday misollarni yuzlab keltirish mumkin. Ehtimol, yozuvchi ayrim satrlarda bo'yoqni quyuqlashtirib yuborgandir. Tog'amning asarlari kamchiliklardan mutlaqo holi, degan da'vodan uzoqman. Badiiy asarga nisbatan kishilarning didi bir hil emas. Kimgadir jimjima ifodalari yoqadi, kimgadir quruq tafsilot. Bu jihatdan bahslashish noo'rin. Lekin, meningcha, suvoq qilinmagan xonada o'tirgandan ko'ra, naqshlar bilan bezatilgan uyda yashagan yoqimliroq bo'lsa kerak.

Bu kunlarda yoshlar ijodiga ko'zimiz tushganda ifodalari seyr-tarovatni ko'rmay bir oz afsuslanamiz. Qahramonning ichki dunyosi, tabiat tasvirlari ularning diqqatidan chetda qolib, faqat voqealar bayoniga beriladigan bo'lib boryaptilar. Ilgarilari v**Ў**adabiyot v**Ў** atamasiga v**Ў**nafis v**Ў** sifati qo'shib aytilardi. Afsuski, hozir shu nafislikdan uzoqlashyaptilar. Buning asosiy sababi shoshma-shosharlik, tezroq kitobni chiqarish harakati bo'lsa, ikkinchisi o'sha adabiyotshunoslarning hamfikrlari ko'payib qolgan natijasidir. Bizning xalqimiz lutfni, nafislikni, go'zal ifodalarni sevadi. Bulardan bebahra, ta'bir joiz bo'lsa, v**Ў**quruq v**Ў** asarlarning umri qisqa bo'ladi. Agar yoshlarga nasihat qilishga haqqim bo'lsa, Qodiriy, Cho'lpon, Ismoiliga hos go'zal ifodalarni qunt bilan o'rganib, o'rganganlaringizni asarlaringizga olib kiring, degan bo'lardim.

Shu o'rinda yana bir izoh lozim: o'tgan yili bir kishi menga maktub yo'llab, yozuvchilar v**Ў**din ustidan kuladilar v**Ў**, deb e'tiroz bildiribdi va bir qator yozuvchilarning asarlari qatorida v**Ў**Farg'ona tong otgunchav**Ў**ni ham tilga olibdi. Men bu masala bo'yicha bir necha marta fikrimni bayon etganman. Takror bo'lsa-da, yana ta'kid etishga majburman: azizlar, boshqa yozuvchilar singari Mirzakalon Ismoiliy ham dinni haqorat qilishdan uzoqlar. Dinga tosh otishdan har bandani Allohning O'zi saqlasin! Yozuvchilar dindor libosidagi, qilmishlari dinga zid bo'lgan ayrim johil, mutaassiblarni hajv qiladilar. Axir dindorlar orasida ham turli-tuman odamlar bor. Taqvo egalari, nafsigazlikni, ulamolarni har bir yozuvchi e'zozlaydi. Bilib-bilmay fatvo beruvchi, dardi tugun va tugun uchiga tugilgan pulda bo'lgan, Islom ilmidan uzoq odamlarni esa kamchiliklarini yozadilar. v**Ў**Farg'ona tong otgunchav**Ў**da ham shunday qilingan.

Kunlarning birida, hali juda yosh ekanimda mashq tarzida yozilgan navbatdagi hikoyamni yozib, tog'amga o'qib berdim. Hikoya qahramoni bokshi yigit buvisining gapiga kirib ro'za tutadi va oqibatda musobaqada yutqizib qo'yadi. Odatda tog'am yozganlarim bilan tanishgach, asarni yaxshilash yo'llari haqida gapirib, tilni tahlil qilib, kamchiligini ko'rsatar edilar. Bu safar unday bo'lmadi. v**Ў**Sen dinni bilmaysan, diniy odatlarni yomonlab yozmav**Ў**, deb gapni kalta qilib qo'ya qoldilar. Yozuv stollarida birgina chala ish qoldi. Aniqrog'i, bu ish hali boshlanmagan edi. v**Ў**Qizlar daftarigav**Ў** kitobi chiqqach, yana xatlar oldilar. Shundan so'ng bir kuni v**Ў**Yigitlarga ham aytadigan gaplarim ko'p ekan v**Ў**, deb v**Ў**Bunisi sizlarga, yigitlar! v**Ў** degan kitob yozish niyatlari bor ekanini aytdilar.

Axloqiy qissalarga, maqolalarga, suhbatlarga ko'p hollarda maktublar asos bo'lardi. Axloqiy kitoblardagi voqealar to'qib chiqarilgan emas. Undagi ayrim voqealarga men ham guvoh bo'lganman. Qarindoshlar, tanish-bilishlar oilaviy mojarolarni tog'amsiz hal etishmas edi. Bu mojarolarga aralashish, murosaga keltirish yozuvchiga ruhiy azob berardi. Qarindoshlardan birining qizi arazlab, qaytib kelgan ekan. Uzoq yo'l yurib borib, jiyanning qaynotasiga uchradi. Qaynota ichishni yaxshi ko'rarkan. Biz borganimizda ham shirakayf edi. Kelindan, ya'ni tog'amning jiyanlaridan nolib, uni yomonlab, v**Ў**kiyimlarimni yuvib bermaydiv**Ў**, deb, da'vosining isboti uchun irkit ko'rpacha ostidan ishtonini olib, tog'amning oldiga tashladi. Tog'amning ba'zan o'zlarini tutolmay, keskin gapirib yuborish odatlari ham bor edi. Men bu nodon qaynotaning ko'nglini og'ritib, masalani yanada chigallashtirib qo'ymasalar edi, deb havotirlardim. Lekin o'zlarini tutdilar. Ko'zlarini mo'tillatib, xuddi v**Ў**bu ahmoqdan qutqarv**Ў**, deganday menga qaradilar. Bunaqa odamni faqat do'pposlab urib, tinchitish mumkin edi. U tinmay javrayverdi.

Tog'am sabr bilan o'tiraverdilar, ammo mening toqatim yetmadi. Chiqib ketdim. Yarim soatlardan keyin qaynota tog'amni kuzatib chiqdi. Sal kayfi tarqagan shekilli, gapi ohangi ham o'zgaribdi. v**Ў**Kelinim yomon bo'lsa ham sizning hurmatingiz bor, o'g'limga aytaman, bugun borib olib keladiv**Ў**, deb va'da berdi. O'zi mayxo'r, qiliqlari xunuk bo'lsa ham, tog'amga bergan va'dasini bajardi. Jiyanning bu baxti nimaning evaziga qo'lga kiritilganini mengina bilaman. Bunday va bundanda battar hollar tez-tez bo'lmasa ham uchrab turardi. Xotini ketib qolgan bir yosh yozuvchi qaynonasiga tog'am bilan Shuhrat domlani ro'para qilibdi. U xotin bularning yozuvchiligi u yoqda tursin, oppoq sochlarini ham hurmat qilmay, haydab solibdi...

Bunday mojarolardan keyin tog'amning achchiqlanganlarini sezib turardim. Ammo bu oddiy achchiqlanish emas, yurakni temir tirnoqlarida tirnovchi azob ekan. Bunday paytlarda tog'amni chalg'itishga harakat qilardim. Tog'amning nimaga qiziqishlarini yaxshi bilardim. U kishi bog'bonlikni xush ko'rardilar. Qibraydagi qarovsiz, toshloq joyning bir bo'lagi tog'amga ham dala-hovli uchun berilgandi. Toshloqda bir tup gul o'stirish ham mumkin emasdi. Tog'am tuproq to'kdirib, shu yerlarni obod qildilar. U yerga odam olib chiqib ishlatganlarini ko'rganim ham, eshitganim ham yo'q. Qariliklariga qaramay u yoqqa yo'lovchi avtobuslarda borardilar, o'zlari ishlardilar. Bir termosda choy bilan non hamrohlari bo'lardi...

Biron mojaro ta'siridan ranjib o'tirganlarida men o'sha bog'dan gap ochardim. Shunda tog'am butunlay o'zgaradilar. Ekkan

This is not registered version of TotalDocConverter

daraxtlarini ta'riflash qo'rdi. U yerga har kuni borardilar. Yig'lab-yig'lab qaytardilar. Ayniqsa, payxon bo'layotgan daraxtlarga achinardilar. Bu joylarga ko'p qavatli turar-joy qurilgach, shaharning qoq markazidagi to'rt xonali shinam uylarini topshirib, shu yerdagi uch xonali uyga ko'chib keldilar. Uy yangi bo'lgani bilan harajatlari ko'p edi. Shu kunlarda Yozuvchilar soyuziga rais bo'lib saylangan O'lmas Umarbekov tog'amning ahvollarini surishtirib, v Ёbu yil yozuvchilarga ajratilgan v Ё Volgav Ёk avtomashinasini Mirza akamga bermoqchimizv Ёk, dedilar. Men tog'amning mashina so'rab ariza yozganlarini, navbatda turganlarini eshitmagan edim. v Ё Navbatda turganlar sizni zambarakdan o'qqa tutvorishmaydimi?v Ёk deb hazillashdim. O'sha yillari ayniqsa v Ё Volgav Ёk ni talashib, ayrim yozuvchilar bir-birining ustidan mag'zava ag'darishga ham tayyor turardilar. O'lmas aka gaplarida turib, qaror chiqardilar. Men yordamchilarini tog'amnikiga boshlab bordim. Ular xushxabarni aytishdi. Tog'am rahmat aytib, kulimsirab qo'ya qoldilar. Ular ketishgach, quvonmaganlari sababini so'radim.

-Sening yoshingda bo'lsam quvonsam yarashardi, men bu mashinani nima qilaman? Har holda mashinani tekinga berishmasa kerak. v Ё Tog'amning v Ё Volgav Ёk sotib olishga yetadigan puli borv Ёk, deb o'ylaysanmi?

v Ё Volgav Ёk olish masalasi oila davrasida ham muhokama qilinganda tog'am o'jarlik bilan rad etaverganlar shekilli, ular menga murojaat qilib, ko'ndirib berishimni so'rashdi. Oilaviy maslahatga ko'ra, mashina qarzga olinib, so'ng sotilib, foydasiga uy ta'mirlanishi kerak edi. Men bu rejani aytib, baloga qoldim.

-Senam shu ahmaqona fikrdamisan? Qariganimda v Ё mashina chayqovchisiv Ёk degan la'nat olib yurayinmi?-deb O'lmas akaga telefon qilib, e'tiborlari uchun rahmat aytgach, v Ё shu mashinaga muhtojligi bor iste'dodli yozuvchilardan birini quvontiring, katta o'g'limning v Ё Moskvichiv Ёk bor, kunimizga shu asqotib turibdiv Ёk, dedilar.

Tog'am futbolga benihoya qiziqar edilar. Men kayfiyatlarini yo'qligini sezsam, tashvishli fikrlardan chalg'itib, gapga solish uchun so'zni futbol yangiliklariga burardim. Agar v Ё Paxtakorv Ёk ning ahvoli durust bo'lsa xo'p-xo'p, yo'qsa xuddi men trener yoki yetakchi o'yinchiman-u, yutqiziq mening aybim bilan bo'lganday so'kish eshitardim. Futbolni sport emas, ijod deb bilardilar. Talabni ham shu asosga qarardilar.

Shaxmatni ham yaxshi ko'rardilar. Ta'kid joizki, uncha-buncha odam tog'am bilan bellasha olmasdi. Ba'zan men ham shaxmat o'ynashni taklif etardim. Ahvolim o'zimga ma'lum, durangni ham orzu qilmasam-da, tog'amni chalg'itish uchun dona surardim. Tog'am buni sezsal ham bilmaganga olar ekanlar.

Tog'am tabiatan sodda, kamtarin, mehnatkash odam edilar. Irodalari mustahkam, o'jarliklari ham bor edi. Kimdir menga v Ё Yozuvchi kamtar bo'lardi, tanlagan tahallusini qarang, v Ё Mirza Kalonv Ёk - v Ё Katta mirzav Ёk emishv Ёk, deb ta'na qilgan edi. Bu bo'lmagan da'vo. v Ё Mirzakalonv Ёk tahallus emas, bobomning qo'ygan ismlari. Tog'amning v Ё Men yozuvchiman!v Ёk deb kerilganlarini yoki birovga do'q qilganlarini eslolmayman.

Menga faqat bir narsa taskin beradi: Mirzakalon Ismoilijirov qulliq qilib yashamadilar. O'z xalqining sodiq va vijdonli farzandi sifatida barcha uqubatlardan yuqori turdilar, vijdonlariga xilof ish qilmadilar. Ijodkorning eng buyuk baxti shu. Bu baxtga erishgan yozuvchi barhayot bo'lib qoladi.

Mirzakalon Ismoilijirov shunday yozuvchi edi.

Yillar bu haqiqatni hali ko'p martalab isbot etadi.

Mazkur asarda xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan bo'lsak, bayonimiz zerikarli yoki qiziqarsiz chiqqan bo'lsa, siz azizlarning vaqtingizni isrof qilganimiz uchun avvalo Alloh huzurida tavba qilamiz va sizlardan uzr so'raymiz. Yana bir uzrim borki, tog'amning hayotlaridan hikoya qiluvchi avvalgi maqolalarda v Ё AQDv Ёk ning yili, v Ё Undirkomv Ёk tafsilotida, o'sha paytlarda arxivni to'la o'rgana olmaganim sababli, ozgina noaniqlikka yo'l qo'ygan ekanman. Bu bayonda o'sha kamchiliklarga barham berildi.

G'oyibona uchrashuvimiz so'ngida duoga qo'l ochib ulug' adib Mirzakalon Ismoilijirov haqlariga, istiqloil ilinjida o'tgan barcha millatparvar ustozlar haqlariga duo qilishlaringizni so'raymiz. Vallohi a'lam, bissavob!

Foniy dunyo azoblarini ko'p totgan ustozni Alloh boqiy dunyoda do'zax azoblaridan asrab, jannatda O'zining vasliga yetkazsin. Omiyn!

AvvalgiII- qismB Keyingi